



T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika
fanlari ilmiy tadqiqot instituti

UZLUKSIZ TA'LIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

2022, № 3

DJURAYEV Risbay
Bosh muharrir

Jurnal 2001 yildan nashr qilina
boshlangan.

O'z MAAdan 2007 yil 3-yanvar-
da № 0101-tartib raqami bilan
qayta po'yxatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan
maqolalardan iqtibos keltiril-
ganda «Uzluksiz ta'lim»
jurnalidan olinganligi ko'rsa-
tilishi lozim.

Tahrir hay'ati:

Sherzod SHERMATOV
Uzoqboy BEGIMQULOV
Nargiza RAXMANQULOVA
Xolboy IBRAGIMOV
Shavkat QURBONOV
Roxatoy SAFAROVA
Islom ZOKIROV
Dono G'ANIYEVA
Lobar QARAXANOVA
Dusmurod DJURAYEV
Baxodir Akbarov

Tahririyat manzili:

100027, Toshkent sh.,
Furqat ko'chasi,
174-uy.

O'zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34

(93)-503-52-07

e-mail: uzluksiztalim_jurnal@mail.ru
liya_2305@mail.ru

TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

- 3 **N.Sh.Abdullayeva**
Uzluksiz ta'limda maktabgacha ta'lim klasterini boshqarish modeli
- 7 **G.A.Rasulova**
Uzluksiz ta'lim bosqichlarida geometriyadan tarixiy ma'lumotlardan foydalanish metodikasini takomillashtirish
- 12 **G.M.Karbonova**
Uzluksiz ta'lim tizimida talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish mexanizmlari
- 16 **D.Mirzajonova, M.Umaraliyeva**
Uzluksiz ta'limda nogironligi bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvi va jamiyatga integratsiyasida oilaning o'rni
- 20 **Z.B.Maxkamova**
Uzluksiz ta'lim tizimida ayollar tadbirkorligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishning o'ziga xos jihatlari
- 24 **B.B.Abdullayev**
Uzluksiz ta'lim jarayonida intellektual tizimlar asosida o'qitishning ahamiyati
- 29 **G.A.Nazarqulova**
Uzluksiz ta'lim jarayonida boshlang'ich sinflarda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish
- 33 **Sh.Fayzullayev, O.Jumanova**
Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda MTT, oila va maktab hamkorligining yangi qirralari
- 38 **P.X.Джурпаев**
Управление качеством дошкольного образования
- 43 **Ф.Р.Жумаева**
Непрерывное изучение неморфологических способов словообразования
- 48 **Ф.А.Алимова**
Обучение темы «Коррозия металлов» на основе проектной технологии

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA MEDIATA'LIM: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

- 53 **M.T.Umaraliyeva, I.Y.Abdurahmonova**
Biologiya darslari yangi avlodi
- 58 **F.P.Davronova**
Ta'lim tizimiga raqamli texnologiyalarni tatbiq etish ijtimoiy zarurat sifatida
- 63 **M.B.Ongarov**
Biologiya darslarida ekskursiyalarni o'tkazishni axborot texnologiyalar vositasida tashkil etish
- 68 **N.X.Voxidova**
Bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish muammolari va yechimlari
- 73 **T.V.Mamadaliyev**
Bo'lajak informatika o'qituvchilarining SMART texnologik kompetensiyalarini rivojlantirish

MA'NAVIY TARBIYA

- 77 **A.A.Abdullayev**
Uzluksiz ta'limda o'yinlardan foydalanish orqali o'quvchilarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish
- 82 **J.A.Mamatov**
G'iyosiddin Jamshid al-Koshiyning ilm-fanga qo'shgan hissalarini
- 87 **M.V.Xalimova**
Inson taraqqiyoti konsepsiyasi – shaxslararo munosabatlar mas'uliyatini oshirishning tayanch metodologik asosi sifatida
- 91 **B.M.Caudos**
Возможности использования традиций природосообразного воспитания в условиях полиэтничности

KASBGA YO'NALTIRISH VA PSIXOLOGIK XIZMAT

- 95 **D.M.Elmuratova, S.I.Habibullayeva**
O'quvchi-tarbiyachilarning kasbiy vazifalari va pedagogik faoliyati ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari
- 99 **F.O.Xusanov**
Uzluksiz ta'lim jarayonida professional tayyorgarlikni tashxislash va monitoring qilishga qo'yiladigan ijtimoiy-pedagogik talablar
- 104 **S.R.Abdurizayeva**
Biologiyani o'qitishda o'quvchilarning ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish
- 108 **N.Misirova, X.Yuldosheva**
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ilmiy duyoqarashini yuksaltirish



UZLUKSIZ TA'LIMDA MAKTABGACHA TA'LIM KLASTERINI BOSHQARISH MODELI

N.SH.ABDULLAYEVA,

*Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini
qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti
kafedra mudiri, p.f.f.d(PhD), dotsent*

Maqola uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimiga "Klaster" texnologiyalarini joriy etish masalalari yoritilgan. Shuningdek, muallif maktabgacha ta'lim tizimida klasterni boshqarish bo'yicha o'z fikrlarini taklif etgan.

Kalit so'zlar: Uzluksiz ta'lim, maktabgacha ta'lim klasteri, boshqaruv modeli, sifat, samaradorlik, tuzilma, tarkibiy komponentlari.

В статье речь идет о внедрении кластерных технологий в систему дошкольного образования, которое является основным звеном в системе непрерывного образования. Автор также предложил свои взгляды на кластерное управление в системе дошкольного образования.

Ключевые слова: непрерывное образование, кластер дошкольного образования, модель управления, качество, эффективность, структура, компоненты.

The article deals with the introduction of cluster technologies in the system of preschool education, which is the main link in the system of lifelong education. The author also offered his views on cluster management in the system of preschool education.

Key words: Lifelong education, preschool education cluster, management model, quality, efficiency, structure, components.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimini muvaffaqiyatli rivojlanishi, tarbiyachi mutaxassislarning tayyorgarlik sifatini yaxshilash tarmoq ta'lim klasterlarini tashkil etish bilan belgilanadi.

Shu sababli maktabgacha ta'lim klasterini yaratishni rejalashtirish Maktabgacha ta'lim vazirligi, soha yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari, malaka oshirish institutlari, maktabgacha ta'lim tashkilotlari va barcha darajadagi ta'lim muassasalari tomonidan amalga oshiriladi.

Rejada albatta bo'lishi lozim bo'lgan elementlar "klaster missiyasi", "klaster maqsadlari", "dasturlar" va maqsadlarga erishishni ta'minlaydigan loyihalar hisoblanadi.

Klasterni boshqarishni taklif etilgan modeli natijalarni boshqarishning uchta asosiy jarayonlarga asoslangan bo'ladi:

- klaster faoliyatini rejalashtirish;
- klaster faoliyatini ichki nazorati;
- klasterni tarkibiy komponentlari va tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy kompetentligini baholash.



Maktabgacha ta'lim klasterini boshqarish tuzilmasi bo'lib universitet, texnikum, kollejlari, o'quv yurtlari, loyixa va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining asosiy tuzilmaviy bo'linmalarining vakillaridan iborat bo'lgan muvofiqlashtirish kengashi hisoblanadi. Bunday boshqarishni tashkil qilishdan maqsad qatnashchilar o'rtasida o'zaro hamkorlik, rollarni va mas'uliyatni bo'lishib olish, shuningdek qabul qilingan qarorlar uchun javobgarlikni olishni ta'minlashdan iboratdir.

Muvofiqlashtirish kengashi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

1. Klasterni rivojlanish strategiyasini belgilaydi, uning rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi.

2. Birgalikda rivojlanish loyixalarini tasdiqlaydi.

3. Maktabgacha ta'lim jarayonida shakllanadigan kompetensiyalarga bo'lgan talabni belgilaydi.

4. O'quv rejasining variativ bazasiga kiruvchi maxsus dasturlarni tuzilishini belgilaydi.

5. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining moddiy bazasini rivojlanishini belgilaydi va qo'llab-quvvatlaydi.

6. Korporativ madaniyat, o'rnatilgan qonun va qoidalarga rioya qilishni amalga oshiradi, rivojlantiradi va qullab-quvvatlaydi.

7. Klaster qatnashchilari o'rtasida vujudga keladigan xuquqiy munozaralar va masalalarni yechadi.

Klaster faoliyatini samaradorligini baholagandan so'ng klaster qatnashchilari tarkibiga aniqlik kiritiladi (yani ta'lim muassasalarini tarkibga kiritish mumkin) va uning samaradorligini oshirish uchun klaster ish faoliyatida o'zgarishlar amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining inson, shaxs omilini rivojlantirish talabi malakali kompetent mutaxassislarni shakllantirishni strategik maqsadi bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimini yaratishga asos qilib olingan.

– mutaxassislarni shartnoma asosida maqsadli tayyorlash;

– talabalarni o'quv va diplomoldi amaliyotlarini tashkillashtirish;

– MMTda ilmiy laboratoriyalar tashkil etish;

– ish beruvchilar orasida mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash uchun so'rovnomalar o'tkazish;

– ish beruvchilar mutaxassisning eng zarur kompetensiyalarini aniqlash va keyinchalik shakllantirish uchun so'rovnomalar o'tkazish;

– birgalikda o'tkaziladigan tadbirlar, ilmiy-amaliy konferensiyalar, davra suxbatlari, amaliy uchrashuvlar doirasida munozaralar o'tkazish;

– maktabgacha ta'lim tashkilotlari vakillarining talaba va bitiruvchilar bilan uchrashuvi;

– bitiruvchilarga ish beruvchilar tomonidan berilgan tavsifnomalarni yig'ish va taxlil qilish;



- birgalikda tadqiqotlar o'tkazish;
- malaka oshirish va qo'shimcha maktabgacha ta'lim variativ dasturlarini amalga oshirish;
- o'quv muassasalarida o'tkaziladigan mashg'ulotlarda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarning ishtiroki;
- bitiruvchilarni ishga joylash;
- tarbiyachi-pedagoglarning stajirovkasi.

Ta'kilash joizki, uzluksiz ta'lim tizimining tarkibiy qismi sifatida maktabgacha ta'lim klasteri turli darajadagi ta'lim muassasalri orasidagi aloqani mustahkamlash, talabalarning amaliy tayorgarlik sifatini yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayonini sifatini yaxshilash, "Klaster" tizimida izchillik va integratsion jarayonlar tamoyilini amalga oshirish imkonini beradi.

O'quv-ilmiy-ishlab chiqarish kompleksi – bu universitet bazasidagi maktabgacha ta'lim muassasalari, ilmiy va tijoriy, innovatsion va boshqa tashkilotlarni birlashtirgan korporativ tipidagi tuzilmadir. U intellektual, moddiy va ishlab chiqarish zaxiralarini integratsiyasi uchun birgalikdagi innovatsion infratuzilmani tashkillashtiradi.

Klaster tarkibiga kiruvchi tuzilmalar tashkilotlarning buyurtmalariga asosan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash; texnologiyalarni bozorga chiqarishda uni ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga yetkazish muddatini qisqartirish; tajriba bazasini rivojlantirish hisobiga ilmiy natijalarning baholash darajasi ahamiyatini oshirish; proekt boshqaruvi tamoyili asosida xususiy-davlat hamkorligi munosabatlari tizimida ishtirok etish imkoniyatini beradi.

Quyidagilar o'quv-ilmiy-ishlab chiqarish kompleksi subyektlarining pedagogik hamkorligi shartlari hisoblanadi:

- ijtimoiy hamkorlik va ta'lim tashkilotlari, ilmiy tashkilotlar va ishlab chiqarish korxonalarining o'zaro foydali hamkorligi tamoyillarini amalga oshirish;
- ishlab chiqarish amaliyotini ahamiyatli shaxsiy qadriyat, boshlang'ich mutaxassisni o'ta muxim kasbiy moslashuvi omiliga aylantirish;
- maktabgacha ta'lim hamkorligini innovatsion shakllarini tadbiq etish, ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish va o'tkazishda pedagogik qo'llab-quvvatlash.

O'quv-ilmiy-ishlab chiqarish kompleksining muvaffaqiyatli faoliyatiga universitetning Maktabgacha ta'lim kafedrası ko'mak beradi. U maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun ham yuqori malakali pedagoglar tayyorlaydi.

Oliy o'quv muassasalari va maktabgacha ta'lim tashkilotlarining o'zaro hamkorligini muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

Amaliyot mutaxassis tayyorlashning birlashtiruvchi turi hisoblanadi, uni o'tashda talabalar amalda ishlab chiqarish vositalari va ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishni va boshqalarni o'rganadilar.

Talabalarning MTT amaliyotini tashkillashtish va o'tkazishni asosiy



yondashuvi sifatida bo'lajak mutaxassislarning nazariy, ilmiy-tadqiqot faoliyatini integratsiyasi chiqadi.

Talabalarning MTT amaliyotining integrativ xususiyati ta'lim jarayonida qator asosiy tamoyillarni amalga oshirishning tabiiy natijasi hisoblanadi, jumladan turmush bilan ta'limning aloqasi; ta'lim jarayoni mazmuni va tashkil etilishining MTT tomonidan o'quv muassasasiga va bo'lajak mutaxassisa qo'yadigan talablariga mosligi, kursdan-kursga o'tishda maqsad va vazifalarning tizimligi, uzluksizligi va murakkablashuvi; talabalarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishi birligini nazarda tutuvchi pedagogik ta'sirning kompleks xususiyati tamoyillarini amalga oshirish natijasidir.

Shunday qilib, maktabgacha ta'lim va MTTning o'zaro hamkorligi kompetent, raqobatbardosh, talabgir bo'lgan mutaxassisi tayyorlashni modernizatsiyalashning eng muxim omili bo'lib chiqmoqda.

Ta'kilash joizki, uzluksiz maktabgacha ta'lim tizimining tarkibiy qismi sifatida maktabgacha ta'lim klasteri turli darajadagi ta'lim muassasalri orasidagi aloqani mustahkamlash, talabalarning amaliy tayorgarlik sifatini yaxshilash, o'quv jarayonini samaradorligini oshirish va maktabgacha ta'lim tizimida izchillik va integratsion jarayonlar tamoyilini amalga oshirish imkonini beradi. Shunday qilib, inson faoliyatining o'ziga xos turi sifatidagi maktabgacha ta'limning uzluksizligi, ushbu uzluksizlikni avvalgi umumlashgan tajriba va uni aniq faoliyat maxsulini olish uchun qo'llashni bilish bilan bog'liq bo'lgan nazariy va amaliy tomonlari uzluksiz maktabgacha ta'lim tizmining integrativ ta'lim tuzilmasi bo'lgan ta'lim klasterida amalga oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Лапыгин Д.Ю., Корецкий Г.А. Контуры регионального образовательного кластера. // Экономика региона. - 2007. - № 18. - С. 25.
2. Матвейкин В.Г., Дворецкий С.И., Минько Л.В. и др. Инновационный потенциал: современное состояние и перспективы развития. - М.: Машиностроение-1, 2007. - С. 284.
3. Н.Ш.Абдуллаева Мактабгача таълимга кластерли ёндашув татиби этиш орқали таълим сифати самарадорлигини ошириш. Халқ таълими илмий-методик журнали. Тошкент, 2021. № 6 -Б.126-130.
7. Н.Ш.Абдуллаева Management of Preschool Education System in Cluster Approach <http://www.revistageintec.net/index.php/revista/article/view/2040> Б1671-1680.
8. Н.Ш.Абдуллаева Мактабгача таълим ташкилотлари фаолиятига кластер тизимини жорий этишнинг назарий-методологик асослари Таълим ва инновацион тадқиқотлар № 4, 2021 август Б.77-88.



UZLUKSIZ TA'LIM BOSQICHLARIDA GEOMETRIYADAN TARIXIY MA'LUMOTLARDAN FOYDALANISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

G.A.RASULOVA,

Qo'qon DPI matematika kafedrasida katta o'qituvchisi (PhD)

Maqolada geometriya darsliklarida keltirilgan tarixiy ma'lumotlar va ulardan dars jarayonida uzluksiz foydalanish usullari yoritilgan. Tarixiy ma'lumotlarning izchil ketma-ketligi sinflar kesimida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: *geometriya darsliklari, tarixiy ma'lumotlar, uzluksizlik, izchillik.*

В статье описаны исторические данные, представленные в учебниках по геометрии, и методы их постоянного использования в учебном процессе. Последовательная последовательность исторических данных описана в терминах классов.

Ключевые слова: *учебники геометрии, исторические данные, преемственность, непротиворечивость.*

The article describes the historical data presented in the Geometry textbooks and methods of their using continuously in the teaching process. A consistent sequence of historical data is described in terms of classes.

Key words: *geometry textbooks, historical data, continuity, consistency.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 7-maydagi "O'zbekistonda matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq O'zbekistonda matematika 2020-yildagi ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanishi, o'tgan davr ichida matematika ilm-fani va ta'limini yangi sifat bosqichiga olib chiqishga qaratilgan qator tizimli ishlar amalga oshirildi.

Hozirgi zamonaviylashuv sharoitida ta'lim tizimini rivojlangan mamlakatlar darajasiga olib chiqish va shu orqali mamlakatimizda ta'lim samaradorligini oshirishga erishish eng dolzarb muammolardan biriga aylanib qoldi. Ma'lumki, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning fanlarni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirmasdan turib, ularni chuqur anglangan bilimlarni egallashlariga erishish mumkin emas. Shuningdek, bugungi zamonaviy ta'limning eng asosiy talablaridan biri bo'lgan o'quvchilarning bilim egallashga bo'lgan faoliligini oshirish va shu asosida mustaqil bilim olish malakalarni shakllantirishga erishmasdan turib, ta'lim maqsadlariga samarali erishib bo'lmaydi.

Geometriya darslarida tarixiy ma'lumotlardan foydalanish o'quvchilarning o'rganilayotgan materiallarga qiziqishini oshiradi, bilimlarni mustahkam egallashlariga yordam beradi.



7-sinf Geometriya darsligi mavzularida tarixiy ma'lumotlar:

– Geometriyaga oid dastlabki tushunchalar bundan 4-5 ming yil muqaddam qadimgi Misrda paydo bo'lgan. O'sha kezlarda Nil daryosining suvi har yili toshib, ekin maydonlarini yuvib turgan. Shuning uchun, ekinzorlarni qayta taqsimlash va soliq miqdorini aniqlash uchun bu maydonlarda belgilash va o'lchash ishlarini bajarishga to'g'ri kelgan. Qadimgi yunon olimlari yer o'lchash usullarini misrliklardan o'rganib, uni geometriya deb ataganlar. "Geometriya" yunoncha so'z bo'lib, "geo" – yer, "metrio" – o'lchash degan ma'noni anglatuvchi qismlardan tuzilgan.

– Mil. avv. VII-VI asrlarda Qadimgi Xorazmda ham Misrdagi kabi Amudaryoning quyi qismida yer o'lchash ishlari bajarilgan.

– Geometriyaga oid dastlabki tushunchalar Qadimgi Bobilda ham bo'lgan. Xususan, tarixchilar Pifagor teoremasi Bobilda topilgan deb hisoblashadi.

– Planimetriya geometriyaning bo'limi bo'lib, u bir tekislikda joylashgan geometrik shakllarning xossalarini o'rganadi. Fazoviy shakllarning xossalarini esa geometriyaning stereometriya deb ataladigan bo'limi o'rganadi.

– Qadimdan kesma va masofalarni o'lchashda turli uzunlik birliklaridan foydalanib kelinadi. Masalan, O'rta Osiyoda bo'g'in, qarich, quloch, chaqirim kabi uzunlik birliklari qo'llangan. "Boburnoma"da 1 elik 2 sm, 1 tutam == 4 elik, 1 qari = 6 tutam, 1 qadam = 1,5 qari, 1 mil = 4000 qadam, 1 shar'iy $\approx$ 2,8 km kabi birliklar zikr etilgan. U qadar aniq bo'lmagan o'lchov birliklari noqulaylik tug'dirgan. Shu bois XVIII asr oxirida Fransiyada uzunlik o'lchovi birligi sifatida metr qabul qilingan. So'ng u butun dunyoga tarqagan.

Bir qator mamlakatlarda xalqaro o'lchov birlik laridan tashqari quyidagi uzunlik o'lchov birliklari ham ishlatiladi:

1 duym = 2,54 sm

1 mil = 1,609 km.

(inglizcha duym - barmoq bog'ini; mil = milya - ming so'zidan olingan).

8-sinf Geometriya darsligi mavzularida tarixiy ma'lumotlar:

– Pifagor (e. a. taxminan 570-500 y.)

Pifagor Samosskiy haqida yozma hujjatlar qolmagan, ancha keyingi ma'lumotlar bo'yicha esa uning hayoti va erishgan yutuqlari borasida haqiqiy manzarani tiklash qiyin. Pifagorchilar son qonuniyatlariga olamning sirlari yashiringaniga ishonardilar. Pifagorchi sonlar olami uchun alohida olam bilan yashardi. Sonlar o'z hayotiy mazmuniga ega edi. O'z bo'luvchilarining yig'indisiga teng sonlar mukammal sonlar deb qabul qilinardi (6, 28, 496, 8128.); biri ikkinchisining bo'luvchilari yig'indisiga teng sonlar juftini (masalan, 220 va 284) do'st sonlar deb atashardi. Pifagor birinchi bo'lib sonlarni juft va toq, tub va murakkab sonlarga ajratdi, figurali son tushunchasini kiritdi. Uning maktabida



Pifagor sonlari deyiladigan natural sonlar uchliklari to'la qarab chiqilgan.

– Geometriyada isbotlashlarni muntazam qo'llay boshlash, to'g'ri chiziqli figuralar planimetriyasini yaratish, o'xshashlik haqidagi ta'limotlar Pifagor nisbat beriladi. Arifmetik, geometrik va garmonik proporsiyalar, o'rta qiymatlar haqidagi ta'limotlarni ham Pifagor nomi bilan bog'lashadi.

9-sinf Geometriya darsligi mavzularida tarixiy ma'lumotlar:

– Mirzo Ulug'bek: (1394 - 1449) - buyuk o'zbek olimi va davlat arbobi. Ulug'bekning eng mashhur asari "Ziji ko'ragoniy" deb ataluvchi astronomik jadvaldir. U 1018 ta yulduzni o'z ichiga olgan. Shu bilan bir qatorda Ulug'bekning trigonometrik jadvallari ham diqqatga sazovordir. Ulug'bekning trigonometrik jadvallari 10 ta o'nli xona aniqligida hisoblangan.

– Ahmad Farg'oniy Abul Abbas ibn Muhammad ibn Kasir Farg'oniy (861 y. Bag'dodda vafot etgan) – buyuk astronom, matematik va geograf. O'rta asr Yevropa ilmiy adabiyotida uni Al'fraganus deb ataganlar. Xalifa al Ma'mun 829-yilda Bag'doddagi Baytul-hikmat (Donishmandlar uyi) qoshida, 832-yil Damashqda rasadxona (observatoriya) qurdirgan. Bu rasadxonalarda muntazam ravishda kuzatuv olib borilgan. Ularda Farg'oniy ham faol qatnashgan. Farg'oniyning asari "Osmon harakatlari va astronomiya fani to'plami haqida kitob" deb ataladi. Bu asar astronomiyadan arab tilida yozilgan birinchi kitoblardan hisoblanadi. Farg'oniyning bu asari XII asrda lotin tiliga, XIII asrda esa ko'pgina Yevropa tillariga tarjima qilingan. Farg'oniyning asarlariga qiziqish Yevropada XIII asrdan so'ng ham davom etdi. Uning "Astronomiya elementlari" nomli asarini Yakob Galius 1669-yil lotin tiliga tarjima qildi va arabcha teksti bilan Amsterdamda nashr qildi. Farg'oniy risola ham yaratgan, masalan, Ptolemeyning "Almagest" asarining sharhiga bag'ishlab "Almagestning kirish bo'limlari haqida o'ttiz bobdan iborat risola" nomli asar yozgan. U astronomik asboblari haqida kitoblari yozishni davom ettirib, "Asturlab haqida mukammal kitob" va "Asturlab yasash haqida" degan asarlar ham yaratgan.

10-sinf Geometriya darsligi mavzularida tarixiy ma'lumotlar:

– Gippokrat oychasi – ikki aylana yoylari bilan chegaralangan va quyidagi xossaga ega bo'lgan shakldir: agar aylanalar radiuslari va oycha yoylari tiralgan vatar berilgan bo'lsa, oychaga tengdosh kvadrat yasash mumkin.

– Aylana uzunligini hisoblash juda qadimdan dolzarb muammo bo'lgan. Aylana uzunligini unga ichki chizilgan ko'pburchak perimetriga almashtirish usuli keng tarqalgan. O'rta Osiyolik matematiklar ham doiraga ichki chizilgan muntazam ko'pburchaklarni yasash, ularning tomonlarini doiraning radiusi orqali ifodalash masalalari bilan shug'ullanganlar.

11-sinf Geometriya darsligi mavzularida tarixiy ma'lumotlar:



– Umar Hayyom (1048-1123)

Qadimda va o'rta asrlarda yashagan olimlarning ko'pchiligi fanning turli sohalarida muvaffaqiyatli ijod etishgan. Shoir Umar Hayyom ana shular jumlasiga kiradi. Umar Hayyom matematika sohasida, ayniqsa algebra va geometriya sohasida katta kashfiyotlar qilgan olim. U birinchi bo'lib son tushunchasini haqiqiy musbat songacha kengaytirgan. Umar Hayyom geometriyaga ham katta hissa qo'shgan. Uning Yevklidning V postulatini "isbotlash" sohasidagi ishi juda mashhur. Yevklid o'zining "Negizlar" asarida V postulatni "ikki to'g'ri chiziqni uchinchi to'g'ri chiziq bilan kesganda, uning bir tomonli burchaklarining yig'indisi qaysi tomonda ikki to'g'ri burchakdan kichik bo'lsa, ular o'sha tomonda kesishsin" – dedi. Yevklidning bu ta'rifi unchalik aniq bo'lmaganidan qadim zamonlardan boshlab matematikalarda shubha tug'dirgan. Ular bu postulat emas, teorema bo'lishi kerak, yanglish holda postulatlar qatoriga kiritilgan deb oylashgan va uni isbotlashga urinishgan (Lobachevskiy geometriyasi).

Oliy ta'limda Geometriya darsligi mavzularida tarixiy ma'lumotlar:

Yuqoridagi tarixiy ma'lumotlardan tashqari oliy ta'limda geometriya darslarini o'tishda ham fanga doir bo'lgan qiziqarli ma'lumotlar berib boriladi. Masalan, 2 kurs geometriya darslarida "Geometriya asoslari" bobini o'rganishda aynan yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga qo'shimcha tarixiy ma'lumotlar keltirilgan.

– Qadimgi yunon olimi Evklid o'sha paytgacha ma'lum bo'lgan barcha geometrik tushuncha va xossalarni tartibga keltirib, "Negizlar" deb nomlangan kitobida bayon etdi. Bu kitob ikki ming yil mobaynida maktablar uchun eng muhim darslik vazifasini o'tadi va fan taraqqiyotida ulkan ahamiyatga ega bo'ldi. Geometriyani o'qitish hozir ham ana shu kitobdagi g'oyalarga tayanadi.

– Evklidning 5-postulati:

Evklidning 5-postulatini boshqa aksiomalardan foydalanib isbotlashga, jumla dan teskarisini faraz qilish usulini qo'llab isbotlashga bag'ishlangan ko'plab urinishlar bo'lgan. Shunday olimlardan biri Sakkeri (1733) o'z ishini juda qiziq nomlagan: "Tug'ma dog'lardan tozalangan Evklid yoki universal geometriyaning ilk prinsiplarini o'matgan tajriba". Afsuski, Sakkerining ham, boshqa olimlarning ham urinishlari zoye ketgan. XIX asrda Evklidning 5-postulatini isbotlash mumkin emasligi isbotlangan!

– Hayyom "Evklid kitobining kirish qismidagi qiyinchiliklarga sharxlar" nomli asarining parallellik nazariyasiga bag'ishlangan qismida o'sha V postulatga to'xtalgan. U Yevklidning postulati teorema ekanligini isbotlash uchun pastki asosidagi ikki burchagi to'g'ri bo'lgan to'g'ri to'rtburchakni qaragan va agar



uning pastki ikki burchagi to'g'ri bo'lsa, yuqoridagi ikki burchagi ham to'g'ri bo'lishi lozim degan xulosaga kelgan. Umar Hayyomning bu ishlaridan bexabar italiyalik matematik J.Sakkeri (1667-1733) ham V postulat bilan shug'ullanib, to'g'ri to'rtburchakka murojaat qilgan. Geometriya asoslariga bu to'g'ri to'rtburchak "Hayyom- Sakkeri to'rtburchagi nomi bilan kirgan.

2 kurs geometriya darslarida yasashga doir masalarni yechishda sirkul va chizg'ich yordamida yechib bo'lmaydigan tarixiy masalalardan foydalaniladi.

– Istalgan muntazam ko'pburchakni ham sirkul va chizg'ich yordamida yasab bo'lavermaydi. Buni 1801-yildanemis matematigi Karl Gauss (1777-1855) algebraik usulda isbotlagan. U agar n sonning $2^m p_1 p_2 \dots p_n$ yoyilmasidagi $p_1 p_2 \dots p_n$ turli tub sonlar $2^{2^k} + 1$ ko'rinishida bo'lsagina muntazam n burchakni sirkul va chizg'ich yordamida yasash mumkinligini isbotladi. Bu yerda m va k manfiy bo'lmagan butun sonlar.

– Yasashga oid masalalarni faqat oddiy chizg'ich va sirkul vositasida yechish – mantiqiy mushohada qilish qobiliyatini o'stiradi. Shuning uchun Qadimgi Yunonistonda bu mavzudagi masalalarni yechish san'at darajasiga ko'tarilgan. Shu paytgacha turli xil asboblarda yordamida har xil geometrik shakllarni yasab keldik. Masalan, chizg'ich yordamida to'g'ri chiziqli, nur, kesma, uchburchak va boshqa shakllarni chizdik. Chizg'ich va transportir yordamida turli xil burchaklar qurdik. Sirkul yordamida esa aylana va yo'ylar, goniya bilan parallel va perpendikulyar to'g'ri chiziqlar yasadik.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, geometriya darslarida tarixiy ma'lumotlardan foydalanish o'quvchilarning o'rganilayotgan materiallarga qiziqishini oshiradi, bilimlarni mustahkam egallashlariga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 7 maydagi PQ-4708-son "O'zbekistonda matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. Chiqish ma'lumotlari.

2. A.A'zamov, B.Haydarov, E.Sariqov, A.Qo'chqorov "Geometriya" 7-sinf darslik -T.: "Huquq va Jamiyat", 2017-yil.

3. B.Haydarov, E.Sariqov, A.Qo'chqorov "Geometriya" 9-sinf darslik -T.: "Huquq va Jamiyat", 2019-yil.

4. M.A Mirzaahmedov, Sh.N. Islamov va b. "Matematika-10" - T.: "O'qituvchi", 2017-yil.

5. M.A Mirzaahmedov, Sh.N. Islamov va b. "Matematika-11" - T.: "O'qituvchi", 2018-yil.



UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA TALABA-QIZLARNING IJTIMOY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARI

G.M.KURBONOVA,

TDPU dotsenti

Ushbu maqolada talaba-qizlarda ijtimoiy faollikni rivojlantirish mexanizmlari, ma'naviy yetuk, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy pozitsiyaga ega yoshlarni tarbiyalash demokratik jamiyatni rivojlantirishda muhimligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: talaba-qizlar, mexanizmlar, pozitsiya, ma'naviy yetuk, ijtimoiy faollik

В данной статье показаны механизмы развития социальной активности у студенток, значение воспитания духовно зрелой, самостоятельно мыслящей, волевой молодежи в развитии демократического общества.

Ключевые слова: студентки, механизмы, позиция, духовная зрелость, социальная активность.

This article shows the mechanisms of the development of social activity among female students, the importance of educating spiritually mature, independently thinking, strong-willed youth in the development of a democratic society.

Key words: female students, mechanisms, position, spiritual maturity, social activity.

Respublikamizda uzluksiz ta'limda o'qitish sifati va samaradorligini oshirish kasbiy, ma'naviy-axloqiy tayyorgarligi, ijtimoiy faollikni rivojlantirish orqali kadrlarning tayyorlash tizimi tubdan isloh qilindi. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning takomillashtirilgan dasturiy-metodik ta'minoti yaratildi. Natijada talabalarni tayyorlashning madaniy qadriyatlarining kasbiy-pedagogik qadriyatlar bilan aloqasi, madaniy-ijodiy faoliyatning pedagogik faoliyatdagi ijod va refleksiya bilan o'zaro aloqasi, kasbiy, madaniy va kommunikativ faoliyatga asoslangan samarali tashkiliy-pedagogik mexanizmlari ishlab chiqildi va ta'limni insonparvarlashtirishning ustuvorligi ta'minlandi. Talaba-qizlarda ijtimoiy faollikni rivojlantirish mexanizmlarini ma'naviy yetuk, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy pozitsiyaga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ma'naviy madaniyatni shakllantirish asosida takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda oliy ta'lim tizimida talabalarni kasbiy faoliyatida madaniy qadriyatlar asosida ijtimoiy faollikni rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish;

– talaba-qizlarning ijtimoiy faolligi va tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan vositalarini yaratish; talabalarda ijtimoiy faollikni rivojlantirishning tizimini takomillashtirish;



– talaba-qizlarda ijtimoiy faollikni rivojlantirishning texnologiyalarini takomillashtirish;

– talaba-qizlarda kasbiy, madaniy va kommunikativ faoliyatga asoslangan samarali pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 2909-son Qarorlari, 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish 6o'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF 4947-son Farmoni xamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Fransuz olimi Gabriyel Tard, amerikalik Uri Bronfenbrenner, rus olimlari V.S.Muxina va A.V.Petrovskiylarning tadqiqotlari ijtimoiylashuv mexanizmlariga turli yondashuvlarni keltirib o'tishgan.

Ijtimoiylashuv tushunchasini fanga kiritgan Maks Veber uni muammolarni yechishga qaratilgan harakat, inson xulq-atvorining taxminiy variantlarini subyektiv anglash sifatida, Z.Freyd bolaning kamol topishi, shaxs bo'lib shakllanishida ijtimoiy, xususan, ota-onalar va bola o'rtasidagi munosabatlar, ularning o'zaro hissiy birligi muhim ahamiyatga egaligi, J.Piaje shaxs muayyan sxemalar xamda kognitiv tuzilmalar yordamida boshqariladi; shu sababli uning ana shu sxema va kognitiv tuzilmalarga moslashuvi ijtimoiylashuv mohiyatini anglatishi, T.Persons, R.Beyla shaxs ijtimoiy ta'sirlar yordamida ilmiy bilimlar xamda kishilik madaniyati komponentlarini o'zlashtiradi, ularning negizida esa u aqliy jihatdan kamol topadi va axloqiy sifatlarga ega buladi – mazkur holat shaxs ijtimoiylashuvining ustuvor jihati hisoblangani, R.Benedikt, M.Mid shaxsning ijtimoiylashuvi turli ijtimoiy tuzimlar, jamiyat rivojining muayyan davrlarida bir xil kechmaydi; xar bir davri shaxsning ijtimoiylashuv ida o'ziga xos ko'rinishda namoyon bo'lishini keltirib o'tishgan.

Psixologiyada faollikni bir necha darajalardan iborat qandaydir iyerarxik tuzilma sifatida qaraydilar: psixofiziologik funksiyalar, faoliyatining, harakatining operatsiyalarning maxsus turlaridan. Faoliyatning maxsus turlariga odatda o'yin, o'quv va mehnat faoliyatlari kiradi. Faoliyatning bu turlari inson faolligi namoyon bo'lishining shakllari hisoblanadi. [1: 28-30]. Yuqorida aytilganlardan tashqari insonning dunyoga bo'lgan ko'pchilik faol munosabati shakllariga B.G.Ananyev sport va jangovar faoliyatni, odamlarni boshqarishni, bilishni (anglashni), muloqotni mustaqil faoliyatni kiritadi.

K.A.Abulxanova Slavskaya fikriga ko'ra, faollik – bu qandaydir integratsiyalovchi (birlashtiruvni) asos, uning yordamida individ faoliyatining



obyektiv va subyektiv omillarini muvofiqlashtiradi va solishtiradi, o'z (shaxsiy) faolligini zarur shaklga, har qanday emas, kerakli vaqtga, xar qanday emas, safarbarlik qiladi, o'z ixtiyoriga qarab harakat qiladi va o'z qobiliyatlaridan qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun foydalanadi. Shu bilan birga gender yondashuv asosida talaba qizlar faolligini ijtimoiy faoliyat davomida o'z vaqtida yo'lga qo'yiladigan dinamik tashkil qiluvchisi vaziyat sifatida baholash mumkin.

A. V. Petrovskiy faollikni tirik mavjudot o'zini yaratadigan (yangilanadigan) o'z-o'zini harakatga undaydigan qobiliyat sifatida qaraydi. Tadqiqotchining fikricha, faol individning o'zi harakat manbai hisoblanadi, unda shunchaki bo'lib qolmaydi. Bu sifatni ko'zda tutib Petrovskiy quyidagi tushunchani kiritadi: faollik subyekti. Subyekt bo'lish, Petrovskiy fikricha, o'zini yaratish, qaytadan ko'rsatish demakdir; dunyoda o'zining borligining sababchisi bo'lish demakdir [2: 98-102].

Subyekt faoliyati shakllarini tadqiq qilar ekan, Petrovskiy faoliyat paydo bo'lishining uch ketma-ket bosqichlari haqida to'xtaladi. Birinchi bosqichda faoliyat uchqunlari deganda hayotning ilk namoyon bo'lishi sifatida shaxsning harakati (ishlashi) yoki hayot faoliyati tushuniladi. Ikkinchi bosqichda faoliyat subyekti yashashining sharti sifatida qoraladi. Uchinchi bosqich faollikning mavjudligini faoliyat namoyon bo'lishining oliy shakli sifatida ko'zda tutiladi.

Hozirgi pedagogika fani faollikka shaxsning rivojlanish xususiyatlarini asoslaydigan tizim tashkil qiluvchi omil sifatida qaraydi. Faollik o'zgarishlarga tayyorlik, moslanish, mustaqil harakat qilishga intilish kabi fazilatlarida amalga oshiriladi, bunda ijtimoiy tajriba, insoniyat to'plagan bilimlarni va maqsadga erishish uchun yanada qulay yo'llarni tanlash yordamida faoliyat usullarini o'zlashtiradi. [3: 38-39]. Shu sababli oliy ta'lim tizimida talaba-qizlar faolligini yanada oshirish yo'llari va metodik izlanishlar ishlab chiqilmoqda.

Tadqiqotchilar shaxs faolligini motivatsiya, maqsadga yo'nalganlik, anglashilganlik, emotsionallik, harakat usullari va yo'llarini egallash kabi tavsiflarni birlashtiradigan va kuchaytiradigan maxsus (alohida) faoliyat sifatida tushunib vaziyatlilik kabi xususiyatlarning zarurligini ta'kidlaydilar. [4: 40,26].

Maqsadga yo'nalganlik deganda shu narsa tushuniladi-ki, har qanday faoliyat biror narsa uchun amalga oshiriladi, ya'ni shaxsning ongli qiyofasi (obrazi) sifatida tushuniladigan muayyan maqsadlarga erishishda mujassamlashgan va faoliyat subyekti motivatsiyasi bilan belgilanadi. Shaxs tashki va ichki motivlar ta'sirida paydo bo'ladi, ijtimoiy muhitni o'zlashtirish davomida ulardan muhimini tanlaydi va uni faoliyat maqsadiga aylantiradi. Shunday qilib maqsad bu – ongli motiv. Demak, faoliyat agar ongli va asoslangan xarakterga ega bo'lsa, mahsuli bo'ladi. Faollik haqidagi faoliyatning shakli sifatida tasavvur shu haqida gapirishga imkon beradi-ki, faollikka faoliyatning asosiy tavsiflaridan tashqari



hodisalardan, harakat natijalaridan kelib chiqadigan va motivlar bilan bog'liq anglashilganlik va emotsionallik xam xos bo'lishi lozim. Shaxs ijtimoiy faolligini shakllantirish masalalari tadqiqoti uzoq o'tmishdan boshlangan. Uning buloqlari qadimgi Sharq mutafakkirlarining falsafiy karashlarida, antik fozillar konsepsiyalarida, orta asr olimlari asarlarida xamda yangi davr olimlari, hozirgi falsafiy oqimlar vakillarining asarlarida uchraydi.

Maxsus adabiyotlar tahlili shuni kursatadi: ijtimoiy faollik – tushuncha, u faoliyatning aniq shakllariga ishlab chiqarish, ijtimoiy-siyosiy, ijodiy va b) nisbatan yaxlit sifatida gavdalanadi; ijtimoiy faollikning barcha shakllariga umumiy xossa qanday xos bulsa, farqlari xam shunday xosdir [5:441]. Shaxs ijtimoiy faolligining rivojlanish mexanizmlarini tushunish uchun shaxsning sotsiumga izlanuvchi faolligi va moslashishining biologik va ijtimoiy tabiatini tasdiqlovchi konsepsiya ma'lum qiziqish uyg'otdi. Ushbu konsepsiyada ijtimoiy faollik organizmning stresslarga va ko'pgina zararli ta'sirlarga chidamliligini shakllantirishning muhim vositasi sifatida qaraladi. Tadqiqotchilar qayd qiladi-ki, izlanuvchan faollik shaxsning ijtimoiy pozitsiyasiga, uning qiziqishlari, qadriyati mo'ljaliga, ijodiga, ixtirochiligiga tayanadi. Ijtimoiy faollik yana insonlarning jamoaviy o'zaro munosabatlari bilan bevosita bog'liq, ya'ni insonning ijtimoiy bahosi va izlanuvchi faoliyatining e'tirof etilishi ma'lum darajada uning faolligining o'sishini rag'batlantiradi. Ushbu asoslar uzluksiz ta'lim tizimida talaba-qizlar faoliyatini maqsadli yo'naltirishda muxim ahamiyatga ega.

Shaxs ijtimoiy bahosi va uning ijtimoiy faolligi o'rtasidagi aloqa qator pedagogik tadqiqotlarning ish obyekti hisoblanadi. Uzluksiz ta'lim tizimida talaba-qizlar ijtimoiy faolligini rivojlantirish jamiyat farovonligiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллажонов М.А. Формирование профессиональных качеств будущего учителя в процессе обучения в педвузах: автореф. дисс. канд. пед. наук. -Т., 1991. -21 с,
2. Игровое обучение иностранным языкам и иноязычному общению/ Сост. Е.А.Маслико, П.К.Бабинская и др. - Минск: Высшая школа, 1992. - 448 с.
3. Абдуқодиров А. Тасаввуф истилоҳларининг қисқача изоҳли луғати. -Хўжанд: Рахим Жалил номидаги Давлат нашриёти, 1997. - 95 б.
4. "Ижтимоий педагогика ва педагогик социология" фани ишчи дастури. /Тузувчи: Н.М.Эгамбердиева. -Т.: ТДПУ, 2007, - 16 б.
5. Краевский В.В. Общие основы педагогики. -М.: Академия, 2003. -256.



UZLUKSIZ TA'LIMDA NOGIRONLIGI BO'LGAN BOLALARNING IJTIMOIYLASHUVI VA JAMIYATGA INTEGRATSIYASIDA OILANING O'RNI

D. MIRZAJONOVA,

*Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi boshqarma boshlig'i,
psixologiya fanlari nomzodi, dotsent*

M. UMARALIYEVA,

*T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika ilmiy-tadqiqot
instituti "Ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash" bo'limi mudiri,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Maqolada uzluksiz ta'limda nogiron bolalarning ijtimoiy hayotga tayyorlash masalalari yoritilgan. Mualliflar nogironligi bo'lgan bolalarning ijtimoiy hayotga moslashuviga oilaning ahamiyati bo'yicha o'z fikr va mulohazalari berilgan.

Kalit so'zlar: *To'laqonli hayot tarzi, ijtimoiylashtirish, reabilitatsiya, oila, jamiyat, mahalla mutasaddilari, bilim va malaka.*

В статье рассматриваются вопросы подготовки детей-инвалидов к социальной жизни в условиях непрерывного образования. Авторы высказывают свои мнения и комментарии о важности семьи в адаптации детей с ограниченными возможностями к социальной жизни.

Ключевые слова: *Полноценный образ жизни, социализация, реабилитация, семья, общество, соседские мыслители, знания и квалификация.*

The article deals with the issues of preparing disabled children for social life in conditions of continuous education. The authors express their opinions and comments on the importance of the family in the adaptation of children with disabilities to social life.

Key words: *Full-fledged lifestyle, socialization, rehabilitation, family, society, neighborhood thinkers, knowledge and qualifications.*

Nogironligi bo'lgan bolalarning ijtimoiy reabilitatsiyasi, ijtimoiylashuvi va jamiyatga integratsiyasida oila alohida o'rin tutadi.

Ma'lumki, nogiron bola dunyoga kelgan ayrim oilalarda oila a'zolari, ayniqsa er va xotin (ota-ona) o'rtasida nizoli vaziyatlar rivojlanishi, psixologik zo'riqish kabi holatlar ustunlik qiladi.

Har bir insonning hayoti, uning hayotda munosib o'rnini topishi oiladagi muhitga bog'liq. Oiladagi sog'lom psixologik muhit, er-xotin, ota-ona, ota-ona-farand o'rtasidagi munosabatlarda o'zaro hurmat, bir-birini qo'llab-quvvatlash ustuvorligi nogironligi bo'lgan bolaning jamiyatga muvaffaqiyatli moslashuviga xizmat qiladi.



Nogironligi bo'lgan bolalari bor ko'pchilik oilalar bunday bolalar bilan o'zaro munosabatlarning o'ziga xosliklari haqida bilimlarga ega emaslar. Biroq, nogironligi bo'lgan bola bilan to'g'ri yo'lga qo'yilgan munosabatlar, uy sharoitida reabilitatsiya qilishning zarurligi, uyni talab darajasida jihozlash, reabilitatsiya vositalaridan foydalanish ko'nikmasi, nogironligi bo'lgan shaxslarga imtiyozlar va hk. masalalar bo'yicha to'liq axborotga ega bo'lish juda muhim hisoblanadi.

Nogironligi bo'lgan bolaning hayoti asosan oilada kechishi uning atrof muhit bilan muloqotini cheklaydi va kommunikativ ko'nikmalar yetarli darajada rivojlanmasligiga sabab bo'ladi. Ayrim hollarda bolaning faqat televizion ko'rsatuvlar ko'rishi yoki mobil telefonlarga bog'lanib qolishi nafaqat kommunikativ ko'nikmalar, balki emotsional soha, motivatsion faoliyat, motorikaning rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Nogironligi bo'lgan bolani tarbiyalayotgan oila, ijtimoiy-psixologik yordamga, qo'llab-quvvatlashga doimo ehtiyoj sezadi. Bolaning kundalik holati, hulqidagi, xatti-harakatidagi ijobiy yoki salbiy o'zgarishlar ko'pincha ota-onalarda ijobiy yoki salbiy emotsiyalarni paydo qiladi, ota-onalar boladagi bunday o'zgarishlarni kim bilandir bo'lishgisi keladi.

Shu bilan birga bunday oilalarning ijtimoiy-psixologik reabilitatsiyasi uchun ijtimoiy aloqalarni kengaytirish va saqlash muhim omil hisoblanadi. Bu birinchi navbatda, nogironligi bo'lgan bolani tarbiyalayotgan boshqa oilalar bilan doimiy muloqotdir.

Nogironligi bo'lgan bolalarning ota-onalari uchun muloqot maydoni yaratish, rejali, tizimli ma'rifiy va ko'ngilochar tadbirlar, bunday oilalar ishtirokida pozitiv muloqotlar uchun klublar faoliyatini yo'lga qo'yish va samarali faoliyat yuritishini ta'minlash va hk.larning tashkil etilishi, qulay muhit va sharoitning yaratilishi oilaning reabilitatsiyasi jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Nogironligi bo'lgan bolaga eng yaqin muhit – bu oila ekanligini hammamiz yaxshi bilamiz. Oiladagi psixologik muhit ota-onalar va qarindoshlarning shaxslararo munosabatlarga, ularning axloqiy-psixologik resurslariga, shu bilan birga oilaning moddiy va yashash sharoitiga bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida tarbiya, ta'lim va tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya sharoitini aniqlab beradi.

Ko'pincha nogironligi bo'lgan bolaga g'amxo'rlik qilish onaning zimmasida bo'ladi. Shuning uchun bolaning taqdiri ko'p jihatdan onaning xatti-harakati, sabr-toqati, jasoratiga va oiladagi muhitga bog'liq. Bunday holatda onaning o'z hissiyatini boshqara olishi, sog'lom fikr yuritishi, sabr-bardosh bilan harakat qilishi, bolaning yaxshi tomonga o'zgarishiga umid qilishi, bolaga kayfiyati yomonligini ko'rsatmasligi muhimdir.

Ayrim holatlarda moddiy qiyinchiliklar, turli oilaviy nizolar yoki boshqa sabablar tufayli ona o'z kayfiyati va ruhiyatini boshqara olmasligi, o'zini aybdor his etish, doimiy qo'rquv hissi, psixoeemotsional zo'riqish tufayli o'z diqqatini



to'play olmaslik, nogironligi bo'lgan bolasi borligidan uyalish hissining mavjudligi yoki aybdorni qidirish salbiy oqibat (depressiya, stress)larga olib keladi.

Ayrim holatlarda oila a'zolarining nogironligi bo'lgan bolaning davosi yo'q kasallikka yo'liqqanligini, barcha harakatlar samarasiz ekanini anglab yetishi ularda salbiy emotsiyalar, stress holatlari ustuvor bo'ladi, oilaning barcha a'zolari, ayniqsa ona asosan tushkun kayfiyatda bo'ladi. Bunday holatda oila a'zolari bir-birini qo'llab-quvvatlamasligi, oilaning parokanda bo'lishiga, nogironligi bo'lgan bolaning esa kundan kunga jismoniy va psixologik holati yomonlashishiga, jamiyatdan va oila a'zolaridan yanada uzoqlashishiga olib keladi.

Nogironligi bo'lgan bola tarbiyasi, uning ijtimoiylashuvi, ehtiyojlarining qondirilishi, ta'limi, kasbga yo'naltirish va o'rgatishdagi asosiy makon – oila.

Biroq, eng achinarlisi, nogironligi bo'lgan bola tug'ilgach, ayrim oilalar ajrashib ketayotgani, bola esa asosan ona qaramog'ida qolayotganidir. Vaholanki, bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi uchun oila butun va mustahkam bo'lishi, oilaviy munosabatlarda qadriyatlarimiz ustun bo'lishi zarur. Bola oila a'zolarining barchasini mehrini sezib yashashi, hamma uchun kerakligini his etishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, nogironligi bo'lgan bolaning kommunikativ ko'nikmalar, balki emotsional soha, motivatsion faoliyat, motorikaning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi faoliyat turlari bilan shug'ullanishi zarur.

Nogironligi bo'lgan bolaga bunday imkoniyatning yaratilishi uning psixologik rivojlanishi, ijtimoiylashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday muhit bolaning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini ta'minlaydi.

Shu bilan birga nogironligi bo'lgan bolaning ijtimoiylashuvida ona, uning aql bilan boshqariladigan xatti-harakati, sabr-toqati, jasorati katta rol o'ynaydi. O'z onasini quvnoq, ruhiy tetik va harakatchan holatda ekanligini ko'rayotgan bola hayotdan zavqlanishni o'rganadi.

Bundan tashqari yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ularga onalik va otalik mas'uliyatini singdirishga alohida e'tibor qaratish, oilada ota-onalarning har tomonlama o'z farzandlariga o'mak bo'lishi zarur. Chunki oilada bola mehr ko'rsa, vaqti kelib oila qurganda, farzandli bo'lganda o'zida bor mehr hissini farzandlariga bera oladi va aksincha.

Nogironligi bo'lgan bolaning ijtimoiylashuvida oiladagi muhitning o'rni haqida, oilada o'zaro munosabatlarning milliy qadriyatlarimizga asoslanishi muhim omil ekanligi, ota-onalarning bolaga nisbatan munosabati, mehr-oqibatiga qo'yiladigan talablar haqida mahalla mutasaddilarining ota-onalarga doimiy maslahati katta ahamiyatga ega.

Shu munosabat bilan oilaning ma'naviy asoslarini mustahkamlash, oilaviy qadriyatlarni asrab-avaylash, ayniqsa, otalarning bu boradagi mas'uliyatini



o'shish masalalariga mahalla mutasaddilari ham alohida e'tibor qaratish zarur. Bunda "Keksalar maslahat guruhi" jamoatchilik tuzilmasi imkoniyatlaridan samarali foydalanish lozim.

Oilada noyob qadriyatlarimizning ustuvor bo'lishi, o'zaro munosabatlar hurmatga asoslanishi, nogironligi bo'lgan bolaning jismoniy va psixologik holati, uning ijobiy tomonga o'zgarishi, uni qo'llab-quvvatlash, e'tiborli bo'lish, mehr berish, ehtiyojlarini qondirish va hk. masalalarga mas'ullikni barcha oila e'zolari o'z zimmasiga olishi, o'z fikri, amali va sa'y-harakatlarini shu maqsadga yo'naltira olishi oilalarni yanada mustahkamlaydi, nogironligi bo'lgan bola ruhiyatiga, rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bu borada fuqarolar yig'ini huzuridagi "Ota-onalar universiteti" faoliyati samaradorligini o'shish, nogironligi bo'lgan bolalarning ota-onalarini universitet mashg'ulotlariga jalb etish, mashg'ulotlarda ularga zarur maslahatlarni berish, shu bilan birga ota-onalarni qiziqtirayotgan yoki ularni qiynayotgan barcha savollariga javob olishiga erishish, ular uchun yaratilgan maxsus platformadan foydalanish ko'nikmasiga o'rgatish muhimdir.

Yuqorida qayd etilgan holatlar nogironligi bo'lgan bolaning oila a'zolarini tizimli o'qitishning zaruratidan dalolat bermoqda, chunki ular nogironligi bo'lgan bolaning reabilitatsiyasi va jamiyatga integratsiyasida ko'makdosh bo'lishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 1 dekabrda "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5270-son farmoni.

2. 2021 yil 4 oktyabrda "Bolalarni qo'llab-quvvatlash jamoat fondi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.

4. Umaraliyeva M.A. Organizational-Pedagogical Conditions of Forming Professional Competence of Teachers //Journal of Foreign Language Teaching and Applied Linguistics.2015. -R. 187.



UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Z.B. MAXKAMOVA,
mustaqil izlanuvchi

Maqola O'zbekistonda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan. Shuningdek, muallif ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari bo'yicha o'z fikr va mulohazalarini berib o'tgan.

Kalit so'zlar: *Ayollar tadbirkorligi, ijtimoiy faollik, gender tenglik, tashkilotchilik, ta'lim-tarbiya, malaka, ko'nikma.*

Статья посвящена вопросам развития женского предпринимательства в Узбекистане. Также автор высказал собственное мнение и отзывы об особенностях развития женского предпринимательства.

Ключевые слова: *Женское предпринимательство, социальная активность, гендерное равенство, организация, образование, квалификация, навыки.*

The article is devoted to the development of women's entrepreneurship in Uzbekistan. The author also expressed his own opinion and feedback on the peculiarities of the development of women's entrepreneurship.

Key words: *Women's entrepreneurship, social activity, gender equality, organization, education, qualifications, skills.*

So'nggi yillarda O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va sotsial faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya qilinishini ta'minlash, oila institutini mustahkamlash, qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda, normativ-huquqiy baza yanada takomillashtirilmoqda. Xususan, gender tenglik bo'yicha institutsional asoslar ham kengaytirilib, Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi tuzildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tarkibida yangi Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi tashkil qilindi, Respublikada va 14 ta hududiy Xotin-qizlar tadbirkorligi markazlari tashkil etildi. Jamiyat va davlat hayotida faolligi tashkilotchiligi, oilaning shakllanishi, farovonligini mustahkamlashga, onalik va bolalik muhofazasiga munosib hissa qo'shganligi uchun "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni ta'sis etildi, "Sog'lom oila-sog'lom jamiyat" konsepsiyasi yaratildi.

Ayollar jamiyatning turli sohalarida faol ishtirok etib kelmoqdalar, shu jumladan



tadbirkorlik sohasida ham. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti munosabatlarining gender jihati o'ziga hos yo'nalish bo'lib, bunda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish nafaqat gender tenglikni ta'minlash, balkim O'zbekistonning innovatsion iqtisodiyotini shakllantirishda ham muhim o'rin tutadi. Ma'lumki, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, salomatligini mustahkamlash va eng muhimi, ular uchun munosib turmush sharoitini yaratish ijtimoiy sohaning muhim yo'nalishlaridandir. Shu bois, Prezidentimiz tomonidan mazkur yo'nalishni rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Binobarin, ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha olib borilayotgan izchil sa'y-harakatlar opa-singillarimizning ijtimoiy faolligini oshirishga, turmush farovonligini yuksaltirishga imkon yaratmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 5 martdagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5020-son qarori ham aynan mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida xotin-qizlarning faolligini oshirish, ularning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishi hamda bandligini ta'minlashga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qo'llab-quvvatlash va bu boradagi ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish maqsadida qabul qilindi. Shuningdek, xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, sog'lig'ini saqlash, kasbga o'qitish va bandligini ta'minlash, tadbirkorlikka keng jalb etish, ehtiyojmand xotin-qizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, gender tenglikni ta'minlash borasida olib borilayotgan islohotlarni tizimli davom ettirish maqsadga muvofiq.

Zamonaviy ayollarning tadbirkorlik faoliyatiga undovchi omillarni taxdil etishdan oldin unga xos bo'lgan ayrim hislatlar xususida to'xtalib o'tish lozim.

Birinchidan, tadbirkorlik faoliyatida aqliy salohiyat xususiyatining ahamiyati beqiyosdir. Bundan tashkari, bilimdonlik, kiyinchiliklarni oldindan ko'ra bilish layokati, ijtimoiy muljallarning asoslangani, bajarish lozim bo'lgan ishlarni sabab va okibatlarini oldindan tasavvur kila olish ijodiy yondasha olish qobiliyati kabi sifatleri tadbirkorning maqsad-muddaolarini aniklab olishy hamda faoliyatini okilona rejalashtirishga imkon yaratadi.

Ikkinchidan, tadbirkor muomala madaniyati, odamlar bilan kirisha olish qobiliyatiga ega bo'lmog'i lozim. Jumladan, ko'pchilik fikridan to'g'ri xulosa chiqarish, boshqalar fikrini sabr-toqat bilan eshitish, zarur xollarda oxirigacha o'z nuktai nazari va manfaatlarini himoya kila olish, turli toifa jins va yoshdagi kishilarga fikrini tushuntira bilish, ana shunday fazilatlardandir.



Uchinchidan, tadbirkor ko‘pincha tavakkal ish tutishga majbur bo‘lgani bois u kuchli iroda sohibi bo‘lishi kerak. Buning uchun esa jur‘at, sa‘y-harakat, istak va ehtiyojlarini nazorat qila olish, rakobatbardoshlik, maksad sari intiluvchanlik, o‘z "meni"ga xos fazlatlarni namoyon etish orqali ko‘pchilikning e‘tiboriga sazovor bo‘lish, qatiyat, talabchanlik, jasorat, dadillik kabi fazilatlar talab etiladi.

To‘rtinchidan, tadbirkor zimmasiga katta mas‘uliyat olgani, kechayu-kunduz tinim bilmay ishlagani uchun tani salomat, ruhiyati tetik va mustahkam bo‘lmog‘i zarur[3].

Yuqoridagi tahlillarga asoslanib, ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga to‘siq bo‘luvchi asosiy omillar sifatida quyidagilarni ajratib ko‘rsatishimiz mumkin bo‘ldi:

- tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun dastlabki moliyalashtirish bilan bog‘liq mablag‘ning yetishmasligi;

- tadbirkorlik faoliyatini boshlash va samarali yuritish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakaning yetishmasligi. Xususan, aksariyat ayollarda bank tizimi to‘g‘risidagi bilimlarning yetishmasligi, kredit tizimini to‘liq tushunmaslik, o‘z nomiga kredit rasmiylashtirish tartibini bilmasligi natijasida o‘z vaqtida kredit ololmaslik, sun‘iy byurokratik to‘siqlarga duch kelishi natijasida tadbirkorlik faoliyatiga bo‘lgan qiziqishning yo‘qolishiga olib keladi;

- kam ish haqi yoki ishsizlik natijasida kredit to‘lovlarini o‘z vaqtida amalga oshira olmaslik borasidagi qo‘rquvlar, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish istagini bildirgan yosh ayollarda (asosan 25-35 yosh oralig‘i) homiladorlik ta‘tiliga chiqish sababli "uyda o‘tirib qolish" omili ham kredit olishdagi ikkilanishlar, o‘ziga nisbatan ishonchsizlikni keltirib chiqargan ekan.

Empirik kuzatishlarimiz asosida, ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning ahamiyatli jihatlari sifatida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiq:

- ayollarni tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi oilalarning farovonlik darajasini oshirishda muhim o‘rin tutadi;

- ayollarning tadbirkorligi natijasida ularning xulq-atvorida erkaklarga nisbatan ijobiy ijtimoiy-ahamiyatli me‘yorlar shakllanadi, ya‘ni oilaviy dam olishlar, yangi an‘analar, farzandlar kamoloti uchun kapital ajratish, turmush sifatini oshirish kabi;

- ayollar tadbirkorligi va ular tomonidan amalga oshiriladigan biznes texnologiyalar zamonaviy o‘zgarishlarga tezkor moslashishi, innovatsiyalarga boyligi va ijtimoiy yo‘nalganligi bilan ahamiyatli sanaladi.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda kichik beznes va xususiy tadbirkorlik



ahamiyati juda kattadir. Shunday ekan, tadbirkorlik sohasini keng ma'no-mazmunini oliy ta'lim muassasalari talabalari ongiga iqtisodiy va pedagogik jihatdan rivojlantirish, tadbirkorlik va xunarmandchilik sir-asrorlarini yetkazishda mavjud amaliy tajiribalarga oid bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish lozim. Shuningdek qo'shimcha ish o'rinlarini yaratadigan, yosh tadbirkorlar o'rtasida ijobiy raqobatbardoshlik muhitini barpo eta oladigan, mamlakat YaIMning oshishiga o'z hissalarini qo'sha oladigan kadrlarni yetishtirishga erishish tadqiqotimizning asosiy vazifalari hisoblanadi. Ayniqsa, talabalarda kichik beznes va xususiy tadbirkorlik sohasini rivojlantirishda milliy hunarmandchilikning ijtimoiy-iqtisodiy negizlariga oid bilim va tasavvurlarni hosil qilish bilan bir qatorda, ularga sohaga oid alohida ko'rsatmalar berib borish orqali ushbu sohaga bo'lgan ijobiy munosabatlarini uyg'otish va ongli maqsad asosida harakatlanib, kelgusida ishlab chiqarish korxonalarida rahbarlik funksiyalarini bajarish bilan bir qatorda o'zlari ham tadbirkorlik sub'ektlari bo'lishlari uchun yo'nalishlar berib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 5 martdagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5020-son qarori.
2. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-562-son Qonuni.
3. Musurmanova O. Ayollarga davlat g'amxo'rligi. Ayolga ehtirom to'plami. - Toshkent: O'zbekiston. 1999. - B. 147.



UZLUKSIZ TA'LIM JARAYONIDA INTELEKTUAL TIZIMLAR ASOSIDA O'QITISHNING AHAMIYATI

B.B.ABDULLAYEV,

*Toshkent kimyo-texnologiya instituti Yangiyer filiali
"Umumiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi*

Maqolada uzluksiz ta'lim tizimini intellektual tizimlar asosida tashkil qilishning samaradorligi va ahamiyati ko'rsatilgan. Intellektual tizimlarning ta'lim jarayoniga ta'siri, ularning imkoniyatlari va afzalligi haqida fikr yuritilgan.

Tayanch iboralar: *intelkt, intellektual tizimlar, sun'iy intellekt, ekspert tizimlar, texnologiya.*

В статье показана эффективность и важность организации системы непрерывного образования на основе интеллектуальных систем. Обсуждается влияние интеллектуальных систем на образовательный процесс, их возможности и преимущества.

Ключевые слова: *интеллект, интеллектуальные системы, искусственный интеллект, экспертные системы, технологии.*

The article shows the effectiveness and importance of organizing the system of continuing education on the basis of intelligent systems. The impact of intelligent systems on the educational process, their capabilities and advantages are discussed.

Key words: *intellect, intelligent systems, artificial intelligence, expert systems, technology.*

Uzluksiz ta'lim jarayonida yangi texnologiyalarni joriy qilish va tatbiq etish so'nggi yillarda jadal rivojlandi. Bugungi kun taraqqiyotiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ta'lim muassasalarimizda o'quvchilarga intellektual tizimlarga asosida ta'lim berish samarali ekanligini ko'rishimiz mumkin. Intellektual tizimlar asosida yaratilgan matnni nutqqa, nutqdan matnga, imlo tekshirgichlar va qidiruv tizimlari kabi yordamchi texnologiyalar dastlab imkoniyati cheklangan o'quvchilarga yordam berish uchun ishlab chiqilgan texnologiyalarning bir nechta misolidir. Keyinchalik, ushbu texnologik yechimlardan foydalanish kengaytirildi va endilikda ularni barcha shaxsiy kompyuterlarda, smartfon va telefonlarda umumiy funksiyalar sifatida ko'rishimiz mumkin. Bu texnologiyalar hozirda butun dunyo bo'ylab barcha o'quvchilarning bilim darajasini o'qitish va rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Bundan tashqari, intellektual tizimlar hozirda butun dunyo bo'ylab shaharlar va ta'lim muassasalarida har kuni qo'llaniladigan vositalarni takomillashtirmoqda. Internet qidiruv tizimlari, smartfon xususiyatlari va



ilovalaridan jamoat transporti va maishiy texnikagacha. Misol uchun, Google o'zining qidiruv tizimlari va xaritalari uchun intellektual tizimlardan foydalanmoqda va barcha yangi avtomobillar dvigateldan tortib to to'xtashgacha bo'lgan vaziyatlar intellektual tizimlardan foydalanib kelmoqda. O'z-o'zini boshqarish texnologiyasi allaqachon Tesla, Volvo, Mercedes va Google kabi ba'zi yirik kompaniyalar buni rivojlanishning ustuvor yo'nalishiga aylantirmoqda.

Intellektual tizimlar hozirda jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda va bu allaqachon ta'lim tizimiga chuqur ta'sir qilmoqda. Misol uchun, ta'lim muassasalarida allaqachon intellektual tizimlarning paydo bo'lgan shakli – IBM Uotson superkompyuteridan foydalanmoqda. Ushbu yechim Avstraliyadagi Deakin universiteti talabalari uchun kuniga 24 soat, yiliga 365 kun talabalarga maslahat beradi. Agar u takrorlanuvchi va nisbatan bashorat qilinadigan vazifalarni bajarish uchun mos bo'lgan algoritmlarga asoslangan bo'lsa ham, Uotsondan foydalanish intellektual tizimlarning kelajakdagi oliy ta'limdagi ma'muriy ishchilar guruhiga ta'sir qiladi. Bu xizmatlar sifati tuzilmasini, ta'lim muassasasidagi vaqt dinamikasini va uning xodimlari tarkibini o'zgartiradi[1, 96-b]. Istalgan soatda moslashtirilgan fikr-mulohazalarni taqdim eta oladigan superkompyuter ilgari ushbu funktsiyani bajargan bir xil miqdordagi ma'muriy xodimlarga bo'lgan ehtiyojni kamaytiradi. Shu nuqtai nazardan, intellektual tizimlarning o'quv jarayoniga ta'siri istiqbolli ekanligini ham ta'kidlash muhimdir.

O'rganishlar shuni ko'rsatdi-ki, kelgusi bir necha yillar ichida biz robotlarni o'qituvchi sifatida ko'rmasak-da, o'quv dasturlari va o'qituvchilarga ta'lim tajribasidan ko'proq foydalanishga yordam beradigan kompyuter aqlini ishlatadigan ko'plab loyihalarni uchratishimiz mumkin. Quyida intellektual tizimlarning o'quv jarayonidagi o'rni hamda ahamiyati qay darajada bo'lishi mumkinligi keltirilgan:

Ta'lim jarayonida o'qituvchilar o'quv materiallarida ta'lim oluvchilarni muayyan tushunchalar bilan chalg'itishi mumkin bo'lgan bo'shliqlar haqida doim ham xabardor bo'lmazligi mumkin. Intellektual tizimlar bu muammoning yechimini taklif qiladi[2, 41-b]. Coursera, ochiq kodli onlayn kurslarning yirik provayderi, buni allaqachon amalda qo'llamoqda. Ko'p sonli o'quvchilar uy vazifasiga noto'g'ri javob berganliklari aniqlansa, tizim o'qituvchini ogohlantiradi va o'quvchilarga shaxsiy javobini yuboradi hamda to'g'ri javob uchun maslahatlar beradi. Bunday tizim kurslarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan bo'shliqlarini to'ldirishga va barcha o'quvchilar bir xil kontseptual asosni yaratishga yordam



beradi. O'qituvchi javob berishini kutishning o'rniga, talabalar kontsepsiyani tushunishga va keyingi safar buni qanday qilish kerakligini eslashga yordam berish uchun darhol fikr-mulohazalarni qabul qilishadi.

Albert Eynshteyndan bir iqtibos bor: "Har bir inson daho, lekin agar siz baliqni daraxtga chiqish qobiliyatiga qarab baholasangiz, u butun bir hayoti davomida o'zini ahmoq deb hisoblaydi"[3, 87-b]. Bilimni bir xil tarzda o'rganadigan ikkita o'quvchi yo'q. Moslashtirilgan ta'lim dasturlari va o'rganishni qo'llab-quvvatlash orqali intellektual tizimlar odamlarning qobiliyatlari, qiziqishlari va qobiliyatlariga ko'ra ehtiyojlarini qondirish uchun o'quv jarayonini moslashtira oladi.

Intellektual tizimlar o'quvchining nima bilan shug'ullanayotgani va nima bilmasligini aniqlashga yordam beradi, bilimlardagi kamchiliklarni hisobga olgan holda har bir o'quvchi uchun shaxsiy o'quv jadvalini tuzadi. Shunday qilib, Intellektual tizimlar o'quvchilarning o'ziga xos ehtiyojlariga qarab o'rganadilar va ularning samaradorligini oshiradilar.

Uzluksiz ta'lim jarayonida intellektual tizimlar ta'lim olish ko'lamini kengaytiradi. Umuman olganda, intellektual tizimlar va raqamli texnologiyalar butun dunyo bo'ylab o'quvchilar uchun ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi. Intellektual qidiruv tizimlari va yo'naltiruvchi mexanizmlar o'quvchilarga o'qishni davom ettirish uchun zarur bo'lgan ma'lumot va resurslarni taqdim etadi. Massive Open Online Course (MOOC) kabi platformalar kurslarni Internetga ulangan har bir kishi uchun bir zumda havola qiladi. Bu intellektual tizimlarning o'quv jarayonidagi muhim afzalliklaridan biridir. Ta'lim olishning chegarasi yo'q va intellektual tizimlar bu kabi chegaralarni yo'q qilishga yordam beradi. Texnologiya dunyoning istalgan joyidan va istalgan vaqtda istalgan sohani o'rganishni osonlashtirib, keskin o'tishlarni olib keladi. Intellektual tizimlar asosidagi ta'lim o'quvchilarni axborot texnologiyalari sohasidagi fundamental ko'nikmalar bilan ta'minlaydi. Ko'proq ixtirolar bilan onlayn kurslar kengroq yoritilgan bo'ladi va intellektual tizimlar yordamida o'quvchilar qayerda bo'lishlaridan qat'iy nazar ta'lim olishadi.

Uzluksiz ta'lim jarayonida intellektual tizimlardan foydalanishning biz bilgan afzalliklaridan tashqari, boshqa afzalliklari ham bor, jumladan:

Ta'lim jarayonida intellektual tizim texnologiyalariga asoslangan ko'pgina onlayn texnologiyalar yordamida o'rganish "har qanday joyda, istalgan vaqtda" tamoyilga asoslanadi, bu esa o'quvchiga qulaylik yaratadi. Imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun innovatsion intellektual tizim texnologiyalari o'rganishda nuqsoni bo'lgan yoki nogiron va alohida ehtiyojli o'quvchilar uchun o'zaro



munosabatlarning yangi usullarini taqdim etadi.

24/7 ta'lim olish imkoniyati. Intellektual tizim yordamchilari bilan o'quvchilar har doim ta'lim olish imkoniyatiga ega boladi. Ular ma'lum bir joyga bog'lanmasdan o'z kunlarini rejalashtirishlari mumkin. Ular yo'lda, xohlagan joyda va xohlagan vaqtda o'qishlari mumkin. O'quvchilar o'zlarining eng samarali vaqtlari asosida o'z dars jadvallarini tuzishlari mumkin.

Uzoq vaqtlar davomida ta'lim tizimi barcha o'quvchilarga bir xil munosabatda bo'ldi. Biroq, haqiqat shundaki, har bir o'quvchi noyobdir. Kelajakda intellektual tizimlar o'quvchilar uchun o'quv tajribasini ularning kuchli va zaif tomonlariga qarab sozlanadi va moslashtiriladi. Bu barcha o'quvchilarga o'quv jarayonidan zavq olish imkonini beradi.

Intellektual tizimlar vaqt o'tishi bilan o'quvchilarning ta'lim olishiga qarab, uning kelajakdagi faoliyatini bashorat qiladi. Bunday bashorat ta'lim tizimida ma'lum bir vaqt ichida qancha o'quvchilar oliygohlarga kirishi kutilayotganligini bilishga yordam beradi. Bu esa oliygoh faoliyatini kengaytirishga hamda o'qituvchilar malakasini oshirish bo'yicha kelajakdagi byudjet rejaralarini tuzish imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'quvchilar ma'lumotlarini tahlil qilish orqali intellektual tizimlar o'quvchilarni shaxsiyati, kuchli tomonlari va bir-birini to'ldiruvchi bilim, ko'nikma va malakalariga qarab birlashtirishi mumkin. Birgalikda ishlay oladigan o'quvchilarni guruhlash nizolarni kamaytiradi va o'quv jarayonini samarali tashkil qiladi. O'quv yurtlarimizda talabalar soni ortib borayotgani sababli, intellektual tizimlar o'qituvchilarning faoliyatini yengillashtirishda yordam beradi. Intellektual tizimlar o'quvchilarga qo'shimcha yordam ko'rsatadilar, o'qishlarida ularga fikr bildiradilar. Shuningdek, ular o'quvchilar uchun talab bo'yicha ta'lim olish imkoniyatini yaratadilar.

Bugungi kunda intellektual tizimlar uzluksiz ta'lim jarayoniga kirib kelib bo'lgan. Bir necha intellektual tizimlar ishlab chiquvchilar ko'plab ta'lim platformalarini tavsiya etadi. Bularga:

Third Space Learning[4]. Ushbu tizim London Universitet kolleji olimlari yordamida yaratilgan va intellektual tizimlar imkoniyatlaridan faol foydalanadi. Tizim o'qitish usullarini takomillashtirish yo'llarini tavsiya qiladi. Misol uchun, agar o'qituvchi juda tez yoki sekin gapirsa, tizim o'qituvchiga xabar yuboradi.

Brainly[5]. Bu o'quvchilar hamkorligi uchun ijtimoiy tarmoq. Masalan, o'quvchilar uy vazifalari bilan bog'liq masalalarni muhokama qilishlari yoki boshqa o'quvchilardan yangi bilimlarni olishlari mumkin. Kompaniya yaxshi



foydalanuvchi tajribasini taqdim etish uchun Machine Learningdan foydalanadi. Bundan tashqari, intellektual tizimlar ko‘proq moslashtirilgan materiallarni taklif qilish uchun ishlatiladi.

ThinkerMath[6]. Intellektual tizimlarni qo‘llab-quvvatlaydigan ushbu yechim kichik bolalarga matematikani o‘rganishga yordam beradi. Yaxshiroq ishtirok etish natijalariga erishish uchun turli o‘yinlar va mukofotlar mavjud. Ilova shuningdek, bolaning bilimiga qarab individual o‘quv rejasini taklif qiladi.

Uzluksiz ta’lim jarayonini yaxshilaydigan ko‘plab intellektual tizimlarga asoslangan yechimlar mavjud. Ushbu intellektual tizimlarga asosida yaratilgan platformalar ta’lim rivojlanishi uchun ajoyib imkoniyatlar tufayli juda istiqbolli hisoblanadi.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Корнеев В.В., Гарев А.Ф. и др. Базы данных. Интеллектуальная обработка информации. – М.: "Нолидж", 2000. –490 с.
2. Гаскаров, Д.В. Интеллектуальные информационные системы: Учебник для вузов. – М.: ВШ, 2005. – 432 с.
3. Козлов, А.Н. Интеллектуальные информационные системы: учебник /А.Н. Козлов; Мин-во с-х. РФ, ФГБОУ ВПО Пермская ГСХА. - Пермь, 2012.- 278 с.
4. <https://www.thirdspacelearning.com>
5. <https://www.brainly.com/>
6. <https://www.thinkermath.com.tr/>



UZLUKSIZ TA'LIM JARAYONIDA BOSHLANG'ICH SINFLARDA ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

G.A. NAZARQULOVA,

GulDU oqituvchisi

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar faoliyatida ta'limiy didaktik o'yinlar ayniqsa asosiy o'rinni egallaydi va o'quvchilarning ijodiy tafakkurini o'stirishda asosiy vosita hisoblanadi. Mazkur maqola boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan tashkil etiladigan dars jarayonlariga zamonaviy ta'limiy texnologiyalarni joriy etish masalalariga qaratilgan.

Kalit so'zlar: *yangi pedagogik va axborot texnologiyalar; ta'limiy o'yinlar; iqtidorli ilg'or o'quvchilar; o'quvchilarning ijodiy tafakkuri; o'quvchilarning o'zaro va o'qituvchilar bilan hamkorligini mustahkamlash.*

Educational didactic games play a particularly important role in the activities of students of small school age and are a key tool in developing students' creative thinking. This article focuses on the introduction of modern educational technologies in the teaching process with primary school students.

Key words: *new pedagogical and information technologies, educational games, gifted advanced students, creative thinking of students, strengthening student interaction and collaboration with teachers.*

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy an'analariga, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlariga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarurligi qayd etilgan. Shu bois respublikamizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotida o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirilgan yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini darslarga tadbiq etishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning yosh xususiyatlarini nazarda tutgan holda ko'proq ko'rsatmalilik va didaktik-ta'limiy o'yinlardan foydalanish samarali natija beradi.

Ko'rsatmalilik, ya'ni o'z ko'zi bilan ko'rish bilimlarning inson xotirasida mustahkam joylashishida, xususan, til o'rganishda katta ta'sir kuchiga ega. Til o'rganuvchi ko'rish orqali narsa-buyum hamda uning tildagi ifodasi haqida aniq tushunchaga ega bo'ladi. Ayniqsa yangi so'zlarni ongli va puxta o'zlashtirish ko'rsatmalilikni taqozo etadi, chunki o'quvchilarga narsa-buyumning o'zini yoki tasvirini ko'rsatish ularga ushbu so'zlarni tez ilg'ab olishga, o'z ona tillariga qiyoslab tushunib olishga va xotirada uzoq saqlanib qolishiga yordam beradi.

Ko'rsatmali vositalar til o'rganishda katta yordam beradi, shu bois



boshlang'ich sinflarning darsliklari rasmlarga boy, rangli tarzda chop etiladi. Hozirgi kunda ta'lim rus tilida va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarda amal qilayotgan "O'zbek tili" darsliklari buning yorqin misolidir. Ularda berilgan rasmlar, rebuslar, boshqotirmalar, mavzuni ko'rsatmali tushuntirishga qaratilgan turli chizmalar, o'qituvchilarga darsni "Klaster", "Aqliy hujum" kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llab tashkil etishlari uchun bevosita yordam beradi.

Ta'limiy o'yinlar bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yengillatishga, o'quvchilarni darsga to'liq jalb etishga yordam beradi, ular o'quvchilarning o'zaro va o'qituvchilar bilan hamkorligini mustahkamlashda ham nihoyatda katta ahamiyatga ega. Biroq ta'limiy o'yinlardan o'quvchilarning yosh xususiyatlariga, o'tilayotgan mavzularga mos ravishda darsning ma'lum bir bosqichidagina foydalanish kerak bo'ladi, to'liq darsni o'yinga bag'ishlash o'quvchilarni darsning ta'limiy maqsadidan chetlashtiradi.

Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning boshlang'ich sinflarida o'zbek tili darslarini o'tishda o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ta'limning quyidagi faol usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

1. "So'z top" o'yini. Bu metodni darsning kirish qismida avvalgi darsni mustahkamlash maqsadida yoki lug'at ustida ishlash maqsadida o'tkazish mumkin. O'qituvchi bironta so'z aytadi, o'quvchilar esa davom ettiradilar. O'yin qoidasiga ko'ra o'qituvchi boshlagan so'z qaysi harfda tugasa, o'quvchi shu harfdan boshlangan so'zni aytishi kerak. Masalan: Darslik-kitob-bola-anor-ro'mol va hokazo.

Bu o'yinni biror mavzu guruhiga oid so'zlar bo'yicha ham o'tkazish mumkin. O'quvchilar navbatma-navbat bir soha yoki bir mavzu guruhiga oid so'zlarni topishlari kerak. Masalan, sinfda, uy jihozlariga oid so'zlarni aytish topshirig'i berilsa, 1-o'quvchi: xontaxta, 2-o'quvchi ko'rpacha, 3-o'quvchi gilam, 4-o'quvchi guldon va hokazo tarzida davom ettirib ketishi mumkin. Bunda tezda so'z topa olmagan o'quvchi o'yinni tark etadi, o'yinda oxirigacha qolganlar g'olib bo'ladi. Shuningdek, bu o'yinni o'simliklar, gullar, o'quv qurollari nomlari bo'yicha tashkil etish mumkin. Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 2-3- sinflarida "O'zbek tili" darslarida aynan shunday mavzular o'tiladi, shu bois bu ta'limiy o'yin o'tilgan mavzular va o'rganilgan so'zlarni o'quvchilar xotirasida mustahkamlashga juda katta yordam beradi.

2. "O'z o'miga qo'y" o'yini. Bu o'quvchilarning imlo savodxonliklarini ham tekshirib olishga yordam beradigan usul bo'lib, kartochkalarga yozib o'quvchilarga alohida tarqatish, ularni alohida baholashga yordam beradi. Shuningdek, buni o'quvchilarning charchog'ini yozish uchun barchaga umumiy topshiriq sifatida



topshirilishi ham mumkin. Buning uchun bir soʻzning boʻgʻinlarini yoki harflarini turlicha sochib yuboriladi va ularni oʻz oʻrniga qoʻyib yozish?

3. "Oʻylab top" oʻyini. Bu oʻyin 4-sinf va undan yuqori sinflar oʻquvchilari bilan oʻtkazilishi maqsadga muvofiq (jumladan, 4-sinfda "Bizning oila" mavzusida), chunki bu oʻyin samarali natija berishi uchun oʻquvchilar anchagina koʻp soʻz zahirasiga ega bilishlari kerak. Mazkur oʻyinda maʼlum bir kasbga oid soʻzlar olinib, boshlovchi biror kasb egasiga taqlid qilib harakat qiladi, oʻyin ishtirokchilari bu harakat qaysi kasbga oid soʻzni ifodalashini topishlari kerak. Bekitilgan soʻz kartochkaga yozilgan boʻlib, soʻzni toʻgʻri topgan oʻquvchiga koʻrsatiladi. Albatta, toʻgʻri javob topgan oʻquvchilar gʻolib boʻladi.

4. "Kim koʻp soʻz biladi" oʻyini. Ushbu oʻyin ham oʻquvchilarning lugʻat boyligini oʻstirishga katta yordam beradi. Buning uchun sinf 2 guruhga boʻlinadi va har bir guruh uchun alohida topshiriq beriladi. 1-guruh oʻquvchilariga ikki tomoni bir xil unli bilan yoziladigan, ikkinchi guruhga esa ikki tomoniga bir xil undosh yoziladigan soʻzlarni doskaga yozish topshiriladi. Masalan: 1-guruh ikki alla kabi. 2-guruh qiziq, katak kabi. Har bir guruh oʻquvchilari birma-bir chiqib soʻzlarni yozadilar. Soʻz topolmay toʻxtagan guruh yutqazgan hisoblanadi.

5. "Kim nima qiladi?" oʻyini. Oʻquvchilar 2 guruhga boʻlinib, doska yoniga har bir guruhdan bittadan oʻquvchi taklif etiladi. Doskaga birinchi guruh ishtirokchisi "kim?" soʻrogʻiga javob boʻladigan soʻzlarni yozsa, ikkinchi guruh ishtirokchisi "nima qiladi?" soʻrogʻiga javob boʻladigan soʻzlarni yozadi. Natijada yigʻiq gaplar vujudga kelishi kerak:

1-guruh	2-guruh
Shifokor, davolovchi, vrach	Davolaydi, shifo beradi.
Oʻqituvchi	Oʻqitadi
Oʻquvchilar	Oʻqiydilar
Qushlar	Sayraydi
Shamol	Esadi
Gullar	oʻsadi, ochiladi
Paxta	Ochiladi
Yomgʻir	Yogʻadi
Quyosh	Isitadi

Qolgan ishtirokchilar esa gaplarni daftarlariga koʻchirib, oladilar. Bunda oʻquvchilarning yozma savodxonligiga ham hisobga olinadi. Qaysi guruh aʼzosi topshiriqni bexato bajarsa, shu guruh "ragʻbat" kartochkasi beriladi. Iqtidorli ilgʻor oʻquvchilarga ushbu ish turini ijodiy davom ettirish, yaʼni soʻzlarning sinonimlari yordamida topshiriqni kengaytirib bajarish topshirilishi mumkin. Bu oʻquvchilarning nutqini sinonimlar vositasida boyitishga yordam beradi.



6. "Kim tezroq?" o'yini. Har bir guruh a'zosiga yig'iq gaplar beriladi, o'quvchilar esa ushbu yoyiq gaplarga aylantirib, daftarlariga yozishlari lozim. Bahor. Daraxtlar gullaydi. Gullar ochiladi. Qushlar sayray boshlaydi. Navro'zi olam kirib keldi. Doshqozonlar qaynaydi. Sumalaklar pishadi. Mashqni hammadan tez, to'g'ri va bexato bajargan o'quvchi yuqori baho yoki ball qo'yib rag'batlantiriladi.

7. "Gapni davom ettir" o'yini. Bu o'yinning qoidasiga ko'ra bir o'quvchi bitta qisqa gap aytadi, boshqa o'quvchi aynan shu gapga so'z qo'shib boraveradi. Masalan:

1-o'quvchi: Men hikoya o'qidim

2-o'quvchi: Men qiziqarli hikoya o'qidim.

3-o'quvchi: Men kecha qiziqarli hikoya o'qidim va h.k.

Qaysi o'quvchi so'z qo'sha olmasa yoki xatoga yo'l qo'ysa, o'yinni tark etadi. 6-7 diqqatlik o'yin mobaynida ishtirokchi bo'lib qolgan o'quvchilar g'olib bo'ladilar va baholanadilar.

8. "Maslahat zanjiri" o'yini. Bunda o'quvchilar bo'sh vaqtni o'tkazish uchun taklif kiritishlari, ya'ni ularning har biri bugun kechqurun, ertaga tushdan keyin yoki dam olish kunlari nima bilan shug'ullanishlarini aytishlari kerak. Masalan:

1-o'quvchi: Kechqurunlari men musiqa bilan shug'ulanaman.

2-o'quvchi: Men esa bobom bilan shaxmat o'ynayman.

3-o'quvchi: Men...

4-o'quvchi: Men esa...

Kim o'z taklifini to'g'ri ayta olmasa yoki aytilgan fe'lni takrorlasa, o'yindan chiqadi. O'yinda oxirigacha qolganlar g'olib bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, boshlang'ich ta'lim bosqichida rusiyzabon o'quvchilarga o'zbek tilini o'rgatishda ko'proq ko'rsatmalilik va didaktik-ta'limiy o'yinlardan foydalanish va bunda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini e'tiborga olish samarali natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali nutqi (30.09.2020)

2. Гаскаров, Д.В. Интеллектуальные информационные системы: Учебник для вузов. -М.: ВШ, 2005. - 432 с.

3. Козлов, А.Н. Интеллектуальные информационные системы: учебник /А.Н. Козлов; Мин-во с-х. РФ, ФГБОУ ВПО Пермская ГСХА. - Пермь, 2012.- 278 с.



BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHDA MTT, OILA VA MAKTAB HAMKORLIGINING YANGI QIRRALARI

SH.FAYZULLAYEV,
SamDU dotsenti, p.f.n.
O.JUMANOVA
O'z.FPI magistranti

Maqolada bo'lajak mutaxassislarni maktabgacha ta'lim tashkilot (MTT)larida Yangi O'zbekiston Respublikamizning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy yuksalishning muhim omillaridan biri, maktabgacha ta'lim tashkiloti, oila, maktab va jamoatchilikning hamkorlikda olib boradigan tarbiyaviy jarayonni amalga oshirishga qaratilgan faoliyati hisoblanishi hamda uni amalga oshirish mexanizmlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: *Oila, nasl-nasab, hamkorlik, tarbiyaviy muhit, pedagogik tajriba.*

One of the important factors in the economic, socio-political and spiritual development of the New Republic of Uzbekistan is the cooperation of preschool education organizations, families, schools and the public. activities aimed at the implementation of the educational process and the mechanisms for its implementation.

Key words: *Family, lineage, cooperation, educational environment, pedagogical experience.*

Одним из важных факторов экономического, социально-политического и духовного развития Новой Республики Узбекистан является сотрудничество организаций дошкольного образования, семьи, школы и населения. Мероприятия, направленные на реализацию образовательного процесса и механизмов для его реализации.

Ключевые слова: *Семья, родословная, сотрудничество, образовательная среда, педагогический опыт.*

Maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi hamda ilmiy madaniy muassasalarni bo'lg'usi Renessansning to'rt uzviy halqasi deb bilamiz. Bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o'qituvchilar va ilmiy ijodiy ziyolilarimizni esa, yangi uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuni deb hisoblaymiz. Men ishonaman-hurmatli ota-onalar bu tashabbusni qo'llab-quvvatlab, yangi Renessansning beshinchi halqasi beshinchi ustuni bo'ladilar.....[1].- deb Prezidentimiz tomonidan ta'kidlanishi oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari qanchalik beqiyos ekanligidan dalolat beradi.

Bolaning tabiiy alomatlari va nasli-nasabi qanchalik ahamiyatga ega bo'lmasin, tarbiya hal qiluvchi rol o'ynaydi. Chaqaloq hayotining dastlabki yillarida



o'rab olgan dunyoni anglab yetishni oila doirasida o'rgana boshlaydi. Ana shu muhit shaxs mohiyatini va bunday keyingi rivojlanishini belgilab beradi. Xuddi shu davrda ota-onaning bolaga nisbatan mehr muhabbatining tarbiyaviy ahamiyati kattadir. Chunki bu davrda bolaning rivojlanishi asosan hissiyotlar ta'sirida bo'ladi. Shuning uchun oilada bolani tug'ilishidan so'ng ota-onaning kichkina mavjudot mas'uliyati kattadir. Zotan, murg'akkina go'dakni to'la ma'nodagi shaxs bo'lishi uchun bu juda zarur. Shunday ekan, ota-ona mehri muhabbatsiz shaxsni to'la qonli har tomonlama rivojlantirish mumkin emas.

Bola tarbiyasi ijodiy jarayon. Bolalar bilan birgalikdagi hayot – bu haqiqiy san'at bo'lib, doimo uni takomillashtirib borilsa, har qanday san'at kabi ota-onaga va tarbiyachiga quvonch baxsh etadi. Shuningdek, bolalar bilan birga bo'lish, faqatgina quvonch emas, ma'naviy kamolotni, axloqiy takomillikning manbai hamdir. Farzandlari va tarbiyalanuvchilari bilan muomala qilish hayotini yangi ma'no va mazmun bilan boyitadi, yanada rang-barang qiladi.

Oilaviy tarbiyaga yetarli baho bermayotgan yoki uni kamsitayotgan har qanday qarashlar o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalashga jiddiy zarar yetkazadi. Ijtimoiy tarbiyaning roli va imkoniyatlari qanchalik o'sib borishidan qat'i nazar, oilaviy tarbiya zarur va uni boshqasi bilan almashtirib bo'lmaydi. Bolalik bu insonning hissiyoti, ko'nikmasi, xulq-atvori, didlarining shakllanishi davridir. Xuddi shu davrda uning individual xususiyatlari, xarakter belgilari, axloqiy-irodaviy tomonlari paydo bo'la boshlaydi. Tilga ega bo'lib, nutqi paydo bo'lishi bilan bola kishilik tajribasini o'zlashtira boshlaydi.

Ayni vaqtda oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiya bilan birikib ketgan bo'lib, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Bunga qator dalillar keltirish mumkin. Mana shulardan biri: alohida olingan shaxs bilan uzoq va yaqin qarindosh – urug'lar o'rtasida turli aloqalar mavjud ekan, oilaviy munosabatlar ijtimoiy xarakterga ega bo'laveradi. Zotan, uyimizda sodir bo'layotgan barcha voqyea va hodisalar mutlaqo o'zimizning irodamiz va hoxishimiz bilan sodir bo'layotgandek tuyuladi, xolos. Vaholanki har birimizning dunyoqarashimizga, didimizga, odobimiz va qiziqishimizga jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan axloqiy qoidalar, nihoyat, turli talablar ham doimo ta'sir, turli talablar ham doimo ta'sir ko'rsatadi, aksincha, ijtimoiy qarashlarga ega ayrim toifadagi oilalardagi qoidalar, rasm-rusumlar ham ta'sir qiladi.

"Har bir inson, deb yozadi Forobiy, – o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kirita olmaydi, ularga ega bo'lish



uchun insonlar jamoasiga etiyoj tug'iladi. Shu sababli, yashash uchun zarur bo'lgan, kishilarni bir-birlariga yetkazib beruvchi va ularga yordamlashuvchi ko'p kishilarning birlashuvi orqaligina odam o'z tabiati bo'yicha intilgan yetuklikka erishuvi mumkin". Xuddi mana shu ma'noda farzandning kamol topa borishi faqat o'z ota-onasiniki bo'lib qolmasdan, balki butun inson zotiga talluqlidir.

Ayni vaqtda, bola tarbiyasi umuminsoniy ahamiyat kasb etib, umumbashariy qadriyatga aylanadi. Ana shuni anglab yetgan ota-ona va tarbiyachilar bolalari tarbiyasidagi mas'uliyatni chuqur his qila oladilar. Ota-onalar va tarbiyachilar bolada dunyoni insonga xos (fuqarolarcha) ko'rishni tarbiyalab bormog'i lozim. Ular dunyoni fuqarolarcha, vatanparvarlarcha ko'rishni kishilar mehnati bilan, shuningdek ko'tarinki g'oyalari, bu o'rinda milliy istiqlol g'oyalari bilan qo'shila borishini o'ylab ko'rmog'i lozim. Bola tarbiyasida nima asosiy, yetakchi, hal qiluvchi ekanini ko'rish juda muhim. Bolaning miyasiga go'dakligidanoq o'zgalar manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yish, jamiyat manfaatini, fuqaroviy manfaat shaxsiy manfaatidan ustivor ekanligini uning ongiga singdirib borish ayni muddao bo'ladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotining oila bilan ishlash tizimida aniq maqsad, mazmun bo'lishi kerak. Ota-onalar bilan hamkorlik borasida avval erishilgan yutuq va tajribalarning natijalarni tahlil qilib, xilma-xil va o'zaro bog'liq bo'lgan shakl va usullar yordamida rejali va izchil ishlar olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bolalarni har kuni kuzatuvchi, ularning rivojlanishida ijobiy va salbiy tomonlarini sezuvchi va ota-onalarga bolaga ta'sir qilishning eng samarali usullarini maslahat beruvchi tarbiyachilar oila bilan juda ko'p xilma-xil ishlarni olib boradilar. Ayrim tarbiyachilar oila bilan aloqani bolaning bog'chadagi davridan boshlab, uning maktabga o'tganidan keyin ham davom ettiradilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotining tibbiyot xodimlari esa bolalarning sog'lig'i va jismoniy o'sishning ahvolidi muntazam nazorat qilib borishadi. Bolalar bog'chasi xodimlarining ota-onalar va oila bilan hamkorlikdagi ishlarining eng keng tarqalgan shakl va samarali usullaridan biri bu - ota-ona va oila bilan yakkama-yakka ishlash.

Ilg'or pedagogik tajribalarning ko'rsatishicha, ishning bu turi katta ahamiyatga ega va kutilgan samaralarni beradi. Bunda tarbiyachi oila va bolaning shaxsiy xususiyatlarini o'rganib, ularni o'zining tarbiyaviy ishida hisobga oladi. Buning natijasida tarbiyachi bilan oila o'rtasida do'stlik munosabatlari, o'zaro hurmat va ishonch tezroq o'rnatiladi. Bog'chalarimiz tajribasida ota-onalar va oila bilan yakkama-yakka olib boriladigan ishlarning turli xil shakllari aniqlangan, ya'ni oilaga tarbiyachining borishi, ota-onalar uchun suhbat o'tkazish, ularga maslahatlar



berish, ota-onalarni bolaning bog'chadagi hayoti bilan tanishtirishdir. Bola yashab turgan oilani o'rganish, ota-onalar bilan yaqin aloqa o'rnatish va ularga yordam, maslahatlar berishning samarali yo'llaridan biridir. Tarbiyachi oilaga tekshiruvchi sifatida emas, balki maslahatchi, do'st va bola tarbiyasiga yordam beruvchi shaxs sifatida boradi. Tarbiyachining oilaga borishidan asosiy maqsadi bola tarbiyalanayotgan sharoitni ko'rish va zarur bo'lsa, ota-onalarga yordam ko'rsatishdir. Shuning uchun tarbiyachi ota-onalarga aytadigan takliflarini sinchiklab o'ylab ko'rishi kerak.

Bolalarini uylariga borib ko'rish ishi ma'lum maqsad asosida tashkil etilganda oilaviy tarbiya bilan tanishish, bolaning oiladagi xulqining o'ziga xos xususiyatlarinigina aniqlashdan iborat bo'libgina qolmasdan, balki ota-onalar bilan yakka-yakka va jamoa tarzida tashkil etiladigan ishlarning mazmunini, ularning turli shakllarini belgilab olishga ham imkoniyat tug'diradi. Tarbiyachi bolaning oilasida ko'rganlarini qayd qilish bilan bir qatorda, ularni tahlil qiladi, ota-onalar majlislarida oilaviy tarbiyadagi ijobiy va salbiy tomonlar haqida gapiradi. Ularga o'zining himmatli maslahatlarini beradi. Oila tarbiyasidagi ijobiy ishlarni ota-onalar uchun tashkil etilgan stendlarda aks ettirish ham mumkin.

Oilani birinchi marotaba borib ko'rish, ayniqsa mas'uliyatlidir. Maktabgacha tarbiya tashkiloti bilan oila orasidagi tarbiya bir-birini tushunish, ishonch va ijobiy aloqani o'rnatilishida bu ishning qanday o'tishiga bog'liqdir. Oilaga tashrif buyurishdan avval uning a'zolari, ota-onalarning kasblarini, ularning ish joylarini va hokazolarni ifodalovchi ma'lumotlarni o'zlari aniqlashlari zarur. Agar tarbiyachi oilani borib ko'rishdan avval o'zi uchun bolaning rivojlanish va tarbiyalanganlik darajasi xarakteristikasini tuzib olsa, oilani borib ko'rish yanada samarali bo'ladi. Bu holda ota-onalar bilan aniqlash va muhokama qilishni talab qiluvchi jihatlarini ajratib olish kerak. Birinchi bor borib ko'rish tarbiyachiga oilaning hayot tarzi haqida, oilaviy "Vaziyat", bolaning oiladagi tarbiyasi haqida umumiy tasavvur berishi kerak. Keyingi tashriflar tarbiyachiga bola tarbiyasining aniq masalalarini mufassal fahmlab olishga imkon beradi. Oilani takror borib ko'rishda tarbiyachi uning maslahat va takliflari bajarilgan yoki bajarilmagani bilan qiziqadi.

Oila bilan shaxsan ishlashning eng keng tarqalgan usuli sifatida qo'llanadigan suhbat – bolalarni ertalab qabul qilish va kechqurun jo'natish vaqtida o'tkazilishi mumkin. Ular tarbiyachilar va ota-onalarning bir-biri bilan yaqinroq tanishishlariga, bir-birlarini bolaning hayoti haqidagi ma'lumotlar bilan xabardor qilishlariga, uning muvaffaqiyatlari va kamchiliklari, xulqi va sog'lig'idagi o'zgarishlarni kuzatishga



yordam beradi. Ota-onalar bilan shaxsan ishlashning bu shaklini tarbiyachilar ayrim bolalar bilan ishlashda keng foydalanishlari kerak. Chunki bir oila uchun muhim va qiziqarli bo'lgan narsa, boshqa oila uchun umuman kerak bo'lmashi mumkin. Shuning uchun oilaviy tarbiya shartlarini bilish individual ish mazmunini aniqlashga yordam beradi. Tarbiyachi shu suhbatlarning tashkilotchisi bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda MTT, oila, mahalla, maktabning roli juda katta. Ular birgalikda bolaga ham ta'lim va tarbiya beradilar. Uzluksiz ta'limdagi izchillik esa o'z navbatida Vatanga sadoqatli, iymon-e'tiqodi butun, o'z mustaqil fikriga ega, har tomonlama qobiliyatli, o'z kelajagini o'zi qura oladigan shaxslarni tarbiyalashda dasturi amal hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali nutqi (30.09.2020)
2. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'risida"gi Qonuni. Toshkent 2019yil 26 -dekabr.
3. Fayzullayev Sh. BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASH METODIKASI (maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari uchun) O'quv qo'llanma. Samarqand, SamDU nashri, 2020.
4. Fayzullayev SH.N. "Islohotlar samarasi: TAJRIBA, MALAKA, TEXNOLOGIYA"// Maktabgacha ta'lim, Toshkent. 2018, 12-son, 2-5 betlar.
5. <http://www.edu.uz> - O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi sayti.
6. <http://www.uzedu.uz> - O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi sayti.
7. www.mdo.uz - O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi sayti.



УПРАВЛЕНИЕ КАЧЕСТВОМ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Р.Х.ДЖУРАЕВ,

академик, д.п.н., УзНИИПН

В статье рассматриваются вопросы обоснования и положения основных методологических подходов к управлению качеством дошкольного образования, даются определения управления качеством относительно каждого подхода в новых условиях развития системы образования. В статье представлена структура методологических подходов к управлению качеством дошкольного образования и выделены их уровни.

Ключевые слова: управление качеством дошкольного образования, процессный подход, системно-деятельностный подход, синергетический подход, социокультурный подход, интегративно-вариативный подход, системно-деятельностный, ситуационный и проект но- целевой подходы.

The article deals with the issues of substantiation and position of the main methodological approaches to quality management of preschool education, definitions of quality management regarding each approach in the new conditions of development of the education system are given. The article presents the structure of methodological approaches to quality management of preschool education and highlights their levels.

Key words: quality management of preschool education, process approach, system-activity approach, synergetic approach, socio-cultural approach, integrative-variative approach, system-activity, situational and project-target approaches.

Педагогический аспект интегративно-вариативного подхода предполагает реализацию этого подхода на уровне управляемой подсистемы управления объекта управления педагогически системы дошкольной образовательной организации. В то же время управленческий аспект предполагает реализацию этого подхода на уровне управляющей подсистемы - субъекта управления. На уровне педагогической подсистемы дошкольной образовательной организации создание вариантов интеграции должно определяться следующими факторами: потребностями детей, выраженными в социальном заказе; направленностями образования; образовательными программами; уровнями их освоения; формами организации деятельности; ожидаемыми результатами [2].

В процессном подходе (Т.И. Алиева, К.Ю. Белая, И.И. Мазур, Н.Н. Матвеева, О.Ю. Нисман, Л.А. Парамонова, Л.Р. Салтыкова. В.Д. Шапиро, Л.И. Фишман и др.) качество дошкольного образования рассматривается с точки зрения процессов, существующих в дошкольном образовании:



– управленческого, включающего в себя определение цели, миссии, задач, планирования деятельности дошкольной организации на долгосрочную и среднесрочную перспективы, установление обратных связей между управляющей и управляемой системами, выбор методов и приемов эффективного управления, что должно привести к минимизации внутренних дефектов, которые возникают по вине дошкольной организации;

– образовательно-воспитательного процесса необходимого для выполнения требований стандарта дошкольного образования и минимизации внешних дефектов, связанных с взаимодействием дошкольной организации с социумом;

Нынешний курс реформ в социально-экономической и политической сферах в нашей стране требует кардинального реформирования системы образования. Потому что развитие каждой области определяется знаниями, пониманием, мышлением и умениями специалистов в этой области, насколько они освоили тенденции развития этого направления в мире. В данной статье рассматривается внедрение цифровых технологий в систему образования Республики Узбекистан как социальная необходимость, разъясняется понятие "цифровизация", разъясняются преимущества цифровых технологий и условия эффективного использования цифровых технологий в образовании.

Ключевые слова: цифровые технологии, цифровизация, поиск и сортировка данных, цифровая экономика.

The current course of reforms in the socio-economic and political spheres in our country requires a radical reform of the education system. Because the development of each area is determined by the knowledge, understanding, thinking and skills of specialists in this area, as far as they have mastered the development trends of this area in the world. This article discusses the introduction of digital technologies in the education system of the Republic of Uzbekistan as a social necessity, explains the concept of "digitalization", explains the advantages of digital technologies and the conditions for the effective use of digital technologies in education.

Key words: digital technologies, digitalization, data search and sorting, digital economy.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar



va sohalarida, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlashni ko'zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan [1]. Bu o'zgarishlar turli sohalarining rivojlanishi, insonlarning kasbiy va shaxsiy o'sishi kabi ijobiy natijalarga olib kelmoqda. Jumladan, ta'lim tizimida ham axborot-kommunikativ va raqamli texnologiyalarning ahamiyati katta. Oliy ta'lim muassalarida ta'lim jarayoniga "Moodle elektron ta'lim tizimi"ni joriy etilishi, onlayn kurslari tashkillashtirilishi, aralash (blended) kurslarni tatbiq etilishi, ochiq resursli (MOOC – Massive Open Online Course) kurslarni faoliyat olib borishi mamlakatimizda raqamli texnologiyalarni ta'lim sohasini rivojlantirayotganligiga yaqqol misol bo'la oladi.

Hozirgi vaqtda "raqamlashtirish" atamasi tor va keng ma'noda qo'llanilmoqda. Tor ma'noda raqamlashtirish axborotning raqamli shaklga aylanishini anglatadi, bu ko'p holatlarda xarajatlarning pasayishiga, yangi imkoniyatlarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Keng ma'noda "raqamlashtirish" jarayoni, odatda, raqamli texnologiyalarni keng qo'llash va assimiylasiya qilish tashabbusi bilan boshlangan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishni anglatadi. Unga axborotni yaratish, qayta ishlab almashish va uzatish texnologiyalari kiradi.

A.Marey fikricha, "raqamlashtirish – bu bizning fikrlash tarzimiz, harakatimiz, atrof-muhit va bir-birimiz bilan aloqa qilishimizning paradigmal o'zgarishi"[2]. Ya'ni, raqamlashtirishni aloqa va o'zaro munosabat paradigmasining o'zgarishidir.

Bugungi kunda axborot va bilim jamiyat taraqqiyotining asosi bo'lib, unga an'anaviy tushunchalar va modellar qo'llanilmaydi. L.V.Shmelkova ta'kidlaganidek [4], raqamli iqtisodiyotga mos keladigan shaxsning eng muhim xususiyati bu raqamli texnologiyalarga egalik qilish va ularni kasbiy faoliyatda qo'llashdir. Raqamli texnologiyalar, bir tomondan, ishlab chiqarish hajmi va samaradorligini yanada oshirishga yordam beradi, boshqa tomondan, ular turli sohalarida individual yondashishga imkon beradi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28 apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-



tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4699-sonli Qarori [5] qabul qilindi. Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni yanada rivojlantirishning asosiy vazifalaridan biri bu, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va zamonaviy iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan raqamli bilimlarning darajasini oshirish, ta'lim infratuzilmasini takomillashtirish, shuningdek, "Besh tashabbus" loyihasini amalga oshirish doirasida 2022 yilga qadar respublikamizning barcha hududlarida raqamli bilimlarga asoslangan o'qitish markazlarini ochishdir.

Ma'rifatli va rivojlangan mamlakatlarda muvaffaqiyat bilan qo'llanib kelayotgan innovatsion texnologiyalarni o'rganib, xalqimizning milliy pedagogika an'analaridan hamda ta'lim sohasining shu kundagi holatidan kelib chiqqan holda O'zbekistonning milliy pedagogik texnologiyasini yaratish lozim. Respublikamizning pedagogika sohasida faoliyat yuritayotgan olim va amaliyotchilari ilmiy asoslangan hamda O'zbekistonning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan ta'lim texnologiyalarini yaratish va ularni tatbiq etishga intilmoqdalar.

Oxirgi 15 yil ichida hayotimizda mobil qurilmalarning so'nggi avlodlarining kirib kelishi, ulardan foydalangan holda Internet tarmog'i orqali dunyoda bo'layotgan voqea va hodisalarni tezkor ravishda kuzatib borish hamda barcha turdagi materiallarni (video, audio, matn, 3D, 5D, 7D grafikalar) tezkorlik bilan qabul qilish, saqlash va uzatish imkoniyatlari paydo bo'ldi hamda raqamli texnologiyalarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Raqamli texnologiyalarning vujudga kelishi har kuni an'anaviy o'qitish usullarini almashtirmoqda. Auditoriyalar qanchalik shiddat bilan o'zgarib borayotganligi sabab, eski usullarni unutib, raqamli texnologiyalarga asoslangan yangi o'qitish usullarini joriy qilish maqsadga muvofiq. Raqamli texnologiyalardan foydalangan holda masofaviy o'qitishni tashkil etish qog'oz va daftarlar o'rniga oddiy planshetlardan, murakkab dasturlar va raqamli jihozlardan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Ta'lim oluvchilarning xalqaro miqyosda harakatlanishi, ma'lumotlarni izlash va saralash, istalgan joyda va vaqtda bilim olish va boshqa ko'pgina afzalliklar raqamli texnologiyalarni ta'limda qo'llashni qulay ekanligidan dalolat beradi.

Raqamli texnologiyalar:

- 1) texnologiyalarning ta'lim olish va o'qitishda ta'lim beruvchi va o'rganuvchining faoliyatini engillashtiradi;
- 2) ta'lim jarayonini qiziqarli qilishga yordam beradi;
- 3) baholash, axborotlarni saralash, boshqarish, ma'lumotlarni birlashtirish, muloqot qilish, ular va ota-onalar orasidagi aloqalarni rivojlantirish, o'qituvchilararo



hamkorlik, kasbiy rivojlanish kabi ma'lum maqsadlar uchun xizmat qiladi.

Ta'lim sohasidagi bu tendensiyaning vazifasi nafaqat ta'lim beruvchi va o'quvchilarning kompyuter savodxonligini oshirish va axborot texnologiyalaridan maqsadli foydalana olishi, balki o'rganuvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga, o'z fikrini namoyon qila olishga undaydi, ularning kommunikativ malakalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu borada YUNESKO va NMC Horizon media konsorsiumining hisobotiga asosan raqamli savodxonlikning ta'limning ajralmas qismiga aylanib borayotganini sababi sifatida uning ta'lim oluvchida hayotiy malakalarni shakllantira olishi, talabani kelgusida ish bilan ta'minlanishida, ta'lim olishini o'zi mustaqil va uzluksiz ta'minlay olishi qayd etilgan.

Ta'limda raqamli texnologiyalarni o'qitish sifatini saqlab qolgan holda samarali qo'llash uchun quyidagi vazifalar muvaffaqiyatli hal etilmog'i dakor:

Birinchidan, albatta mamlakatimizda Internet infratuzilmasini yaxshilashimiz, mobil operatorlar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish va eng muhimi aholining, ayniqsa talaba yoshlarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining so'ng yutuqlarini o'zlashtirishga shart-sharoitlar hamda imtiyozlar yaratib berish lozim;

Ikkinchidan, o'quv jarayonini tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'lamini kengaytirish va axborot resurslari, o'qitish vositalari va masofaviy o'qitish texnologiyalarini rivojlantirish, ijodkor talabalarni universitetni raqamlashtirish loyihalariga jalb qilish bilan oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartirish kiritish bo'yicha vakolatli organlarga takliflar berish, yuqori samaradorlikka ega raqamli qurilmalar bilan jihozlangan tuzilmalar, o'quv xonalari, laboratoriyalar, mediastudiyalar va boshqalarni o'z ichiga olgan markazlarni tashkil etish hamda unda o'rttirilgan tajribani O'zbekistonning barcha oliy ta'lim muassasalarida qo'llash;

Uchinchidan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish;

To'rtinchidan, interfaol taqdimot tizimlaridan foydalanish, ma'ruza va seminar darslari uchun internet bilan bog'liq holda interfaol va multimediali taqdimotlarni ishlab chiqish kabi mavzular bo'yicha o'qituvchilarning malakasini oshirish uchun kurslarni tashkil qilish va o'tkazish;

Beshinchidan, real vaqt rejimida interfaol taqdimot tizimlari, videokon-



ferensaloqa tizimlari, virtual zallar, elektron resurslardan foydalanib istalgan vaqtda masofaviy o'qitish jarayonini amalga oshirish. Oltinchidan, bulutli texnologiyalar, virtual voqelik, kengaytirilgan voqelikdan foydalanish hamda didaktik materiallar va tajriba dizaynlarini ishlab chiqishda 3D printerini qo'llash, raqamli didaktika va raqamli ta'lim modellarini qo'llash, o'qituvchilar va talabalar uchun loyihalar, diplom ishlari, ilmiy izlanishlar va boshqalarini muhokama qilish uchun ilmiy veb-saytlar ishlab chiqish lozim. Shundagina, biz raqamli texnologiyalardan foydalanib ta'lim sifatini tushirmagan holda talaba-yoshlarga bugungi kun talabi darajasida bilim olishlariga erishamiz.

O'qituvchining obro'si va uning faoliyatining samaradorligi faqatgina kurs mazmunidagi bilimlar darajasi va uning pedagogik qobiliyatiga emas, balki muayyan o'quv materialini to'plash, qayta ishlash va o'qitishda o'qituvchining qanchalik zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash darajasiga bog'liq bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, raqamli asrda ta'lim qayta ko'rib chiqilishi va ta'lim paradigmasi o'zgartirilishi shart, chunki talabalar ortiq an'anaviy uslubda o'qishni xohlamaydilar va o'qituvchilar ham bu kabi odatiy usulda o'qitishni davom ettirishlari kerak emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni// <https://lex.uz/docs/5030957>.
2. Marey A. Tsifrovizatsiya kak izmenenie paradigmy [Elektronnyy resurs]. - Rezhim dostupa: <https://www.bcg.com/ru-ru/about/bcg-review/digitalization.aspx> (хавола вақти: 15.03.2020).
3. Кешелава, А.В., Буданов, В.Г., Румянцев, В.Ю. и др. (2017). Введение в "Цифровую" экономику - ВНИИ Геосистем, - 28 с.
4. Исследование российского рынка онлайн-образования и образовательных технологий [Электронный ресурс]. - Режим доступа: <https://edmarket.digital/>.
5. <https://lex.uz/docs/4800657>.



BIOLOGIYA DARSLARIDA EKSORSIYALARNI O'TKAZISHNI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA TASHKIL ETISH

M.B. ONGAROV,

p.f.f.n. (PhD) dotsent v.b.,

Mazkur maqolada ekskursiyalarni tashkil qilish va talabalarning kasbiy metodik tayyorgarligini rivojlantirish bo'yicha axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning metodik shart sharoitlari keltirib o'tilgan. Talabalarning kasbiy metodik tayyorgarligini ekskursiyalardan foydalangan holda tashkil qilish va kelajakdagi pedagogik faoliyatda o'quvchilarning bilim samaradorligini oshirish yo'llari berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Ekskursiya, pedagogik, kasbiy, texnologiya, o'simlik, hayvon, ko'nikma, hashorot, tabiyat, maktab.

В данной статье описаны методические условия использования информационно-коммуникационных технологий при организации экскурсий и развитии профессионально-методической подготовки студентов. Приведены пути организации профессионально-методической подготовки студентов с использованием экскурсий и повышения эффективности знаний студентов в будущей педагогической деятельности.

Ключевые слова: Экскурсионная, педагогическая, профессиональная, технология, растение, животное, мастерство, насекомое, природа, школа.

This article describes the methodological conditions for the use of information and communication technologies in the organization of excursions and the development of professional and methodological training of students. The ways of organizing professional and methodological training of students using excursions and increasing the effectiveness of students' knowledge in future pedagogical activities are given.

Key words: Excursion, pedagogical, professional, technology, plant, animal, skill, insect, nature, school.

Zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida pedagogik jarayonlarni samarali tashkil etish: o'qituvchilar o'rtasida mehnatning taqsimlanishini; masofaviy o'quv kurslarini va elektron adabiyotlarni yaratuvchi jamoaga pedagoglar va kompyuter dasturchilari, mutaxassislarining birlashuvini; pedagogik jarayonni tashkil qilishni takomillashtirish va o'qituvchilik faoliyatining samaradorligini monitoring etishni taqozo etadi.

Zamonaviy interfaol texnologiyalar pedagogik faoliyatning:

ta'limning texnologik asosini tez rivojlanishi bilan bog'liq ravishda kurslarni yaratishdagi murakkab jarayonini yengillashuvini;



o'quv kurslarini yaratishda maxsus malakalarning shakllanishini;
masofaviy kurslarning ochiqligi tufayli ularning sifatiga bo'lgan talablarning
va o'quv materiallarining sifatini nazorat qilishga ehtiyojini;

o'quv jarayonida talaba faoliyatining roli ortishini, o'quv jarayoni salmog'ini
o'qituvchidan talabaga ko'chishini;

interaktiv texnologiyalardan foydalanish asosida o'qituvchining har bir
talaba bilan teskari aloqani vujudga kelishini ta'minlaydi.

Kompyuter ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida: yangi materialni
tushuntirishda, bilimni mustahkamlashda, takrorlashda, talaba bilimlarini nazorat
qilishda va yangi ko'nikmalarni shakllantirishda va h.k. qo'llanilishi mumkin.
Bundan tashqari, kompyuter talaba uchun o'qituvchi, ish quroli, ta'lim obekti,
hamkorlik qilishi va xordiq manbai sifatida xizmat qilishi mumkin.

Kompyuterning o'qituvchi sifatidagi: o'quv axborot manbai (o'qituvchi yoki
darslikni to'liq yoki qisman ravishda o'rni bosa olishi); ko'zga ko'rinarli darslik
(multimedia va telekommunikatsiya imkoniyatlari orqali yangi bosqich darsligi
ko'rinishida); shaxsiy axborot manbai; mashg'ulotlar manbai; tahlil va nazorat
vazifalarini bajaruvchi sifatida xizmat qilishi mumkin.

Kompyuter ish quroli sifatida: matnni tayyorlash va saqlash; grafik yasovchi,
grafik muharrir; katta imkoniyatlarga ega hisoblash mashinasi (natijalarni turli xil
ko'rinishda aks ettira olish xususiyati bilan); modellashtirish vositasi kabi
funksiyalarga ega.

O'rganilish ob'ekti sifatida kompyuter: dasturlashtirish, kompyuterni aniq
ko'rsatilgan amallarni bajarishga dasturlashtirish; dasturiy mahsulotlarni
tayyorlash; turli xil axborot muhitlarini o'rganish funksiyalarini bajaradi.

O'qituvchining kompyuter texnologiyalaridagi faoliyati quyidagicha:

I. Mashg'ulot o'tishga tayyorgarlik (o'quv jarayoni grafigini tayyorlash,
tashqi tahlil, yakuniy nazorat.

II. Auditoriyani mashg'ulotga tayyorlash. Dars davomida guruh va talabalar
faolligini nazorat qilish.

III. Kompyuter yordamida o'qituvchi har bir talaba bilan individual a'loqaga
kirishadi, kompyuter yordamida uning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan
holda o'qitishni tashkil qiladi.

IV. Axborot muhitini o'qitilayotgan fan mazmuniga ko'ra tanlab olish va
hozirlash.

Yuqoridagi funksiyalarni bajarishda talaba va o'qituvchilardan kompyuter



savodxonligi bilimlarining yetarlicha bo'lishi talab qilinadi. Kompyuter savodxonligini oshirish ta'limni axborotlashtirish dasturiga kiritilgan.

Kompyuter texnologiyalaridan foydalanishda kompyuter xotirasiga yozilgan va telekommunikasion resurslaridan olinadigan pedagogik dasturlardan foydalaniladi.

Kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyati, ulardagi yordamchi ma'lumotlarning hajmini boshqa manbalardagiga qaraganda bir qancha martaga katta bo'lishi, o'zida gipermatn, multimedia, mikroduyo, imitasion ta'lim, elektron aloqa kabi kompyuterlashgan ma'lumotlar muhitining mavjudligi bilan ajralib turadi.

O'qitishning yangi axborot texnologiyasi sifatida quyidagi jihatlarini hisobga olib yondashiladi, agar: bu texnologiya pedagogikaning asosiy tamoyillarini qanoatlantirganda (oldindan rejalashtirish, qayta ishlash, maqsadga yo'naltirilganlik, yaxlitlik); u oldin didaktik, nazariy yoki amaliy jihatdan hal etilmagan masalalarni yecha olsa; axborotni tayyorlash va uni talabaga yetkazish vositasi kompyuter hisoblansa.

O'quv-dala amaliyotida AKTdan foydalanish natijasida quyidagi maqsadlarga erishish ko'zda tutiladi: talabaniing tizimli fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash; bilim olishga qaratilgan barcha faoliyatini rag'batlantirish va qo'llash, u egallagan bilim va ko'nikmalarni yanada kengaytirish va mustahkamlash; o'quv jarayonining yaxlitligini ta'minlagan holda individuallashtirish tamoyilini hayotga tadbiiq etish va uni rivojlantirish; talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish.

Shuningdek, O'quv-dala amaliyotida YaATdan foydalanish mutlaqo yangi bo'lgan bir qancha didaktik masalalar yechimini ham beradi: biologik ta'lim sifatini boshqarish; mikro va makro dunyodagi murakkab texnik, biotexnik hodisalarni modellashirish vositasi orqali o'rganish; turli xil biologik tizimlarda yuz beradigan, juda tez yoki juda sekin kechadigan jarayonlarni o'rganish uchun qulay vaqtda va ko'lamga keltirib olish va o'rganish.

O'quv-dala amaliyotidagi AKTning differensiyallashuvi xususiyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin: umumpedagogik, umumaxborot-texnologik maqsadlar bilan bir qatorda fanni o'qitishdagi aniiq metodik maqsadlarga ham erishish; predmetlashgan ta'lim texnologiyasi birinchi navbatda umumta'lim imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, biologiya fani bo'yicha umumlashgan tizimli bilimlarni shakllantirish va uni talabalarga berib borish,



kompyuter yordamida turli xil amaliy mashg'ulotlarni bajarish (ekologik holatlarni modellash, tajriba, axborotni tasviri va belgisi namoyish etish holatga o'tkazish, jismoniy organizmlarda kechayotgan jarayonlarni yaqqol ko'rinarli ravishda namoyish qilish, ekologik qonuniyatlarni o'rganish va h.k); YaAT biologik ta'lim berishda asosiy fan maqsadlariga erishishga ko'maklashishdan tashqari, mutlaqo yangi bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirishda ham qo'l kelishi. Ularga turli xil biologik, ekologik muammolarni hal etish, o'qituvchilar uchun mavzuga doir yangi tushunchalarni shakllantirish bo'lishi mumkin. Mazkur vazifani bajarishda kompyuterning ilmiy va amaliy imkoniyatlari o'ziga xos ahamiyatga ega.

YATdan ta'lim sohasida foydalanishning maqsad va vazifalarini bir necha guruhga bo'lish mumkin.

Birinci guruh maqsadlariga biologik tizimda kechadigan reaksiya mexanizmlarini tasvirlash, grafik tuzish va boshqalar kiradi. Masalan, fotosintezning jadalligini boshqa omillarga bog'liqlik darajasini aniqlash.

Ikkinchi guruhga modellash vazifalari kiradi. Biologiya fanining ekologik aspekti modellar tuzishga asoslangan bo'lib, bu orqali o'rganiladigan barcha jarayonlarni tushuntirib berish mumkin. Biologik ta'limda modellash biologik tizimlarni yashovchanlik darajasini baholashda foydalaniladi. Modellash orqali talabalarda fikrlash va aniq masalalarni yechish ko'nikmasi tarkib toptiriladi.

O'quv-dala amaliyotida foydalaniladigan barcha modellarni obyektlariga ko'ra, mikro va makro dunyo kabi ikki guruhga ajratish mumkin. Mikrodunyo ob'ektiga hujayralar tuzilishi va unda kechayotgan jarayonlarni kiritishimiz mumkin. Makrodunyo ob'ektiga esa, o'simlik va hayvonot dunyosida amalga oshirilgan tajribalarni, ularni ko'payishi, hayoti davomida rivojlanishini kiritishimiz, bundan tashqari ekotizimlardagi jarayonlarni ham modellash (biogeotsenozlar, bioturlar va h.k) makro dunyo ob'ektiga kiradi.

Yuqoridagi imkoniyatlardan tashqari kompyuterdan biologiya darslarida foydalanish ko'rgazmalilik tamoyilini mutlaqo sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish imkonini beradi.

Uchinchi maqsad guruhiga materialni mustaqil ravishda o'rganish imkonini beruvchi axborot-ma'lumotli va o'qitish tizimini yaratish kiradi.

To'rtinchi maqsadlar guruhiga amaliy mashg'ulotlarni talabalarining o'z ustlarida ishlashi, egallagan ko'nikmalarini mustahkamlashlari va yanada rivojlantirishga qaratilgan trenajyorlarni yaratish vazifasi kiradi.

Yuqorida bayon qilingan dalillarning barchasi talabalar uchun, ularning har



biri o'zi xohlagan tizim va darajada bilim olish imkonini beruvchi moslashuvchan ta'lim tizimini yaratilishi uchun sharoit yaratib beradi.

Xulosa o'rinda shuni takidlashimiz mumkini O'quv-dala amaliyotini AKT orqali o'tkazishning quyidagi bosqichlari aniqlashtirildi: texnologik (AKTdan foydalanish usullarini aniqlab olish: talabalarning kompyuter bilan ishlash yo'llari); mazmunli-tashkiliy (mavzuni tanlash, maqsad va vazifalarni aniqlab olish, o'qituvchi va talaba faoliyatlarini rejalashtirish, o'quv materialini o'rganish shakli va tanlangan metodlar samaradorligini baholash); jarayonli (AKTdan foydalanish asosida virtual ekskursiyani o'tkazish, belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirish); tahliliy-refleksiv (amaliyotning barcha bosqichlarida talabalar faoliyatini tahlil qilib borish, AKT qo'llanilishi samaradorligini asoslash, talabalar bilimini baholash).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qulmamatov A. Umurtqasizlar Zoologiyasidan o'quv-dala amaliyoti. Oliy o'quv yurti talabalari uchun o'quv qo'llanma. -Toshkent:- O'qituvchi 2004. 36-39 b.

2. Qo'ysinov O. A., To'rabekov F. S., Pardaboev J. E., Abduraimov Sh. S., Qurbonov D., Isyanov R. G. Kasbiy pedagogika. Toshkent; Nizomiy nomidagi -TDPU; 2013. 140-149 b.

3. G'ofurov A.T, Tolipova J.O, Umumiy biologiyani o'qitishning norasmiy usul va shakllari. -T, 1992. -26 b.

4. G'ofurov A. va boshqalar Biologiya o'qitishning umumiy metodikasi. Metodik qo'llanma. -TDPU. 2005. -89 b.

5. Xoliqov A. Pedagogik maxorat. Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik. Iqtisod-moliya. 2011. -420 b.

6. Хомский Н. Аспекты теории синтаксиса // Перевод с английского под редакцией и с предисловием В.А. Звегинцева // Изд-во Московского университета, 1998. - 233 с.

7. Hayitov O., N.Umarova. Yoshlarda professional o'sishga intilishni rivojlantirishning nazariy-amaliy asoslari. - T.: "TURON-IQBOL", 2001. - B.78.



BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI TARBIYAVIY FAOLIYATGA TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

N.X. VOXIDOVA,
TDPU professori

Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish muammolari va uning yechimlariga doir olib borilgan tadqiqot ishining mazmuni yoritilib, tadqiqot natijasidagi xulosa va tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: o‘qituvchi, tarbiya, faoliyat, tayyorgarlik, tizim, takomillashtirish, muammo, yechim, fan, takomil, innovatsiya, texnologiya, ta‘lim, standart, samara, maxsus, uslubiy, natija, imkoniyat, tarbiyaviy faoliyat.

В статье освещаются проблемы совершенствования системы подготовки будущих учителей к образовательной деятельности и содержание исследовательской работы, проведенной по их решению, а также излагаются выводы и рекомендации в результате исследования.

Ключевые слова: учитель, воспитание, деятельность, подготовка, система, совершенствование, проблема, решение, наука, эволюция, инновация, технология, образование, стандарт, эффект, специальный, методический, результат, возможность, образовательная деятельность.

The article covers the problems of improving the system of preparing future teachers for educational activities and the content of the research work carried out on its solutions, and outlines the conclusions and recommendations in the result of the study.

Key words: teacher, upbringing, activity, preparation, system, improvement, problem, solution, science, evolution, innovation, technology, education, standard, effect, special, methodological, result, opportunity, educational activity.

Jahon ta‘lim tizimida ta‘limni axborotlashtirish sharoitida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ma‘naviy-axloqiy bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, shaxsiy va kasbiy ko‘nikmalarini takomillashtirish texnologiyalari amaliyotga joriy etilmoqda. Jumladan, Sarbon deklaratsiyasi (Sorbonne Declaration), ta‘lim barcha uchun (Education For All (EFA)), yillik rivojlanish maqsadlari (Millennium Development Goals (MDGs)), Jahon ta‘lim forumi (World Education Forum) va Lissabon Konventsionalari doirasida hamda Bolonya jarayoni tarkibida bo‘lajak o‘qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning innovatsion yo‘nalishlarini belgilash tarbiya jarayonining interfaol shakllari variativligini ta‘minlash, bo‘lajak o‘qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirish borasida yirik loyihalar amalga oshirilmoqda.



Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida shaxs tarbiyasini amalga oshirishning mazmunini va axborot-ta'lim muhitini shakllantirish, kasbiy-pedagogik ijodkorlik muammolariga yechim topish (Benchmarking), ta'lim sifatini oshirishni kompleks boshqarish (Total quality management), yagona elektron tizim orqali ta'limni amalga oshirishning talaba-pedagog muloqoti, ta'lim berishning umumkasbiy va mutaxassislik kompetentsiyalariga asoslangan (Tuning) intellektuallashtirilgan tizimlari va zamonaviy didaktik vositalarni o'qitishning bosqichli modelini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, ta'lim oluvchilarning kreativ kompetentligi (ijodiy fikrlash, tahlil qilish, sintezlash, mujassamlashtirish qobiliyatlari)ni innovatsion texnologiyalar vositasida rivojlantirishning zamonaviy metodlarini shakllantirish, ta'limning yangi paradigmalarga o'tish, talabalarning o'z-o'zini ijodiy rivojlantirishini ta'minlovchi innovatsion yondashuvlarning metodologik asoslarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga ahamiyat berilmoqda. Respublikamizda so'nggi yillarda innovatsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirishning me'yoriy huquqiy asoslari yaratilmoqda. Mamlakatimizda «Jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida tarbiyaviy faoliyatga tayyorgarligi» masalasiga ustuvorlik berilmoqda. Bu innovatsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlarini kengaytiradi. Muammoni Sharqning Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Kaykovus, Mahmud Qoshg'ariy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Rumiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, A.Avloniy, A.Fitrat, M.Behbudiylarning yoshlarni kasb-hunarga tayyorlashning tarbiyaviy mohiyati, A.Begmatov, M.Kahharova, T.Maxmutov, J.Tulenov, E.Yusupov, O.G'aybullaev kabi faylasuflar, Sh.Barotov, M.Davletshin, V.Karimova, Z.Nishonova, N.Safaev, R.Sunnatova, G'.Shodmonov, G'.Shoumarov, E.G'ozievlar bo'lajak mutaxassislar tarbiyasining falsafiy, psixologik xususiyatlari, pedagogik xususiyatlar O.Jamoldinova, G.Ibragimova, Sh.Mardonov, N.A.Muslimov, O.Musurmonova, D.Ro'zieva, O'.Tolipov, N.Egamberdieva, M.Quronovlar tadqiq etganlar. MDH mamlakatlari L.A.Baykova, I.A.Zimnyaya, V.A.Slastenin, A.V.Xutorskoilar tomonidan bo'lajak mutaxassislarni faoliyatga tayyorlashning tashkiliy shart-sharoitlari va imkoniyatlari muayyan darajada o'rganilgan.



Tadqiqotning maqsadi innovatsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish asoslarini ishlab chiqishdan iborat bo'lib, maqsadini amalga oshirishga qaratilgan vazifalar belgilanib, uning natijasida quyidagi natijalarga erishildi: bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish ijtimoiylashuv tarbiyaviy faoliyatga tayyorgarlikning muhim omili ekanligi hamda tarbiyaviy faoliyatga tayyorgarlikka intensiv ta'sir ko'rsatuvchi komponentlarga mos adekvatlik va validlikni aniqlash asosida takomillashtirilgan; bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari tarbiyaviy faoliyatning mazmuni, tarkibiy tuzilmasi, bo'lajak o'qituvchilar o'zlashtirishlari zarur bo'lgan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni tarkib toptirishga yo'naltirilgan mazmunini loyihalash asosida takomillashtirilgan; bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari ijodkorlik, raqamli savodxonlik, jamoaviylik, tarbiyaviy faoliyatga ma'sullikni loyihalash asosida takomillashtirilgan; bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirishning didaktik ta'minoti axloqiy tanlov, kouch texnologiyalari, psixo-fiziologik, antropologik, autopsixologik xususiyatlariga muvofiq situativ ta'lim identivligini akmeologik faolligini uyg'unlashtirish asosida takomillashtirilgan; tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, dissertatsiya ishidagi bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashga ilmiy-amaliy yondashuv va tavsiyalar oliy pedagogik ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlash hamda «Umumiy pedagogika» fanining «Pedagogika nazariyasi va tarixi», «Oila pedagogikasi», «Ijtimoiy pedagogika»; «Tarbiyaviy ishlar metodikasi», «Umumta'lim maktablarida tarbiya fanini o'qitish metodikasi», «Pedagogik diagnostikasi», «Tarbiya diagnostikasi va korrektsiyasi» hamda «Milliy tarbiya asoslari» fanlari mazmunini nazariy jihatdan boyitishga xizmat qiladi.

«Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish» mavzusiga oid ilmiy tahlillar, taqdim etilgan metodik ishlanmalar va tavsiyalarni umumlashtirgan holda samaradorlik darajasini baholash orqali quyidagi xulosalarga kelindi.

1. Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion yondashuv asosida tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash strategiyasining nazariy va amaliy asoslari pedagogik ta'limning gumanistik paradigmasini tashkil etadi va uning g'oyaviy mazmuni,



tub mohiyati hamda texnologiyalarini belgilaydi.

2. Bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashga oid falsafiy, psixologik, pedagogik, huquqiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida tarbiyaviy faoliyatga tayyorgarlikning kognitiv, hissiy va motivatsion hamda hulk-atvor komponentlarini aniqlash, mazkur faoliyatga qo'yiladigan vazifalar, axloqiy kompetentsiyalarning tuzilishi, mazmuni va mexanizmlarini takomillashtirishga zamin yaratadi.

3. Pedagogik turkum fanlarning barchasida innovatsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash imkoniyatining tadqiqot muammosining yechimini topishda mazkur faoliyatga tayyorlash vazifalari, mazmuni, texnologiyalarini tartiblashtirish, tizimlashtirishni taqozo etadi.

4. Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashda uzoq muddatli va situatsion tayyorgarlik bosqichlarini aniqlash tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirishning zaruriy sharoitidandir. Aks holda o'sha jarayonning konstruktiv xarakteri yo'qqa chiqadi.

5. Bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashda ijtimoiylashuv muhim omil sifatida o'rganilib, shaxsning o'zini-o'zi rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, milliy va umummadaniy kompetentsiyalari mazmunining mazkur faoliyatga tayyorlashning maqsadli buyurtma, tarbiyaviy tadbirlar hamda kutilayotgan natijaga asoslangan tuzilmasi ishlab chiqildi.

6. Bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashga doir shaxsga yo'naltirilgan, qadriyatlarga asoslangan, faoliyatli, madaniyatga yo'naltirilgan, tizimli, texnologik, integrativ va kompetent yondashuvlar mazmuni hamda bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash texnologiyalari bosqichlari takomillashtirildi.

7. Bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari, omillari uning namoyon bo'lish jihatlari, innovatsion yondashuvning kognitiv, emotsional-obrazli va motivatsion mezonlari, samarali printsiplarini takomillashtirishda «O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida yoshlar bilan ishlash, ularda yuksak axloq, kasbga sadoqat kabi insoniy fazilatlarini shakllantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish Kontseptsiyasi»ga amal qilish global ahamiyat kasb etadi.

8. Innovatsion yondashuv asosida takomillashtirilgan bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning modeli o'zida shaxsga yo'naltirilgan,



funktSIONal, ijtimoiy-madaniy hamda baholash tamoyillarini aks ettiradi.

9. Bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha «Besh muhim tashabbus» va «Uzluksiz ma'naviy tarbiya Kontseptsiyasi» asosida tajriba-sinov ishlarining olib borilishi tadqiqot muammosining kasbiy pedagogik ta'lim taraqqiyotida istiqbolli ekanligidan dalolat beradi.

10. Bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash ularning nafaqat kasbiy takomilida, balki ma'naviy-axloqiy tarbiyasida, xususan, ona Vatanimiz, xalq va jamiyat oldidagi burchi va ma'suliyatini chuqur tushunadigan, milliy ongi uyg'oq, bunyodkorlik va tashabbuskorlik g'oyalariга sodiq, mamlakatimiz ravnaqiga o'z hissasini qo'shishdan manfaatdor vatanparvar shaxs tarbiyasida ham muhim o'rin tutadi. Zero, tarbiya metodikasi ta'lim jarayonidagi tadrijiy rivojlanish bosqichlari hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari tarbiya samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi an'analarning o'zaro munosabatlari majmuidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi «O'zbekistonning yangi rivojlanish davrida ta'lim va tarbiya, ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi NUP-6108 Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasining «Innovatsion faoliyat to'g'risida»gi O'RQ-630 Qonuni // Qonunchilik palatasi tomonidan 2020 yil 7 apreldagi qabul Qonuni. 2020 yil 24 iyul. - T., 2020.

3. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. - T., 2015. - 208 b.

4. Коджаспирова Г.М., Коджаспиров А.Ю. Педагогический словарь: для студентов высших и средних педагогических учебных заведений. - М.: Академия, 2010.



BO'LAJAK INFORMATIKA O'QITUVCHILARNING SMART TEKNOLOGIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

T.V.MAMADALIYEV,
O'zPFITI tayanch doktoranti

Hozirgi kunga kelib, kompyuter savodxonligi madaniyatning muhim belgisiga aylanib ulgurdi, u xar bir insonga qayerda, qaysi xududda ishlamasin zaruratga aylandi. Shu sababli ta'lim jarayonida, xususan bo'lajak informatika o'qituvchilarini zamon talablari asosida o'qitish dolzarb mavzuga aylandi. Quyidagi maqola bo'lajak informatika o'qituvchilarini SMART texnologiyalar asosida o'qitish masalasiga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), smart ta'lim, informatika, smart - ta'lim, elektron ta'lim, smart elektron ta'lim.

В наше время компьютерная грамотность стала важной чертой культуры, необходимостью для каждого человека, где бы он ни работал. Поэтому подготовка будущих учителей информатики в соответствии с современными требованиями стала актуальной проблемой в учебном процессе. Данная статья посвящена подготовке будущих учителей информатики на основе SMART-технологий.

Ключевые слова: информационно-коммуникационные технологии (ИКТ), умное образование, информатика, умное образование, электронное обучение, умное электронное обучение.

Nowadays, computer literacy has become an important feature of the culture, it has become a necessity for every person, no matter where they work. Therefore, the training of future teachers of computer science in accordance with modern requirements has become a topical issue in the educational process. The following article is devoted to the training of future computer science teachers on the basis of SMART technologies.

Key words: information and communication technologies (ICT), smart education, informatics, smart education, e-learning, smart e-learning.

Bugungi kunda elektron ta'limning takomillashgan shakli bo'lib hisoblangan Smart-ta'lim (smart-education) jadal rivojlanmoqda.

"SMART" atamasi dastlab 1954 yilda olim, iqtisodchi, publisist, pedagog Piter Ferdinand Druker tomonidan kiritilgan, 1965 yilda Paul J Meyer, 1981 yili esa George T. Doran o'z ilmiy ishlarida qo'llagan

So'nggi paytlarda Smart so'zi bilan bog'liq terminlar juda ko'payib ketdi. Masalan, "Smart doska", "Smart uy", "Smart universitet", "Smart shahar", "Smart jamiyat", "Smart sinf" va boshqalar. Shu o'rinda ularga aniqlik kiritib olsak. "Smart" so'zi o'zi nima ma'noni anglatadi?

Dunyo olimlari tomonidan ko'plab tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ular Smart



texnologiyalarni turli jabhalarda qo'llash imkoniyatlarini yoritib berishgan. Jumladan, M.N.Pronikov, N.V.Tixomirov, A.Lobov, V.P.Tixomirova, P.P.Kokreynalar Smart – ta'limni rivojlantirishning yangicha, innovatsion yondashuv sifatida yoritib o'tishgan.

Respublikamiz yetakchi olimlaridan A.A. Abduqodirovning ta'kidlashicha, Smart-texnologiyalar – o'zaro ta'sir va tajriba almashish negizida proseduralarga uzatiladigan, avvallari axborot va bilimlarga asoslangan texnologiyalardir.....

Ulardan kelib chiqqan holda: S.M.A.R.T (ingliz tilidan - aqlli) so'zi beshta bazaviy mezon bo'yicha tuzilgan bo'lib, turli olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Ularda quyidagicha ma'nolarni anglatadi:

S – Specific. Maqsad – Aniq bo'lishi kerak.

M – Measurable. Maqsad – O'lchash mumkinligi.

A – Achievable. Maqsad – Erishish mumkin bo'lgan.

R – Relevant. Maqsad – Dolzarb.

T – Time-bound. Maqsad – Muddat bilan chegaralangan.

Ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish, ta'lim oluvchilarning mustahkam nazariy bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ularni kasbiy mahoratga aylanishini ta'minlash maqsadida o'quv-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyadan foydalanish davr taqozosi hamda ijtimoiy zaruriyat sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda.

O'quv jarayonida SMART-ta'lim texnologiyasining qo'llanilishi muhim pedagogik anglash, ijodiy yondashuvchi va faol fikrlovchi pedagog, ta'lim jarayonini modellashtirish usuli va o'z faoliyati natijalarini oldindan bashorat qilishni talab etadi. Elektron ta'lim resurslari va o'quv-metodik majmualarni SMART-ta'limda qo'llanilishi uchun loyihalash ko'nikmasi o'qituvchi professionalizmining bir qismi hisoblanadi. O'quv jarayoniga SMART-texnologiyani tadbiq etish ta'limning barcha subyektlari uchun shubhasiz ko'pgina afzalliklar tuhfa etadi.

Bugungi kunda SMART-texnologiyalarning asosiy vositalarini IT (Internet of things) – ashyolar interneti tashkil etmoqda. Ashyolar interneti IT (Internet of things) bu – maxsus elektronika, dasturiy ta'minot, sensorlar, qabul qiluvchi va uzatuvchi qurilmalarning o'zaro ma'lumot almashinuvidan iborat tarmoq tizimi bilan jihozlangan sun'iy intellekt yordamida masofadan boshqariluvchi maishiy texnikalar, transport vositalari va boshqalar. IT texnologiya tadqiqotchilariga kamroq quvvat sarflaydigan va deyarli har qanday turdagi qurilmaga ulanishi mumkin bo'lgan kichikroq va arzonroq simsiz tizimlarni ishlab chiqish uchun kuch beradi.

SMART – ta'lim (education) – mohiyat jihatdan yangi ta'lim muhitidir; butun jahon bilimlarni foydalanish va passiv kontentdan faol kontentga o'tish uchun o'qituvchi, mutaxassis va talabalarning kuchlarini, ya'ni ta'lim faoliyatini

birlashtirishdir. Smart – o‘quv jarayoni – innovasiyalar va internetdan foydalanish asosida tashkil etilgan ta‘lim jarayonidir; u tizimli ko‘p o‘lchovli ko‘rish va ko‘p aspektlilik va yangilanishining uzluksizligini e‘tiborga olgan holda predmetlarni o‘rganish asosida kasbiy kompetensiyalar egallashga imkoniyat beradi. [1,914]

V.P.Tixomirov bugungi ta‘lim taraqqiyotining asosiy o‘rni haqida juda aniq izoh bergan: "Ta‘limning eski tizim parametrlari kishilarni SMART-jamiyatda yashashi va ishlashi uchun tayyorlay olmaydi. SMART-texnologiyalarisiz innovasion faoliyat mumkin emas. Agarda ta‘lim tizimi ushbu taraqqiyot yo‘nalishdan ortda qolsa, u holda to‘xtab qoladi" [2,11]

Ta‘lim sohasida SMART – texnologiyalar deganda quyidagilar tushuniladi: aqlli-doskalar, aqlli-o‘quv qo‘llanmalari, aqlli-proektorlar, interaktiv va kommunikativ xarakterdagi elektron o‘quv materiallarini yaratish va tarqatishning dasturiy ta‘minotlari.

"SMART-ta‘lim" ta‘limni axborotlashtirishni rivojlantirishning yangi paradigma bo‘lib hisoblanadi. U ta‘limni individuallashtirishni talab bo‘yicha xizmat ko‘rsatish va ochiq ta‘lim muhitini qo‘llab-quvvatlaydi.

Oqilona ta‘limning mohiyati aqlli texnologiyalarni qo‘llash orqali aqlli muhitni yaratishdir, shuning uchun aqlli pedagogikada shaxsiylashtirilgan ta‘lim xizmatlarini taqdim etish va o‘quvchilarning qobiliyatini kuchaytirish, shuningdek, qiymatni yaxshiroq baholash, yuqori fikrlash sifati va yanada kuchli xulq-atvorga ega bo‘lgan donolik qobiliyatini kuchaytirish mumkin.

SMART-ta‘limning asosiy tamoyillariga quyidagilar kiradi:

1. Ta‘lim dasturlarida ko‘zda tutilgan o‘quv masalalarini hal etishda dolzarb axborotlardan foydalanish: har qanday kasbiy faoliyatga doir ta‘limning axborotlar oqimi tezligi va hajmi jadal sur‘atlar bilan rivojlanib bormoqda, bu esa o‘z navbatida talabalarni amaliy muammolarni hal etishga tayyorlash uchun amaldagi o‘quv materiallarini real vaqtdagi ma‘lumot bilan to‘ldirishni taqazo etadi.

2. Talabalarning mustaqil bilim olishini, tadqiqotchilik va loyihalovchilik faoliyatini tashkil etish. Ushbu tamoyil talabalarning muammolarni hal etishda ijodiy izlanishlar va ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishida ustuvor ahamiyatga ega bo‘lib hisoblanadi.

3. O‘quv jarayonini tarqalgan keng o‘quv muhitida amalga oshirish. Ta‘lim muhitini o‘quv muassasasi hududiy yoki masofaviy ta‘lim tizimi chegaralari bilan cheklash kerak emas. Ta‘lim jarayoni doimiy bo‘lishi kerak.

4. Ta‘lim yo‘nalishlarining moslashuvchanligi va ta‘limni individuallashtirish, ya‘ni shaxsga yo‘naltirish. Ta‘lim berish faoliyatining xilma-xilligi talabalarga ta‘lim dasturlari va kurslarini o‘qitish, o‘quv jarayonida asbob-uskunalaridan foydalanish, ularning sog‘lig‘ini saqlash imkoniyatlari, moddiy va ijtimoiy sharoitlarga mos



ravishda keng imkoniyatlar berishni talab qiladi. N.P. Kapustinning ta'rifiga ko'ra moslashish (lot. adaptatio- adaptiv, moslashish) – bu "ta'lim oluvchining tug'ma iste'dodi, qobiliyatiga mos ravishda intellektual rivojlanishni optimal darajaga ko'tarish imkonini beruvchi ta'lim tizimi. Egiluvchanlik, ochiqlik kabi xususiyatlarga ega moslashuvchi o'qitish tizimlari ta'lim oluvchining ehtiyojiga moslashgan holda uning yashirin imkoniyatlarini rivojlanishning bir muncha yuqori darajasiga olib chiqadi"

SMART – universitetda o'qitish talabning imkoniyatiga imkon qadar moslashtirilgan va bugungi kunda hammaga ma'lum bo'lgan texnologiyalarga asoslangan bo'lishi kerak. Buning uchun esa SMART-universitetlar quyidagi talablarga javob berishi kerak: moslashuvchanlik, muvofiqlashuvchanlik, innovasiyalar. Ta'limda SMART-texnologiyalar juda katta ahamiyatga ega, bir tomondan ular o'quv muassasasi moddiy-texnika ta'minoti uchun xarajatlarini optimallashtirishga, boshqa tomondan, ta'lim xizmatlari va mahsulotlarning sifatini yangi darajaga ko'tarishga imkon beradi. [3,720]

Shunday qilib, "SMART-ta'lim" bo'lajak mutaxassis shaxsi rivojlanishi imkoniyatlarini kengaytirib, ularda zarur bo'ladigan ijodiy salohiyatini shakllantiradi. Bunda SMART-texnologiyalar va "ashyolar interneti" (IT) ta'limda o'qitishning asosiy yordamchi vositalari bo'lib xizmat qiladi. Ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda SMART-texnologiyalar va IT-ashyolar interneti vositalaridan ta'lim tizimida foydalanish bo'yicha konsepsiya va ilmiy tadqiqotlarga asoslangan aniq metodik tavsiyalar hali ishlab chiqilmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abbasy, M. B., & Quesada, E. V. (2017). Predictable Influence of IoT (Internet of Things) in the Higher Education. *International Journal of Information and Education Technology*, 7(12), 914-920. DOI: <http://doi.org/10.18178/ijiet.2017.7.12.995>.
2. Zakirova F.M. Begbutaev A.E. Oliy ta'limda ma'ruza mashg'ulotlarini tashkil etishning zamonaviy usullari // Tafakkur ziyosi. - Jizzax. №2. 2020. -B.12-15. (13.00.02. № 29).
3. Zokir O'rinboyev. Oliy ta'lim muassasalarida axborot texnologiyalar fanini smart texnologiyalar asosida o'qitish.



UZLUKSIZ TA'LIMDA XALQ O'YINLARIDAN FOYDALANISH ORQALI O'QUVCHILARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH

A.A.ABDULLAYEV,

TVChDPI "Bolalar sporti" kafedrası mudiri dotsent

Maqolada xalq o'yinlari uzluksiz ta'limda sog'lom turmush tarzini shakllantiruvchi asosiy vositalardan biri sifatida tahlil qilingan bo'lib, unda xalq o'yinlari haqidagi ma'lumotlar ilmiy adabiyotlar va darsliklarga kiritilmaganligi, ammo Farg'ona, Namangan viloyatlarida bolalar tomonidan o'ynalib kelinayotgan o'yin mashg'ulotlarga tadbir qilinib kelinmoqda.

Tayanch so'zlar: uzluksiz ta'lim, jismoniy tarbiya, xalq o'yinlari, sog'lom turmush tarzi, o'quvchilar sog'lom turmush tarzi.

В статье речь идет о народных играх, которые способствуют здоровому образу жизни и сведения о них нет в научной литературе и учебниках, однако такие народные игры очень распространены в Ферганской и Наманганской областях.

Ключевые слова: непрерывное образование, физическая культура, здоровый образ жизни, здоровый образ жизни учащихся.

The article is about the national games that they are analyzed as a means of forming the healthy way of life in continuing education. The games which are played by children in Fergana and Namangan regions are recommended to use during the lessons as well.

Key words: continuing education, Physical training, national education, healthy way of life, means, exercises (lessons), pupils.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etib bordi. Ta'lim sohasida keng ko'lamdagi islohotlar amalga oshirilib, uning sifati va mazmunini tubdan yangilash va takomillashtirish borasida mamlakatimiz rahbariyati tomonidan bir qator huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida,[4] O'zbekistonda ta'lim-tarbiya ishlari samaradorligini oshirish borasida zarur maqsad-vazifalar belgilangan bo'lib, hozirda mazkur masalalar o'z yechimini topmoqda. Shuningdek, Maktab ta'limini rivojlantirish yuzasidan ishtiqlik bilan rejalari ishlab chiqilgan bo'lib, unda har tomonlama yetuk avlodni tarbiyalash va ularni sog'lom turmush tarziga rioya etish qoidalarni o'rgatish vazifasi ko'zda tutilgan. Bu borada mamlakatimiz Prezidentning 5 ta tashabbusning 2-chi tashabbusida nazarda tutilgan "Yoshlarni jismoniy chinqitirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan" amalga oshirishda uning har bir



parametrlarni amalga oshirishda avvalo, maktab tizimida ta'lim oluvchilarni bu jarayonga tayyorlash zaruratini belgilaydi. Bu esa XXI asr talabalariga to'liq javob beradigan barkamol avlod bo'lib voyaga yetishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz.

Shunday ekan, jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarida xalqimizdan meros bo'lib qolgan xalq o'yinlari vositasida sog'lom turmush tarzini yaartish vazifasi ham muhim yo'nalishlardan sanaladi. O'yinlar bolalikdan olamni tanish, voqea-hodisalarni farqlash, mehnatga o'rgatish, ongni shakllantirish, jismoniy quvvatni, harakatlarni kuchaytirish vositasi sifatida rivojlanib, murakkablashib borgan. Oilada, mahallada, jamoatchilik orasida bolaning (kattalarning ham) ephilligi, dadilligi, topqirligi, zukkoligi, tirishqoqligi, kuchliligi, irodaliligi, chidam-bardoshi, didi, mehnatga va odamlarga munosabati o'yinlar orqali aniqlangan. Oilada, ko'chada, qishloqda, tumanda, mamlakatda o'tkazilgan o'yin tarzidagi bahslar, musobaqalar kuchlilarni, g'oliblarni aniqlab bergan va ular o'zi yashayotgan oila, mahalla, yurtning qahramoniga aylangan.

Tadqiqotlarda keltirilganidek, doimiy o'tkaziladigan o'yinlar bilan birga har bir faslga xos o'yinlar ham mavjud. Masalan, bahorda daraxtlar uyg'onib, tollar kurtak chiqarganda – "Tol bargak", dala gullari ochilganda – "Gul o'yini", pishiqchilik paytida danak, yong'oq o'yinlari, arg'imchoq uchishlar sevib o'ynalgan. Kech kuz, qishda yog'ingarchilik boshlanib, yer yumshaganda qoziq, oshiq, tosh o'yinlar odat tusiga kirgan. Qor yoqqanda "Qorxat", "Qorbo'ron", yomg'ir yoqqanda "Yomg'ir yog'aloq", kuchli shamol esganda "Bo'ron-bo'ron" o'yinlari, sovuq o'z kuchini ko'rsatganda barcha sandal atrofida yig'ilib: "Topishmoq top", "Tez aytish", "Kim aytdi", "Oyog'ingni tort" kabilar o'ynalgan. Kech kuzdan to bahorgacha "Uloq" musobaqalari o'tkazilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 13 yanvardagi "Alpomish" dostonining ming yilligini nishonlash to'g'risidagi qaroriga asosan har ikki yilda bir marotaba "Alpomish o'yinlari" Respublika festivalining o'tkazilishi xalq o'yinlariga bo'lgan e'tiborni yanada oshirdi. Birgina milliy kurashimizning butun dunyoda tan olinishi vatanimiz dovrug'ini olamga yoydi. Chindan-da, o'zbek kurashida ajdodlarimiz ruhiyatiga, asl fazilatlariga xos bo'lgan mardlik, jasurlik, bag'rikenglik, raqibiga nisbatan oliyjanoblik, halollik, insonparvarlik xislatlari mujassam.

Hozirgi zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosan o'qituvchi emas, balki o'quvchilarning mashg'ulotdagi faol ishtirokini nazarda tutadi. Mashg'ulot davomida unda qatnashayotgan o'quvchilarning hammasini baholash va ularni ishtirok etishga chorlash pedagogning asosiy vazifasi hisoblanadi. Shu tomonni hisobga olish o'qituvchining maqsadi bo'lishi kerak. Chunki yangi darsga katta



ishtiyoq bilan tayyorlangan va uy vazifasini bajargan o'quvchiga e'tibor qaratish, uning sa'y-harakatlarini munosib baholash, rag'batlantirish kerak. Aksincha yo'l tutiladigan bo'lsa, bu hol o'quvchidagi shijoat va qiziqishning so'nishiga olib kelishi mumkin. Bu borada o'qituvchidan ziyraklik va ehtiyotkorlik talab etiladi.

Xalq o'yinlarini bir-biridan ajratish, ularning tarixi, o'ziga xosligini chuqur anglash o'quvchilarda ushbu o'yinlarni ishtiyoq bilan o'ynashlariga zamin yaratadi. Bunda esa ko'rgazmalilikdan foydalanish kutilgan samaralarni beradi. Xalqimizda yuz marta eshitgandan bir marta ko'rgan afzal, degan dono maqol bor.

Demoqchimizki, xalqimizning milliy o'yinlari aks etgan bir qancha badiiy filmlar, sahna asarlari, tasviriy san'at namunalari bor. Masalan, badiiy filmlardan "Dilxiroj", "Tog'lik kuyov", "Chavandoz" kabi televizion asarlarni misol qilish mumkin. Xalq o'yin qoidasi, mohiyatini tushuntirishda agar ana shu asarlardan parchalar ko'rsatilsa yoki tasviriy san'at namunalari namoyish etilib, ular o'qituvchi va o'quvchilar hamkorligida sharhlansa, bu faoliyat o'quvchilarni xalq o'yinlarining amaliy qismi uchun tayyorlashda yetakchi omillardan biri bo'ladi.

Mashg'ulot boshida o'quvchilar o'yinlarga ham ruhan, ham jismonan tayyorlangandan so'ng ularni o'yinlarga faol jalb qilish zarur. Faqat ularda birdan kuchli ruhiy va jismoniy qo'zg'alish yuz berishining oldini olishni unutmaslik darkor. O'quvchilarning jismoniy imkoniyatlarini hisobga olib, dastlabki o'rganishda o'quvchilarning organizmini teng darajada harakatga keltiruvchi, organlarning o'zaro muvofiq harakatini ta'minlovchi, egilish, bukilish, sakrash, qayrilish kabi harakat amallarini taqozo qiluvchi o'yinlarni o'ynatish ularni keyingi mukammal darajadagi o'rganish hamda harakatlarni amaliy takrorlash bosqichlariga tayyorlaydi.

Bunda o'yinlarning tezligi, sur'ati, ko'lami va darajasini hisobga olish kerak. Mashg'ulotdagi sharoitga qarab harakatlar ba'zida tez o'ynaladigan o'yinlardan boshlansa, ba'zi vaqtlarda ularni sekin harakatlarni taqozo qiladigan mashqlar bilan boshlashga to'g'ri keladi. Harakatlar sur'ati va tezligiga qarab o'yinlarni quyidagicha tizimlash mumkin:

Sekin o'ynaladigan o'yinlar

O'rtacha o'ynaladigan o'yinlar

Tez o'ynaladigan o'yinlar

Milliy o'yinlarni o'rgatishda xalq an'analariidan foydalanish quyidagilarni nazarda tutadi:



1. O'quvchi-yoshlarning jismoniy barkamolligi, chiniqishi;
2. Umumiy ish qobiliyatining o'sishi;
3. Har xil sharoitlarda erkin harakat qila olish imkonini beradigan bilimlar va harakat malakalarini hosil qilish;
4. Hayotiy faoliyatga yordam beradigan aqliy va irodaviy fazilatlarni, odob-axloq normalarini tarkib toptirish.

Pedagogika fanlari doktori professor T.S.Usmonxo'jaev rahbarligida nashrdan chiqarilgan "Ming bir o'yin" (1001 o'yin), "Xarakatli o'yinlar" va "Kurash" darsligi (A.Q.Atoev) va qator ilmiy-nazariy ommabop risolalar Xalq milliy o'yinlarining mazmuni va tarbiyaviy jihatlarini o'z ichiga oladi. U.Qoraboevning "O'zbek xalq o'yinlari" kitobi qadimgi ajdodlardan meros bo'lib kelgan turli tuman o'yinlarni, ulani o'rganish va qo'llash yo'llariga bag'ishlanganligi bilan olqishga sazovordir. Aynan shu kitobda Xalq milliy o'yinlarining sohaviy turlari va ularning kelib chiqish jarayonlari haqida juda boy materiallar bayon etilgan.

Bu, albatta, mashg'ulotlarda xalq o'yinlaridan foydalanish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, hozirda xalq orasida darslik va qo'llanmalarga kirmagan qadimiy o'yinlar ham mavjud bo'lib, ular respublikamizning turli hududlarida o'ynalmoqda. Ularni o'rganish, jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlariga tadbiiq qilish lozim.

"Tandirpish", "Mergan tayoqcha", "Oyoq bosar" shunday o'yinlardan bo'lib, Farg'ona, Namangan viloyatlarida o'ynalib kelinadi.

"Tandirpish" o'yini qumli yoki tuproqli joyda o'ynalib, o'ynovchilar nam qum yoki tuproqni qo'li ustiga to'kadilar, uning ustidan urib "pishiradilar". Obdon qotirilgach, ular bir-birilaridan "tandiring pishdimi?" – deb so'rashadi. Tandirim pishdi deb, ular asta-sekin "tandir" ichidan qo'llarini oladilar. Hosil bo'lgan manzara go'yo non yopiladigan tandirni eslatadigan shaklda qolishi kerak. Shunday shaklda qolgan holda g'olib, aksincha, "tandiri" pishmay, qulab tushgan ishtirokchi yutqazgan hisoblanadi.

"Mergan tayoqcha" o'yinida bolalar o'zlariga nishonga olish uchun mergan tayoqchalar tanlaydilar. Tayoqchalar bir xil o'lchamda bo'lishi kerak. Nishon uchun daraxtning yo'g'onroq shoxidan kesib olib, uni vertikal holatda o'rnatadilar. Barcha o'z tayoqchasini nishonning orqa tomonidan turib old tarafiga qaratib otadi. Kimning tayoqchasi nishondan uzoqda joylashgan bo'lsa, o'sha birinchi bo'lib nishonga tayoqchasini otadi. Kimning mergan tayoqchasi nishonga tegib, uni yiqitsa, o'sha g'olib bo'ladi va o'yin yangitdan boshlanadi.

"Oyoq bosar" o'yinida 4-5 bola birlashib, yelkama-yelka turadi. Ikki qo'lini ikki yonidagi sherigining yelkasiga tashlab turadi. So'ng barchasi birdaniga orqaga



qadami yetgancha sakrab, bir-biridan ajraladi. Ishtirokchi soat strelkasi bo'ylab sakragan holda yonidagisining oyog'ini bosishga harakat qiladi. Ammo sheriklari unga chap berishi kerak bo'ladi. Kim oyog'ini raqibiga bostirib olsa, u yutqazgan hisoblanadi va o'yindan chiqadi. Shu tariqa o'yin bir nafar ishtirokchi qolguniga qadar davom ettiriladi.

Ushbu o'yinlar o'quvchilarda o'zaro ahil-inoqlik, chaqqonlik, merganlik, bunyodkor g'oyalar sari tashabbuskorlik fazilatlarini tarbiyalashi bilan g'oyat xarakterli hisoblanadi.

Yuqoridan xulosa qilish mumkinki:

– bir necha asrlardan buyon yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashda asosiy omillardan bo'lib kelayotgan xalq o'yinlari uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishda, umuman, sog'lom turmush tarzini yaratishda yetakchi ahamiyat kasb etadi;

– hozirda respublikamizning turli hududlarida o'ynalayotgan, ammo darslik va qo'llanmalarga kirmagan xalq o'yinlarini topish, o'rganish va ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbir etish muhim vazifalardan sanaladi;

– Respublikamizning Farg'ona, Namangan viloyatlarida o'ynalib kelingan "Tandirpish", "Mergan tayoqcha", "Oyoq bosar" o'yinlari o'quvchilarda o'zaro ahil-inoqlik, chaqqonlik, merganlik, bunyodkor g'oyalar sari tashabbuskorlik fazilatlarini tarbiyalab, sog'lom turmush tarzini yaratishga muayyan hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmonxujaev T.S., Xujaev F. "Harakatli o'yinlar". 1991. "O'qituvchi".
2. G.Yo'ldosheva. "Harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi". Buxoro davlat universiteti. O'quv-uslubiy qo'llanma. Tuzuvchi k. O'qituvchi.
3. "Milliy harakatli o'yinlar". Navoiy Davlat pedagogika instituti fanidan maruzalar matni 2010 y.
4. A.Isroilov. "Yoshlarni o'zbek xalq milliy o'yinlari asosida chiniqtirish". "Sog'lom avlod uchun" jurnali. 2005 y. № 7-son.
5. M.Asloнова. "Ta'lim jarayonida harakatli o'yinlardan foydalanish. (boshlang'ich sinflarning jismoniy tarbiya darslari misolida)". Nomz.diss. Navoiy. 2008 yil. 155 b.
6. Usmon Qoraboev. "O'zbek xalq o'yinlari". Toshkent. – 2001 y.



G'ĪYOSIDDIN JAMSHID AL-KOSHIYNING ILM-FANGA QO'SHGAN HISSALARI

J.A. MAMATOV,

O'zPFITI tayanch doktoranti

Ushbu maqolada buyuk ajdodlarimiz o'zlarining qoldirib ketgan ma'naviy meroslarini, ilmiy kashfiyotlarini ta'lim-tarbiyaga tadbiqu, ularning amalga oshirgan ishlari va bugungi kunda bizgacha yetib kelgan asarlarining mazmun mohiyati to'g'risida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: *ma'naviyat, tarixiy, kelajak, meros, matematika, astronomiya, risola astrologiya, riyoziyot, milodiy.*

В этой статье рассуждается о том, как наши великие предки приобщают к образованию и воспитанию оставленное ими духовное наследие, научные открытия, суть осуществленной ими работы и дошедшие до наших дней труды.

Ключевые слова: *духовность, история, будущее, наследие, математика, астрономия, брошюра, астрология, математика, MS.*

This article discusses how our great ancestors introduce to education and upbringing the spiritual heritage left by them, scientific discoveries, the essence of their work and the work that has survived to this day.

Key words: *spirituality, history, future, heritage, mathematics, astronomy, brochure, astrology, mathematics, MS.*

O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi rivojlanib barcha sohalarda yuksak ishlar amalga oshirilib kelinayotgan shu kunlarda ilm-fan sohasida ham talimni isloh qilish borasida samarali natijalarga erishilmoqda.

Mustaqillik yillarida ma'naviyat va tarixiy xotira masalalariga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratib kelinmoqda. Ma'naviyati yuksak darajada rivojlangan millatgina buyuk kelajakka erishish uchun, ulug' rejalar uchun o'zida kuch-qudrat va ehtiyoj topa oladi. Ma'naviyatli shaxs avvalo o'zini o'zi qadrlaydi, o'tmish bilan faxrlanadi, kelajakka umidvorlik bilan qaraydi.

O'zbekiston Respublikasining yangilangan "Ta'lim to'g'risidagi" gi Qonuni talablari asosida yoshlarni komil inson, barkamol shaxs sifatida tayyorlash, ajdodlarimizning xalqimiz tarixida ta'lim-tarbiya ishlari takomillashtirish yo'lida o'zining pedagogik ilmiy-tadqiqot hamda kadrlar tayyorlash yo'lida olib borgan ishlari tarixini o'rganish va talimga olib kirish muhim masala sifatida o'rganilmoqda. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev: "Zamonaviy O'zbekistonning tarixi – bu mamlakatimizning haqiqiy mustaqillikka erishish yo'lida olib borilgan o'ta murakkab va og'ir kurashlar tarixidir" deb ta'kidlaydi [3]. Shuningdek, "Buyuk



tarixda hech narsa izziz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Yangi tahdidlar, jumladan, "ommaviy madaniyat" xavfi va boqimandalik kayfiyati paydo bo'layotgan, odob-axloq, qadriyatlarining yo'qolish xavfi yuzaga kelayotgan hozirgi globallashuv sharoitida bu g'oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda" – degan fikrni bildiradi.

Ma'lumki, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilmu ma'rifat, ta'lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan. Yoshlar ma'naviyatini shakllantirish omillaridan biri bu ta'lim-tarbiya tizimi hisoblanadi. Ma'lumki, inson kamoloti, millat ravnaqining asosiy sharti ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya bilan bevosita bog'liq. Shuning uchun ham, yoshlarning ta'lim-tarbiya masalasi davlat nazoratida ekanligi Bosh Qomus-Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan.

Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan". Shu o'rinda e'tirof etish joizki, Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir" degan fikri insoniyatning yashab turishi uchun eng muhim ma'naviy ibrat ekanligi bejizga aytilmagan [4, 24]. Bu ibratli so'zlar hozirgi kunda ham o'zining ahamiyatini yo'qotmagan. Xalqimizning "O'tmishni unutganning kelajagi bo'lmas" degan naqliga amal qilib yoshlar tarbiyasida ota-bobolarimiz o'gitlaridan ham keng foydalanish orqali demokratik taraqqiyot rivojiga hissa qo'shuvchi yoshlarni shakllantirishimiz zarur. Buyuk ajdodlarimiz, jumladan, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Mahmud Zamaxshariy, Muso Xorazmiy, Ahmad Farg'oni, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, al Koshiy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, Burhoniddin Marg'inoniy Amir Temur, Xoja Ahror Vali, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburlar bizga o'zlarining ma'naviy meroslarini qoldirib ketganlar. Bu ota-bobolarimiz qoldirib ketgan meroslarining zamirida vatanga muhabbat, insoniylik g'oyasi, umuminsoniy qadriyatlar majmui, odob-axloq, vatanparvarlik, fidoyilik, xalqlar o'rtasida do'stlik, tinchlik va umuman ezgulikka da'vat etuvchi g'oyalar yotadi.

IX-XII asrlarda yurtimizda birinchi Uyg'onish davrida bir necha avlod vakillari yetishib chiqqan bo'lsalar, Amir Temur va temuriylar davrida ham Renessansning



ikkinchi to'liqini boshlangan. Mirzo Ulug'bek va uning akademiyasi, Qozizoda Rumi, Ali Qushchi, G'iyosiddin Jamshid Koshiy, Fosih Xavofiy kabi ko'plab olimlar asrlarga yetgulik ilmiy kashifiyotlarni amalga oshirdilar.

Yuqorida nomlari zikr etilgan allomalardan Al-Koshiyning ilmiy merosi dunyoning turli davlatlari - Yevropa, Osiyo, Amerika qit'asi mamlakatlari xalqlarining tillariga tarjima qilingan bo'lib, uning matematika ilimga qo'shgan hissasi, boy milliy madaniy-tarixiy an'analarga hamda xalqimizning intellektual ilmiy merosini chuqur o'rganishga va ularni yoshlar ongiga singdirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jamshid ibn Mas'ud ibn Mahmud G'iyosuddin al-Koshiy - XIV-XV asrda o'z fanining bilimdonlari - riyoziyotchilar, tabiblar va hunarmandlari bilan shuhrat qozongan Koshonda tug'ilgan. Uning bobosi Mahmud ibn Yah'yo ibn al-Hasan al-Koshiy ham o'qimishli bo'lib, 1411 yilda Sherozda riyoziyot va astrologiyaga oid risola – Iskandarning (Amir Temurning nabirasi) goroskopini tuzgan. G'iyosuddin Koshiy yoshlik chog'idanoq o'z davrining yetuk matematik va astronom olimi sifatida shuxrat qozondi. U tabobat, mantiq, huquqshunoslik, adabiyot fanini yaxshi bilgan. Jamshid Koshiy riyoziyot va falakiyot ilmiqa qiziqib, qadimgi Gresiya, Eron va Markaziy Osiyolik mashhur olimlarning asarlarini tarjima qilib, ularga sharhlar yozgan. Koshiyning birinchi ilmiy faoliyati "Rasadi xusuf" nomlangan asarning yozilishi bilan boshlangan va ushbu asar hijriy -qamariy 808 yilning 12-zulhijja oyida Koshonda yozilganki, milodiy 1406 yilning ikkinchi iyuni bilan to'g'ri keladi. G'iyosiddin Koshiy keyingi ilmiy risolasini "Sullam as-samo" (Osmonlar narvoni) nomi bilan arab tilida qamariy 809, milodiy 1407 yilda, ya'ni Temurning vafotidan ikki yil o'tganidan keyin yozgan.

U 23 yoshida Koshonda yashagan davrida kosmologiya ilmi bo'yicha fors tilida muhtasar kitob yozadi. O'sha davrda ilmiy asarlar yozish hukmronlarning himoyasisiz juda qiyin edi. Koshiy Hirotta kelib, Shohrux saroyida xizmat qilgan va unga atab "Elxon zij"ini takomillashtirish uchun "Xoqon Ziji" ("Ziji Xoqoniy dar takmil" "Ziji Elxoniy") nomli astronomik asarini fors tilida yozgan. Uning bu asari o'z davridagi astronomiya sohasidagi eng yetuk asarlardan hisoblangan. G'iyosiddin Koshiy qamariy 816 yilda nujumshunoslik bobida "Ziji Xoqoniy" nomli ilmiy asarini, Temurning nevarasi va Shohruxning o'g'li Ulug'bekka sovg'a sifatida yuboradi. Sulton Ulug'bek o'sha vaqtda Samarqanda yashardi. O'sha vaqtda Koshoniyning iqtisodiy ahvoli yaxshi emas edi va u Sulton Ulug'bek yordami bilan ilmiy ishlarini davom ettirishga umid qilgan edi. Mirza Ulug'bek Qozizoda Rumiyning maslahati bilan Koshiyni boshqa olimlar qatori 1416 yili Samarqandga kelishga taklif etgan va u bu taklifni qabul qilib 1417 yili Samarqandga keladi. Koshiy Samarqandda Ulug'bek rasadxonasi ishlariga faol qatnashib, chuqur ilmiy ishlar olib boradi. Ularning ilmiy qarashlarini astronomiyadan yozgan 10 ta



asari va matematikadan yozgan 3 ta eng katta asarlarida bayon etgan.[5,187]

Islom davrining buyuk matematigi va fizigi hamda Eronning mashhur shaxslaridan biri G'iyosiddin Jamshid Koshiy qadimda mavjud bo'lgan hisoblashning to'rt amalini yanada takomillashtirgan va isloh etgan olimdir.

Koshiy arab tilini juda yaxshi bilgan va Ulug'bek "Zij"ining muqaddimasini arabchaga o'g'irgan. Bu haqda ba'zi manbalarda shunday deyiladi: "Mavlono sulton Ulug'bek ibn Sulton Shohrux ibn Sulton Temur Qurag'onning "Zij"ini tugatdi. U bu ni Samarqandda kuzatgan. Arabchaga mavlono va allomalar shayxi, alloma Sayyid G'iyosuddin Jamshid o'g'irdilar". Demak, bundan ko'rinadiki, Jamshid Koshiy Samarqanddagi astronomik kuzatishlar tugamasdan oldin qazo qilgan bo'lsa ham, "Zij"ni rejalashtirish va uning nazariy qismining tuzilish ishlarida ishtirok etgan va uni arablashtirgan. Koshiy Ulug'bekka "Zij"ni yaratish, rasadxona qurish sohasini maslahatlar berganligi va bu ishlarda ishtirok etganligi tabiiy holdir. Chunki Nasiriddin Tusiyning "Ziji Elxoniy" sini mukammalashtirib, "Ziji Xoqoniy"ni yozgan Koshiyga "zij"larning jumboqlari avvaldan ma'lum edi. Pokistonlik olim Abbos Rizviy aytganidek, "Koshiyning astronomiya va astronomik asboblarni, qadimgi va yaqin o'tmishdagi astronomlar, ayniqsa, Marog'a va Sheroz rasadxonalari astronomlari ishlarining yaxshi bilganligi uni nodir bir shaxsga aylantirgandi".

Koshiy hijriy 814 (1411 - 1412) yilda al-Chag'iniyning "Falakiyot haqida qisqartmalar" asariga va 1413 yilda esa XIII asrning ikkinchi yarmidagi Samarqandlik olim va falakiyotchi Shamsuddin Muhammad Samarqandiyning "Ashkol at-ta'sis fi-l-handasa" ("Handasa ilmida shakllar asosi") geometrik risolasiga o'z sharhlarini chiqqan.

Koshiyning fors tilida otasiga yozgan maktublarida Ulug'bek va uning astronomik maktabi haqida qimmatli ma'lumotlar uchraydi.

Masalan, Koshiyning 1421 yillar atrofida Koshonga yuborgan maktubida Ulug'bek, Qozizoda Rumi, G'iyosuddin Koshiyning o'zi va Samarkand maktabining boshqa olimlarining ilmiy faoliyatlariga oid qiziqarli ma'lumotlar. G'iyosuddin xatida Samarkand Markaziy Osiyoning madaniy markazi sifatida Koshondan afzalligini, Ulug'bekni esa ko'zga ko'ringan davlat arbobi va hukmdorgina emas, balki yirik olim ekanini tasvirlab o'tadi. Muallifning Ulug'bek haqida keltirgan ushbu dalillari boshqa tarixiy manbalarda uchraydigan Ulug'bek haqidagi ma'lumotlarni, ayniqsa, uning yetuk alloma ekanligini anchagina to'ldiradi. Samarqandda 1420 yilda qurilgan Madrasa ilm-fanning nufuzli markazi bo'lib, unda Ulug'bekning o'zi ma'ruzalar o'qigan. Maktub yozilgan paytida Ulug'bek 26-27 yoshlarda bo'lgan va o'ta qiziqish bilan falakiyot va riyoziyot fanlari bilan shug'ullangan. Koshiy o'z maktubida Ulug'bekni falakiyot sohasidagi



favqulodda qobiliyatini qayd etib, uning "Nasiriddinning xotiranomalari" ("Tazkira") sidan va "Shoh tuhfası" ("Tuhfa")dan o'qigan ajoyib ma'ruzalari ni eslatib o'tadi. G'iyosuddin Ulug'bekning beqiyos xotirasi haqida yozarkan, u oftobning uzunligini darajalari va daqiqalarigacha bo'lgan aniqlikda yoddan hisoblay olishini ta'kidlab o'tadi. U Ulug'bekning madrasalarda va saroyda o'tkaziladigan katta ilmiy kengashlardagi bahslarda faol ishtirok etishini va shu munosabat bilan Ulug'bekning ustozı Qozizoda Rumiynıng ismini ham tilga oladi va uni eng ma'rifatli olim deb ajratib ko'rsatadi. Shuning bilan birga u hayotining so'nggi yillarigacha Samarqandda yashab, taxminan 1429 yilda vafot etgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, G'iyosiddin Jamshid al-Koshiy tomonidan yaratilgan "Rasadi xusuf", "Sullam as-samo", "Ziji Xoqoniy", "Falakiyot haqida qisqartmalar", "Ashkol at-ta'sis fi-l-handasa" va shunga o'xshagan bir qancha ilmiy asarlarini ilmiy tahlil qilish, uning mazmun mohiyati va ahamiyati haqida soha mutaxassislariga, tegishli ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan o'quvchi va talabalarga batafsil ma'lumot berib borish, buyuk alloma va mutafakkirlarimiz asarlarini dunyo hamjamiyati o'rtasida keng targ'ib etish, zamonaviy ilm-fan, ma'naviyat va amaliyot rivojida undan samarali foydalanish shuning bilan birga u tomonidan yaratilgan formulalari va hisoblash usullari hozirgi zamon matematikasining rivojlanishiga beqiyos asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 1992.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan)/. -T.:O'zbekiston, O'RQ 637-son.
3. Mirziyoev Sh.M. Milliy g'oya O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. -T.: Ma'naviyat, 2022.
4. Nazarov H., Ostonov Q. Matematika tarixi, Toshkent, 1996.
5. A.Abduraxmonov, A.Narmonov, N.Narmuratov. Matematika tarixi. Toshkent - 2016.



INSON TARAQQIYOTI KONSEPSIYASI – SHAXSLARARO MUNOSABATLAR MAS’ULIYATINI OSHIRISHNING TAYANCH METODOLOGIK ASOSI SIFATIDA

M.V.XALIMOVA,

ADU Umumiy psixologiya kafedrasi dotsenti

Ushbu maqolada, taraqqiyotning bosh maqsadi va uning samarasining bosh mezonlari - odamlarning imkoniyatlarini kengaytirish, ularning tabiiy, jamiyatda umum e'tirof etilgan qadriyatlariga mos keladigan ma'naviy va moddiy ehtiyojlarini sifatliryoq qondirish, yanada yuqori turmush darajasiga erishish kabi g'oyalar yoritilgan. "Inson taraqqiyoti konsepsiyasi"ni faqat ta'lim va sog'liqni saqlash, gender rivojlanish va qashshoqlikka qarshi kurash ko'rsatkichlari kabi ijtimoiy mezonlar statistikasi asosida tahlil qilish noto'g'ri ekanligi taxlil qilingan.

Kalit so'zlar: *ijtimoiy rivojlanish, inson taraqqiyoti konsepsiyasi, oilaviy farovonlik, salomatlik, uzoq umr ko'rish, moddiy farovonlik, salmoqli daromad, ma'naviy qoniqish, jamoatchilik orasida obro', xavfsizlik, madaniy xordiq.*

В данной статье конечной целью развития и главным критерием его эффективности выступают такие идеи, как расширение возможностей людей, более полное удовлетворение их духовных и материальных потребностей в соответствии с естественными, общепризнанными ценностями, достижение более высокого уровня жизни. Проанализировано, что некорректно анализировать "Концепцию человеческого развития" только на основе статистики социальных критериев, таких как образование и здоровье, гендерное развитие и показатели сокращения бедности.

Ключевые слова: *общественное развитие, концепция человеческого развития, семейное благополучие, здоровье, долголетие, материальное благополучие, солидный доход, духовное удовлетворение, репутация в обществе, безопасность, культурный отдых.*

In this article, the ultimate goal of development and the main criterion for its effectiveness are such ideas as empowering people, better satisfying their spiritual and material needs in accordance with natural, generally recognized values, achieving a higher standard of living. It is analyzed that it is incorrect to analyze the "Concept of Human Development" only on the basis of statistics of social criteria, such as education and health, gender development and poverty reduction indicators.

Key words: *social development, the concept of human development, family well-being, health, longevity, material well-being, solid income, spiritual satisfaction, reputation in society, security, cultural recreation.*



Ijtimoiy rivojlanishning butun tarixi davomida "jamiyat" kategoriyasiga turlicha konseptual yondashuvlarni kuzatish mumkin. Ijtimoiy, falsafiy, iqtisodiy nazariyalar ushbu tushunchaning turlicha talqinlarini taklif etadilar. Masalan, atomistik nazariya "jamiyat"ga shaxslar va ular o'rtasidagi munosabatlarning jamlanmasi sifatida qaraydi: "Oxir-oqibat butun jamiyatni shaxslararo hissiyotlar yoki ko'rsatmalarning nozik to'ri sifatida tasavvur etish mumkin. Har bir muayyan shaxsга uning o'zi tomonidan to'qilgan to'ming markazidan joy olib, ayrim odamlar bilan bevosita, butun jahon bilan esa bilvosita bog'liq holda ekanligi sifatida qaralishi mumkin" [1; 103-b.].

Mazkur qarashlar asosida, uzoq vaqt davomida dunyoda iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasi yakka hukmron bo'lib kelgan. Qisqacha aytganda, ushbu konsepsiyaning mohiyati nihoyatda sodda va tushunarli: iqtisodiyot va mehnat samaradorligining o'sish sur'ati yuqori bo'lgan, yalpi ichki mahsuloti (Bundan keyin matnda - YaIM) va aholi jon boshiga o'rtacha daromadi yuqori bo'lgan mamlakat farovon hisoblanadi. Bu konsepsiya sodda va tushunarli bo'lgani tufayli hamon odamlar tafakkuriga o'z ta'sirini o'tkazib kelmoqda. Ammo XXI asr bo'sag'asida iqtisodiy o'sishning o'zi asosiy maqsad emasligi ayon bo'lib qoldi. Jamiyatning daromadlari faqat vosita xolos: ular kam ta'minlangan aholi qatlamlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash dasturlariga ham, qurollanishga ham, maorifni rivojlantirishga ham, shuningdek halq farovonligiga ta'sir ko'rsatmaydigan loyihalarni amalga oshirishga ham sarflanishi mumkin. Shu sabab, turli mamlakatlardagi turmush sifati har doim ham o'rtacha daromad darajasiga mos kelavermaydi. Bundan tashqari, mamlakat YaIMi notekis taqsimlanishi ham mumkin. Xullas, YaIM darajasi ham, o'sish sur'ati ham taraqqiyot va muvaffaqiyatning asosiy mezonini bo'la olmaydi. Buni anglash yangicha yondashuvni - "Inson taraqqiyoti konsepsiyasi"ni shakllantirish imkonini berdi [2].

Mahbub ul-Haqning ta'kidlashicha, "Inson taraqqiyoti konsepsiyasi bugungi kunda eng yaxlit rivojlanish modeli hisoblanadi. U iqtisodiy o'sish, ijtimoiy investitsiyalar, odamlar imkoniyatlarini kengaytirish, asosiy ehtiyojlarni qondirish va ijtimoiy himoya tizimini tashkil etish, siyosiy va madaniy erkinliklar hamda inson hayoti barcha boshqa sohalarini qamrab oladigan rivojlanishning barcha masalalarini mujassamlashtirgan. U tor ma'nodagi texnokratik yoki haddan tashqari falsafiy konsepsiya emas. U hayotni aks ettiradi" [2; 137-b.].

Odamlar har doim shaxs va fuqaro sifatida o'z dunyoqarashlarini ifodalash imkoniyatiga ega bo'lishni, jamiyat hayotida ishtirok etishni, ularning huquq va erkinliklari hurmat qilinishini, fikrlari e'tiborga olinishini har doim qadrlab kelishgan va qadrlashadi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shu narsa e'tirof etildiki, inson taraqqiyotini baholash quyidagi prinsiplar va uchta komponentga asoslanishi kerak:



1. Farovonlik. Inson taraqqiyoti faqatgina ijtimoiy siyosat sohasi bilan cheklanadi deb o'ylash xato bo'ladi. Iqtisodiy rivojlanishsiz, iqtisodiy salohiyat potensialini ko'tarmasdan, odamlarning ehtiyojlarini qondirish, imkoniyatlarini kengaytirishga erishib bo'lmaydi. "Inson taraqqiyoti konsepsiyasi"ni faqat ta'lim va sog'liqni saqlash, gender rivojlanish va qashshoqlikka qarshi kurash ko'rsatkichlari kabi ijtimoiy mezonlar statistikasi asosida tahlil qilish noto'g'ri. Ushbu ma'lumotlar jamg'arish va investitsiyalar, ishlab chiqarish va iste'mol qilish, savdo va texnologiyalar kabi ko'rsatkichlarsiz inson taraqqiyoti haqida to'liq tasavvur hosil qilish imkonini bermaydi. Oxir oqibat, jamiyatning rivojlanishini uning samaradorligiga, ya'ni odamlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun resurslardan foydalanish optimalligiga ko'ra baholash lozim. Shu sababli inson taraqqiyotining bosh uch komponentidan bittasi farovonlik hisoblanadi. Insonning real erkinliklarini kengayishi uni ravnaq topishi bilan barqadam bo'lmog'i kerak. Bu esa, o'z navbatida, mehnat unumdorligini oshirishni, iqtisodiy o'sishni talab qiladi. Shuni e'tiborga olish kerakki, "Inson taraqqiyoti konsepsiyasi" nuqtai nazariga ko'ra iqtisodiy rivojlanish mafkurasi o'zgaradi. U endilikda yalpi, moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlarga erishishga qaratilmay, inson taraqqiyotining boshqa tamoyillari va komponentlari bilan uzviy birikishi kerak.

2. Huquqlar va imkoniyatlar kengayishi, agentlik. Inson taraqqiyoti darajasi rivojlanish masalalarini hal qilishda insonning o'zi qanchalik ishtirok etayotganligi bilan ham belgilanadi. Axir u rivojlanishning nafaqat ob'ekti, balki subyekti hamdir, nafaqat taraqqiyotning vositasi va omili, shu bilan birga uning maqsadi va harakatlantiruvchi kuchi hamdir. Shundan kelib chiqqan holda, A.K. Sen, odamlarning o'z taqdirларini o'zlari shakllantirish qobiliyatlari, ya'ni uning iborasiga ko'ra "agentlikni" ahamiyatini ta'kidlagan edi. Shuning uchun, alohida individlar hamda guruhlarining o'z manfaatlariga ko'ra va ijtimoiy taraqqiyot maqsadlariga qaratilgan harakatlari imkoniyatlarini kengaytirish inson taraqqiyotining ikkinchi komponenti sifatida tan olinadi. Bir tomondan bu insonlarni qarorlar qabul qilish jarayoniga jalb qilish, ularning siyosiy faolligi va jamiyatdagi rolini oshirishni bildiradi. Boshqa tomondan, imkoniyatlarni kengaytirish inson omili salohiyatini, bilimi, ko'nikmalari, jismoniy va aqliy qobiliyatlarini oshirishni anglatadi. Hozirgi kunda insoniy kapital, bilimlar iqtisodiy salmoqli tarzda iqtisodiy o'sish manbai bo'layotgani umumiy ravishda e'tirof etilmoqda. Insoniy kapitalga sarmoyalar kiritish eng rentabelli va samarador bo'lmoqda [4; 16-17-b.].

3. Adolat. Jamiyatning rivojlanishi darajasi imkoniyatlar tengligiga ya'ni ushbu jamiyatda aholining turli individlari va guruhlari o'rtasida huquq va majburiyatlar taqsimlanishi adolatligiga ko'ra baholanishi kerak. Imkoniyatlar tengligi – mavhum tushuncha emas. U aniq, real hamda huquqiy va iqtisodiy



ta'minlashni talab qiladi. Uning mohiyati shundaki, jamiyatda u yoki bu belgiga, shu jumladan jinsiga ko'ra, huquqiy va iqtisodiy kamsitish, ko'proq yoki kamroq imtiyozlarga ega etnik guruhlar, ekspluatatsiya qilinuvchi sinflar bo'lmashligi kerak. Nogironlarga tizimli yordam alohida e'tiborni talab etadi. Bunday adolatni o'rnatish omillari orasida qonunchilikda mustahkamlangan va amaliyotda qo'llaniladigan siyosiy huquqlar va erkinliklar, sog'liqni saqlash va ta'lim tizimlaridan foydalanish, mikromoliyalash tizimi orqali ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlashlar mavjud [3;17-b.].

O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasi loyihasida prognoz qilinganidek, 2030 yilga qadar mazkur reytingda 40-o'rinni egallash ko'zda tutilgan. BMT Taraqqiyot dasturining 2019 yil dekabr oyida e'lon qilingan hisobotida O'zbekiston ushbu indeks reytingida 108-o'rinni egalladi. Bu degani, yaqin 10 yilda respublika mazkur reytingda 108-o'rindan 40-o'ringa, ya'ni 68 pog'onaga ko'tarilishi kerak.

Umuman olganda, "Inson taraqqiyoti konsepsiyasi" – bu respublikamizda samarali va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ya'ni tadbirkorlarni imkoniyatlarini yanada kengaytirish, ularning iqtisodiy va siyosiy huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarish hamda shu yo'l orqali jamiyat ahlining ham ma'naviy, ham moddiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan "Ming yillikning rivojlanish"ni baholovchi muhim indikatordir. Mazkur indikator esa o'z navbatida, tadbirkorlik faoliyati subyektlarining o'zaro munosabatlari kontekstidagi mas'uliyatini ijtimoiy-psixologik mohiyatini tizimli tahlil qilishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Социология. Основы общей теории: Учебник для вузов / Отв. ред. Академик РАН Г.В. Осипов, действительный член РАЕН Л.Н. Москвичев. - Москва: Норма, 2003. - 912 с.

2. Инсон тараққиёти. Дарслик. И.ф.д., проф. Қ.Х. Абдурахмонов таҳрири остида. - Тошкент: Иқтисодиёт, 2013. - 542 б.

3. Ўзбекистон: Барқарор ижтимоий-иқтисодий ривожланишнинг ва инсон тараққиёти принципларини амалга оширишнинг парламент томонидан таъминланиши: Амалий қўлланма Ғ.И.Собиров, С.Сафаев, Ф.Отахонов, О.Оқилов, Ф.Ким, С.Сафаев, М.Тиллабаев. - Тошкент: Ўзбекистондаги БМТ Тараққиёт дастури, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати, 2011. - 122 б.



ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТРАДИЦИЙ ПРИРОДОСООБРАЗНОГО ВОСПИТАНИЯ В УСЛОВИЯХ ПОЛИЭТНИЧНОСТИ

Б.М.САИДОВ,

Термезский государственный университет

В статье говорится, что народная педагогика располагала многочисленными средствами, методами и приемами воспитания, подготовки подрастающего поколения к самостоятельной трудовой жизни. В воспитании детей широко использовались все жанры устного народного творчества. Сказки и легенды, оды и дастаны рассказывались с большим мастерством, с учетом уровня развития воображения, мышления, с использованием наглядных методов в сочетании с образным, выразительным языком.

Ключевые слова: духовное наследие, народной педагогики, сказки, легенды, оды, дастаны, природосообразное воспитание гуманизм, народность, патриотизм, географические, исторические, социально-экономические, регионально - локальные условия.

The article says that the people's pedagogy has disposed by numerous means, methods and methods of education, the preparation of the younger generation to independent labor life. In the raising of children, all genres of oral folk art were widely used. Fairy tales and legends, ODD and Dastans talked with great skill, taking into account the level of development of imagination, thinking, using visual methods in combination with a figurative, expressive language.

Key words: spiritual heritage, folk pedagogy, fairy tales, legends, odes, dastans, nature-like education, nationalism, patriotism, geographical, historical, socio-economic, regional conditions.

Узбекский народ имеет богатое духовное наследие, уходящее корнями в глубь веков Средней Азии и действительно, этот народ испокон веков имел громадную единую территорию, единый язык и единую национальную культуру, куда входили Хорезм, Бухара, Самарканд, Ферганская долина и Сурханский оазис. На этой земле жили и творили великие ученые-энциклопедисты Востока Абу Али Ибн Сина (Авиценна), Аль Хорезми, Абу Райхан Беруни, Аль Фаргани, Алишер Навои, АмирТимур, Улутбек, Бабур, аль Хаким ат -Термези.

Богат узбекский фольклор: в нем сконцентрированы все оттенки и нюансы народной педагогики и народной психологии. Нашествия арабов, монголов, джунгар, длившиеся много веков, значительно повлияли на развитие цивилизации Средней Азии. Несмотря на варварское нашествие Чин-



гисхана тюркский народ сохранил самобытную культуру, язык, почти не подвергая его деформации.

В соответствии со своеобразными особенностями социально-экономических, культурно-исторических, природно-климатических условий у тюркских народов, в частности, у узбеков сложились свои требования к обучению и воспитанию детей и молодежи. Народная педагогика располагала многочисленными средствами, методами и приемами воспитания, подготовки подрастающего поколения к самостоятельной трудовой жизни. В воспитании детей широко использовались все жанры устного народного творчества. Сказки и легенды, оды и дастаны рассказывались с большим мастерством, с учетом уровня развития воображения, мышления, с использованием наглядных методов в сочетании с образным, выразительным языком. В арсенале народной педагогики имелись своеобразные средства и приемы воспитания - благословение, клятва, песенные состязания и др.

Народная педагогика является главным источником педагогической науки. Еще классики педагогики до нашей эры Сократ, Платон, Аристотель педагоги-классики, такие как Я.А.Коменский, И.Г.Песталоцци, А. Дистервег, К.Д. Ушинский, В.А. Сухомлинский, Сен-Симон, Джон Локк и другие впервые обосновали принцип природосообразности воспитания, проникнутый духом гуманизма, народности, патриотизма, который является величайшим вкладом в развитие подлинно научного учения о воспитании.

Исследования многих ученых доказывают, что воспитание детей невозможно рассматривать вне реальных процессов жизни и быта народа, географических, исторических, социально-экономических, регионально - локальных условий, определяющих своеобразие, как средство воспитания, так и особенности организации процесса воспитания учащихся.

Возникновение объективного противоречия между необходимостью в природосообразном воспитании учащихся средствами народной педагогики и недостаточной обоснованностью педагогических условий, путей и средств организации этого процесса наблюдается как в учебной, так и внешкольной формах школах Узбекистана, к которым можно отнести такие задачи :

1. Определить и изучить историко-теоретический анализ различных подходов к раскрытию содержания принципа природосообразности.
2. Теоретически обосновать специфику природосообразную значимость узбекской народной педагогики.



3. Осуществление педагогических условий и возможности учебно - воспитательного процесса, разработать модель природосообразного воспитания узбекских школьников.

4. Разработать содержание, формы и методы природосообразного воспитания узбекских школьников.

5. Определить критерии и уровни природосообразного воспитания учащихся средствами народной педагогики в узбекских школах Республики Узбекистан.

В исследовании использованы такие методы как анализ, синтез, индукция, дедукция, обобщение философской и психолого-педагогической литературы, беседа, анкетирование, опрос, наблюдение, рефлексивный анализ наблюдаемых явлений, изучение школьной документации, изучение опыта народного воспитания, педагогический эксперимент, анализ результатов опытно-экспериментальной деятельности, количественный и качественный анализ, а также методы статистической и графической обработки экспериментальных данных, они состоят из следующих:

1. Выявление сущности природосообразной значимости узбекской народной педагогики, определение индикатора обеспечения продуктивности, ориентированной на полях и исследование, непосредственно и косвенно связанного с пониманием профессиональных творческих задач процесса формирования методологической культуры у будущих учителей и развитие системы природосообразного воспитания в обществе;

2. Определение педагогико-психологических особенностей формирования педагогики в природосообразном воспитании учащихся, раскрытие механизмов профессионального саморазвития к минимализации уровня воздействия объективных и субъективных рисков по усвоению методической рефлексии и эмоционально-ценностного отношения системы природосообразного воспитания в народной педагогической школе Узбекистана;

3. Определение и обоснование критериев и уровня природосообразной воспитанности учащихся, разработка модели природосообразного воспитания учащихся узбекских школ на основе инновационного мышления и формирования методологической системы природосообразного воспитания учащихся средствами народной педагогики и её практико- ориентированное обеспечение;

4. Разработана рефлексивная технология развития природосообразности учащихся на основе формирования эмоционально-образных интеллектуально-



творческих, рефлексивных навыков и обеспечение информационно-когнитивных, операционно-функциональных компонентов, определение и обоснование критериев уровня природосообразной воспитанности учащихся, раскрытие возможности использования средств народной педагогики в природосообразном воспитании учащихся узбекских школ. По результатам исследования выявлено: разработка диагностических средств по определению уровня развитости система природосообразности воспитания учащихся; разработка программы кружковых занятий, что такое природосообразное воспитание среди учащихся и "крутлый стол" для учителей; разработка комплекса рефлексивной техники и методов развития системы природосообразного воспитания учащихся; издание методического пособия "О природосообразном воспитании учащихся".

Подводя итог можно сказать, что научная значимость результатов исследования определяется вооружением учащихся знаниями о сущности природосообразного воспитания и на этой основе развивать их творческое мышление; сформировать способность принять учащимися природосообразного воспитания школьников средствами народной педагогики, к которому относятся: творческая инициатива, энтузиазм, надёжность, бережное отношение к природным богатствам. Обоснование целостного процесса природосообразного воспитания школьников средствами народной педагогики, где ведущая роль отводится деятельности, ориентированной на предметный продуктивный результат и формирование социального опыта воспитанников, организуемой в соответствии с природой ребенка во взаимосвязи с социокультурными процессами, учетом регионально-этнических особенностей, гармоническим взаимоотношением человека с природой, а содержащиеся в нем теоретические положения и выводы, а также методические рекомендации по организации природосообразного воспитания способствуют совершенствованию воспитательного процесса в национальной школе; материалы данного исследования могут быть использованы учителями, руководителями общеобразовательных школ; преподавателями педвузов; студентами педагогических колледжей и вузов.

Литература:

1. Виноградова Н.Д. Принцип природосообразности в свете междисциплинарных исследований//Методологические проблемы междисциплинарных исследований в образовании. - М.:ИТП и МИО РАО, 1994. - 0,35 п.л. (Деп. ОЦНИ "Школа и педагогика" ИТП и МИО РАО).
2. Коменский Я.А. Антология гуманной педагогики. - М., 1996.
3. Кумарин В.В. Педагогика природосообразности и реформа школы. - М.: Народное образование, 2004. - 624 с.



O'QITUVCHI-TARBIYACHILARNING KASBIY VAZIFALARI VA PEDAGOGIK FAOLIYATI KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

D.M.ELMURATOVA,
GulDU, p.f.f.d(PhD)
S.I.HABIBULLAYEVA,
GulDU magistri

Bolalarni tarbiyalash jarayonida tadqiqotchilik yanada ko'proq ahamiyat kasb etadi. Tarbiyachi bolalar hulq-atvorlari omilini to'plash va tahlil qilishni, ularning sabab va oqibatlarini ko'rishni, pedagogik ta'sir ko'rsatish vositalari, ularning bolalar jamoasi va har bir bolaga alohida samaradorligini taxlil qilish, asosli xulosalar chiqarish va shu kabilarni bilishi kerak. Bu vazifalarning amalga oshirilishi pedagog faoliyati uchun zarur bilimlarni jamg'arilishiga yo'llangan.

Kalit so'zlar: ko'rgazmali-amaliy, ko'rgazmali, og'zaki va boshqa metodlar, o'quvchi tarbiyalanuvchilarni faollashtirish, o'qituvchi, tarbiyachining bolalarga munosabati, bolalar jamoasini faoliyati.

In the process of raising children, research becomes even more important. The educator needs to know how to collect and analyze the behavioral factor of children, see their causes and consequences, analyze the means of pedagogical influence, their effectiveness for the children's team and each child individually, draw reasonable conclusions, and so on. The implementation of these tasks is aimed at the accumulation of knowledge necessary for pedagogical activity.

Key words: demonstration-practical, demonstrative, oral and other methods, activation of students, teacher, educator's attitude to children, children's community activities.

Rivojlantiruvchi vazifa o'sib kelayotgan avlodga bilim, ko'nikma va malakalarni berishni ta'minlovchi axborot vazifasida ham aks etadi. Bu vazifa quyidagi bir qator pedagogik ko'nikmalar: ifodali nutq vositalaridan foydalanish, materialni aniq mantiqiy, qisqa bayon qilish va tushunilishiga erishish; turli bayon qilish metodlari (ko'rgazmali-amaliy, ko'rgazmali, og'zaki va boshqalar; ta'limning texnika vositalaridan samarali foydalanish)ni qo'llash; materialni qismlarga ajratish, savollar qo'yish; materialni egallash jarayonida o'quvchi tarbiyalanuvchilarni faollashtirish va shu kabi ko'nikmalarni talab qiladi.

Shunday qilib, pedagog faoliyatining rivojlantiruvchi vazifasi zarur bilim va malakalarni to'plash, bolalar tomonidan amaliy faoliyat jarayonida zarur bilim, malakalarning egallanishiga yo'llangan axborot berish hamda undovchi vazifalarni amalga oshirish ko'nikmalarini talab qiladi. Rivojlantiruvchi vazifa boshqalarini yanada mustahkamlaydi.

II. Konstruktiv tashkilotchilik vazifasi tarbiyachilik jarayonini tashkil etishga yo'llangan. Bu vazifani bajarish uchun pedagog bir qator ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.



1) har bir dars (mashg'ulot) uchun material tanlash, uni murakkablashtirish va oldingi hamda keyingilar bilan aloqalarini ta'minlashni nazarda tutish, dars, o'yin, mashg'ulot, mehnat topshiriqlari va shu kabilarni bolalarning yosh imkoniyatlari, ulami tarbiyalash va rivojlantirish istiqbollarini hisobga olib egallash sistemasini aniqlash;

2) pedagoglik jarayonni bolalar jamoasi va alohida bolalar bilan ishlashni qamrab olib, ta'limiy – tarbiyaviy vositalar majmuidan foydalanib rejalashtirish;

3) bolalar jamoasini faoliyatning har hil turlarida qatnashish uchun uyushtirish, hamkorlikdagi faoliyat jarayonida har bir bolaning ma'naviy qiyofasini shakllantirish, bolalarning mustaqil va bevosita pedagog rahbarligi ostida amalga oshiriladigan faoliyatlarini tashkil etish, jamoa va alohida bola faoliyatiga raxbarlik qilish;

4) bolalarning turli yosh guruhlarida kun tartibining bajarilishini, bir kun tartibidan boshqasiga o'tishni tashkil etash, bolalarni kun tartibini bajarish jarayonida tarbiyalash (ko'nikmalarning bu guruhi bolalar bog'chalarining tarbiyachilari, boshlangich sinflar o'qituvchilar, kuni uzaytirilgan maktab va sinflar, internetlarda ishlovchi pedagog va boshqalar uchun muhimdir);

5) mazmuni (o'quv, o'yin, mehnat) faoliyati, shuningdek, bolalarning hayot faoliyatlari uchun muhit yaratish, muhitdan bola shaxsini tarbiyalash vositasi sifatida foydalanish;

6) o'z ish o'rmini tashkil etish, zarur qo'llanma va hujjatlarni tayyorlash (to'plash) ularni berilgan talablar asosida yuritish va shu kabilar.

Pedagog (bolalar bog'chasining tarbiyachisi, o'qituvchi) ning g'oyaviy e'tiqodi uning shaxsiy asosini tashkil qiladi, bola shaxsining yo'llanganligini shakllantiradi. Bolalar bog'chasi tarbiyachisi, o'qituvchi faoliyatining o'zi doimo ma'naviy natijaga ega: bilim, bolalarning ma'naviy qiyofasi, ularning e'tiqodi, dunyoqarashi – bularning barchasi pedagog shaxsining g'oyaviy yo'nalganligi bilan belgilanadi.

O'qituvchi va tarbiyachining g'oyaviy e'tiqodi uning shaxsi ma'naviy sifatleri bilan uzviy bog'langan.

Bilimdonlik tarbiyachi pedagog uchun shart bo'lgan fazilat. Uning vazifasi o'sib kelayotgan avlodga insoniyat jamg'argan ilmiy bilimlarni ochib berishdir. O'qituvchi fan va bilimlar yangi jamiyat qurish quroli ekanligini, shu bois xalqqa taaluqli bo'lishi lozimligini chuqur anglaga bo'lishi kerak. Shuning uchun u ilmiy bilimlarni o'sib kelayotgan avlodga va keng mehnatkashlar ommasiga berishga, ijtimoiy g'oyalar, ahloqiy normalar va shu kabilarni yetkazishga tayyor bo'lishi kerak.

Ta'lim-tarbiyaviy vazifalarni muvaffaqiyatli hal etilishini ta'minlash-bolalarga bilim berish, ijtimoiy g'oya va ma'naviy me'yorlarni ochib berish uchun pedagog ularning rivojlanish xususiyatlarini bilishi kerak. Bu bilimlar o'qituvchi va tarbiyachi bilimdonligining maxsus jixatlaridandir. Ammo bu bilimlarning quruk o'zi bilan agarda pedagog o'qituvchi yoki bolalar bog'chasining tarbiyachisi muayyan fazilatlarga ega bulmasa, muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. Ana shunday sifatlarining asosiylaridan biri bolalarni sevishdir. Bolalarni sevish pedagogning murakkab



mehnatini jozibali va yengil qiladi. O'qituvchi, tarbiyachining bolalarga munosabati pedagogikada tarbiyalanuvchi shaxsiga hurmat, unga talabchanlik bilan bir qatorda turadi. Bu munosabat bolada pedagogga nisbatan ishonchni uyg'otadi, o'qituvchiga bolaning chinakam ma'naviy murabbiysi bo'lishiga imkon beradi.

Tarbiyachi faoliyatining mohiyati bolalar bilan ko'tarinki ruhda aqlqani o'matishdangina iborat bo'lmay, balki o'zaro munosabatlarga, harakatlarning tabiatiga, shaxsning yo'llanganligiga faol ta'sir ko'rsata olishida hamdir. Sifatlarning bu ikkinchi guruxi pedagog dinamizmi nomini olgan bo'lib, yuzaga kelayotgan har qanday vaziyatlardan bolalarni tarbiyalash va rivojlantirishda foydalanish. Vaziyatdagi o'zgarishlarni anglash va unga ko'ra emotsional-iroda ta'siri pedagogning jaxli, ishonitirishning mantiqiyiligi, talabchanlik va yumomi his qila bilishi, qarorlarni qabul qilishdagi tashabbuskorligi va mustaqilligi, kashfiyotchiligi va tashabbuskorligi bilan ifodalanadigan pedagogik ta'sirni qo'llay bilishida namoyon bo'ladi. Pedagog shaxsining dinamizmi pedagogik ta'sir ko'rsatishning bevosita va bilvosita usullarini biriktira bilishida yuzaga keladi.

Sifatlarning uchinchi guruhi pedagogning ko'tarinki ruhi barqarorligiga daxldor. Pedagog kishining ijodiy tabiati kutilmagan vaziyatlarda shoshilinch to'g'ri yechimga kelish zaruriyati bilan biriktiriladi. Yuzaga keladigan salbiy his to'yg'ularga qarshi tura bilish, optimistik kayfiyat, o'zini tuta bilish va sabr-toqatlilik, quvnoqlikning ustlinligi bu sifatlar – pedagog ishi samaradorligining kafolatidir.

Pedagog shaxsining barcha kasbga oid ahamiyatli sifatlati uning pedagogik muloqot uslubida, bolalar jamoasida, bolalar va ota-onalar, maktabgacha ta'lim muassasasi pedagoglar jamoasida ko'tarinki ijobiy muhitni yarata bilishda namoyon bo'ladi. Bolani shakllantirish pedagog shaxsiga oid sifatlarning qay darajada yuqori bo'lishiga asoslanadi.

Tarbiyachi faoliyatining muvaqqiyati unda pedagogik qobiliyatlarining mavjudligiga bog'liqdir. Pedagogik qobiliyatlar – pedagogik mahoratga erishishning zaminidir. Pedagogik qobiliyatlar tarkibiga pedagogik kuzatuvchanlik, pedagogik tasavvur, diqqatni taqsimlash, tashkilotchilik qobiliyati va pedagogik muomalani kiritish mumkin. Pedagogik qobiliyatlar pedagog faoliyati davomida, shuningdek, uni bu faoliyatga tayyorlanish jarayonida shakllanadi.

III. Diagnostik vazifa. Ta'lim-tarbiyaviy ish strategiyasi va taktikasini to'g'ri aniqlash maqsadida tarbiyalanuvchilar holati hamda pedagogik jarayonining holatini aniqlashga yo'llangan. U dastlabki ikki vazifa bilan uzviy bog'langandir, chunki unda tadqiqot vazifasining elementlari, pedagogik jarayonni uyushtirish ko'nikmalari mavjud.

Bu vazifalarni bajarish jarayonida pedagog, o'qituvchi, tarbiyachida: pedagogik kuzatuvchanlik-oddiy hodisa va belgilardan bolalar jamoasi va har bola shaxsidagi rivojlanishga moyillikni ko'rish, uning ehtiyoj, qiziqish, holatlarini tushunish, zarur choralarni o'z vaqtida ko'rish; uning faolligiga erisha borib metodlarni, faoliyatni tashkil etishni bola nuktai nazarini o'zgartirish va shu kabilar; diqqatni bo'lish - har bir bolani jamoada ko'ra bilish, qiynalgan holatida yordamga



kelish; odatiy xatolarni ko'ra bilish, umumiy ko'rsatma va ishning yakka tartibdagi shakllaridan foydalanish va shu kabi pedagogik qobiliyatlari shakllanadi. Bu qobiliyatning yuksak darajada rivojlanganligi – muvaffaqiyatli pedagogik faoliyatning muhim zamini bo'lib hisoblanadi.

IV. Pedagogning muvofiqlashtiruvchi vazifasi ijtimoiy (bolalar bog'chasi va maktabda – darslardagi ta'lim-tarbiya, to'garak ishi, va oilaviy tarbiya tizimida amalga oshiriladigan bolaga pedagogik ta'sir ko'rsatishning mazmun hamda yo'nalishini birlashtirish va muvofiqlashtirishga yo'llanadi).

Bu vazifalarning amalga oshirilishi qo'yidagilarni:

1) hamkasblar va oilalar bilan ishga oid aloqalarni o'rnatish, oilada, pedagoglar va o'quvchilar o'rtasida yuzaga kelgan munosabatlarni, ularning bolalarga ko'rsatayotgan ta'sirini tahlil qilishni;

2) ota-onalarga maktabgacha ta'lim muassasasida va maktabda boshlangan ishni davom ettirishni o'rgatish o'rgatish; ularga ijtimoiy tarbiyaning bolada insoniy xislatlar, g'oyaviy e'tiqod, mehnatsevarlikni tarbiyalash, uni estetik va jismoniy rivojlantirish maqsadlarida uning shaxsini shakllantirishga yo'llangan mazmun va metodlarini tushuntirishni;

3) oilaviy tarbiyaning ijobiy tomonlarini ko'rish va tushunish, ulardan bolalar bog'chasi va maktabda foydalanishni;

4) ota-onalarni bolalar bog'chasi va maktab ishida faol qatnashishga undash ko'nikmalarini talab qiladi.

Bu vazifalarning amalga oshirilishi tarbiyachi pedagogda bolalarga nisbatan g'amhur munosabatni, ularga muhabbatni, har bir bolaga e'tibor hamda mehmi tarbiyalaydi. Bolalikning ilk va maktabgacha yoshdagi bo'lgan davrida har bir bola alohida muloyimlik, e'tibor, iliq muloqotga mayil bo'ladi- bu uning me'yorda rivojlanishi uchun zarur sharoitdir. Shunga ko'ra tarbiyachilarda bolalarga nisbatan muloyimlik, e'tiborlilik, qat'iyat, sabr-toqat, osoyishtalik, hazilni seza bilish, bolaning o'sayotgan kuchi va imkoniyatlari ishonchni bildirish sifatidagi optimizmni qamrab oluvchi alohida muloqot uslubi bo'lishi kerak. Bir-birlariga hamdard bo'lishlik tarbiyachi va bolalarning o'zaro mehrlarini yuzaga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zunnunov A., Tolipov O'. Milliy qadriyatlar asosida o'quvchi shaxsini shakllantirish. - Toshkent: Sharq, 2006. - 94 b.

2. Korneev V.V., Garev A.F. i dr. Bazi dannix. Intellektualnaya obrabotka informatsii. - M.: "Noliddj", 2000. -490 s.

3. Gaskarov, D.V. Intellektualnye informatsionnye sistemy: Uchebnik dlya vuzov. -M.: VSH, 2005. - 432 c.



UZLUKSIZ TA'LIM JARAYONIDA PROFESSIONAL TAYYORGARLIKNI TASHXISLASH VA MONITORING QILISHGA QO'YILADIGAN IJTIMOYIY-PEDAGOGIK TALABLAR

F.O.XUSANOV,

O'zPFITI tayanch doktoranti

Ushbu maqola bo'lajak o'qituvchilar professional tayyorgarligini tashxislash va monitoring qilishga qo'yiladigan ijtimoiy-pedagogik talablar tahliliga bag'ishlangan bo'lib, unda professional tayyorgarlikka oid turli nazariy-metodologik yondashuvlar, pedagoglarning fikrlari keltirilgan.

Tayanch so'z va iboralar: bo'lajak o'qituvchi, professional tayyorgarlik, ijtimoiy-pedagogik talablar, pedagogik tashxislash, pedagogik monitoring, pragmatik komponent, qadriyatli munosabat, pedagogik shart-sharoitlar, kasbiy layoqat, kasbiy motivatsiya.

Данная статья посвящена анализу социально-педагогических требований к диагностике и мониторингу профессиональной подготовки будущих учителей, в которой представлены различные теоретико-методические подходы к профессиональной подготовке, взгляды педагогов.

Ключевые слова: будущий учитель, профессиональная подготовка, социально-педагогические требования, педагогическая диагностика, педагогический мониторинг, прагматическая составляющая, ценностное отношение, педагогические условия, профессиональная компетентность, профессиональная мотивация.

This article is devoted to the analysis of socio-pedagogical requirements for the diagnosis and monitoring of professional training of future teachers, which presents various theoretical and methodological approaches to professional training, the views of teachers.

Key words: future teacher, professional training, socio-pedagogical requirements, pedagogical diagnosis, pedagogical monitoring, pragmatic component, value attitude, pedagogical conditions, professional competence, professional motivation.

Professional tayyorgarlikka oid nazariy-metodologik yondashuvlarni o'rganish bo'lajak o'qituvchining o'zgarishlarga qobiliyatligi, pedagogik mahoratining o'sishi va uning shaxsiy rivojlanishi uchun samarali faoliyat yuritishidagi mobillik mazkur hodisaning pragmatik komponentini ilmiy anglashga ko'maklashdi. Bugungi kunda jamiyatning o'zi mobillikning zaruratini ko'rsatadi va professionallikning modernizatsiyalashgan idealiga doimiy muvofiqlikni talab etadi. Ta'limdagi o'zgarishlarga ma'naviy-psixologik jihatdan tayyorlik pedagogning muhim shaxsiy tavsifi hisoblanadi.



Mavjud tarixiy va ilmiy yondashuvlarni umumlashtirish natijasida bo'lajak o'qituvchilarning professional tayyorgarligiga qo'yilayotgan ijtimoiy-pedagogik talablarni quyidagicha belgiladik:

1. Bo'lajak o'qituvchining professional tayyorgarligi bilan bog'liq shaxsiy-kasbiy sifatlarini boyitish.

2. Bo'lajak o'qituvchining professional tayyorgarligi haqidagi ijtimoiy buyurtma va bilimlarini o'quv dasturlari mazmuniga singdirish.

3. Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik jarayonni tashkil etish uchun zarur bo'ladigan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni hosil qilish.

4. Bo'lajak o'qituvchining professional tayyorgarligini yangi sifat bosqichiga ko'tarish.

5. Oliy pedagogik ta'lim jarayoniga ilg'or xorijiy tajribalarni olib kirish orqali bo'lajak o'qituvchilarning professional tayyorgarligi darajasini oshirish kabilar.

Bo'lajak o'qituvchi timsolini modellashtirishda quyidagi sifatlar uyg'unlashtiriladi: professionallik, ma'naviyatlilik, axloqiylik. Bu uchta o'zaro uyg'un hodisa bilimli shaxs yoki mutaxassis haqida tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Bunday shaxs o'zining kasbiy shakllanish yo'liga ega.

Professionallik haqida so'z borar ekan, unga nisbatan yondashuvlarni aniqlashga harakat qildik. O'qituvchining kasbiy mahorati uchta tarkibiy qismni o'zida mujassamlashtiradi: umummadaniy, psixologik-pedagogik, predmetli-texnologik. O'qituvchining kasbiy mahorati uning o'z faoliyatiga nisbatan yuqori darajadagi qadriyatli munosabatining ifodalanishidir.

Olimlar o'qituvchi kasbiy mahoratining quyidagi tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatganlar: kasbiy layoqatlilik, kasbiy ijodkorlik, kasbiy ko'nikmalar, kasbiy mahorat.

Aksariyat olimlar bo'lajak o'qituvchi xarakterining o'ziga xos jihatlari sifatida o'quvchilar bilan ishlash istagi va ko'nikmasiga egalik, xushmuomalalilik, nazokatlilik, ular bilan munosabatda bardoshlilik; axloqiy-irodaviy sifatlar, faol va har tomonlama ijtimoiy-madaniy faoliyatga ehtiyojmandlik, refleksiya, fuqarolik mas'uliyati, o'quvchilarga muhabbat, mustaqil bilim olishga ehtiyojmandlik va unga tayyor bo'lish, ruhiy va jismoniy salomatlik, o'quvchilarning mustaqil rivojlanishida erkinliklarini tushunish, estetik didga ega bo'lish, sezgirlik zarurligini e'tirof etganlar.

I.A.Kolesnikova[6]ning fikricha, kasbiy mahorat sohibi bo'lgan o'qituvchi qat'iy axloqiy nuqtai nazarga ega bo'lishi kerak.



Bu kabi yondashuvlar asosida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash va kasbiy sifatlarini rivojlantirishning pedagogik, psixologik hamda falsafiy jihatlarini tavsiflangan. Bo'lajak o'qituvchining professional tayyorgarligining ma'naviy-axloqiy holatiga xos bo'lgan bir qator ko'rsatkichlar aniqlangan: shaxsiy layoqatlarini rivojlantirishga intilish; o'ziga xos jihatlarini namoyon qilishga intilish; obyektiv baholash layoqatiga ega bo'lish; o'z taqdiri uchun mas'uliyatli munosabatda bo'lish; ijodiy tafakkurga egalik; nazorat qilish layoqatiga egalik kabilar.

Bo'lajak o'qituvchilarning professional tayyorgarligiga qo'yilayotgan talablarning dastlabki qismi mutaxassisning kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy-kasbiy sifatlarini majmuini ifodalaydi. Bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy-kasbiy sifatlariga quyidagi talablar qo'yiladi:

- jismonan va ruhan sog'lom bo'lishlari;
- keng dunyoqarash va chuqur fundamental bilimlarni egallashlari;
- o'zlari tanlagan kasbiy faoliyatga hurmat bilan qarashlari;
- ijodiy fikrlash, ijodiy faoliyat ko'rsatish va ijodkorlik layoqatiga ega bo'lishlari;
- ta'lim oluvchi shaxsiga nisbatan qadriyatli munosabatda bo'lishlari;
- yangi o'quv materiallari mazmunini tushuntirib bera olish ko'nikmasini egallashlari;
- ta'lim oluvchilarning his-tuyg'ularini tushuna olishlari, ijobiy his-tuyg'uga ega bo'lishlari;
- insonparvar, adolatli, sabr-bardoshli bo'lishlari;
- o'quv jarayonini demokratiya prinsipi asosida tashkil etish va boshqarish ko'nikmasiga ega bo'lishlari;
- o'z xulq-atvorlari, xatti-harakatlari va hissiyotlarini nazorat qila olishlari;
- kuzatuvchan, e'tiqodli, ijtimoiy faol shaxs bo'lishlari;
- ta'lim natijalarini aniq tashxislash va baholash ko'nikmalariga ega bo'lishlari lozim.

Talabalar bo'lajak o'qituvchi sifatida shaxsning rivojlanish qonuniyatlari, psixologiya, xususan, yosh davrlarining pedagogik-psixologik asoslarini bilishlari, turli yosh davrlarida ta'lim oluvchi shaxsining rivojlanish qonuniyatlari haqida ma'lumotga ega bo'lishlari, shuningdek, o'zlashtirilayotgan bilimlarning shaxs sifatlarini rivojlanishidagi ahamiyatini tushunishlari hamda anglab yetishlari lozim.

Bo'lajak o'qituvchilarni professional tayyorgarligiga qo'yilayotgan talablarning uchinchi tarkibiy qismini pedagogik jarayonni tashkil etish va uning



natijalarini tashxislash hamda monitoring qilish uchun zarur bo'ladigan bilim, ko'nikma va malakalar tashkil etadi.

Bo'lajak o'qituvchi kelgusidagi pedagogik faoliyatida ta'lim oluvchilar bilan samarali muloqotga kirisha olishi kerak. Agar bo'lajak o'qituvchi o'z ko'nikmalarini ijodiy tarzda namoyon qilish jarayonida o'zining professional rivojlanishidagi muammolarini yecha olsa, o'quv jarayonini muntazam monitoring qila olish kompetensiyasiga ega bo'ladi.

Bo'lajak o'qituvchilar istiqboldagi amaliy faoliyatlarida uchraydigan muammolar, kasbiy vazifalarni yechishga xizmat qiladigan bilim va tajribalarga ega bo'lmasa, ta'lim natijasi sifati va samaradorligini ta'minlay olmaydilar. Bo'lajak o'qituvchilarning professional tayyorgarligi shaxsiy-kasbiy tajribalarning tarkib topishi va boyitilishi hamda ta'lim oluvchilarning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq holda amalga oshadi. Bunda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy layoqatlarini rivojlantirishga oid topshiriqlarni muvaffaqiyatli yechishi hamda o'z faoliyatining nazariy-amaliy asoslarini faol tarzda o'zlashtirishi muhim ahamiyatga ega.

Oliy ta'lim muassasasida bo'lajak o'qituvchi shaxsiy-kasbiy jihatdan o'zini anglaydi, faoliyatining jamiyat hayoti uchun ahamiyatli jihatlarni tushunib yetadi. Bo'lajak o'qituvchining professional tayyorgarligida ta'lim oluvchilarga nisbatan insonparvarona munosabatda bo'lishi va o'quv jarayoni sifati va samaradorligini ta'minlash sohasidagi bilimlarni o'zlashtirishi alohida ahamiyatga ega. Shu tariqa u professional jihatdan o'zligini anglash darajasiga ko'tariladi.

Bo'lajak o'qituvchi oliy ta'lim jarayonida kelgusidagi professional faoliyatining o'ziga xos jihatlarni o'zlashtiradi. Shaxs faoliyatini rivojlantirish nazariyasiga asoslangan holda bo'lajak o'qituvchining shaxsiy-kasbiy taraqqiyotiga mutaxassisning professional takomillashuv jarayoni sifatida yondashish lozim.

Bo'lajak o'qituvchilarning professional tayyorgarligini pedagogik monitoring qilishda pedagogik shart-sharoitlar sifatida quyidagilar nazarda tutiladi.

Birinchidan, ta'lim jarayonini demokratlashtirish. Ko'p hollarda talabalar pedagogik jarayonni tashkil etishda qatnashmaganligi, o'rganilayotgan materialni ahamiyatini tushunib yetmaganligi uchun tanlagan kasbiga nisbatan qiziqishini yo'qotadilar va bor imkoniyatlarini ishga to'la solmagan holda o'qiydilar.

Ikkinchidan, pedagogik jarayonni insonparvarlashtirish. Bunga asos bo'lib psixologlar, gumanistik qarashga ega bo'lgan pedagog olimlarning ishlari xizmat qildi. Insonparvarlik deyilganda o'qituvchi va ta'lim oluvchilar o'rtasidagi



munosabatni shaxsga yo'naltirilgan ruhda bo'lishi bo'yicha psixologik-pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish tushuniladi. Professional tayyorgarlikning asosiy maqsadlari sifatida shaxsning quyidagi xususiyatlari ko'rsatib o'tildi: boshqalar bilan munosabatini belgilovchi; ijobiy Men-konpepsiyasini aniqlovchi; qonun-qoidalarga bo'ysunishini belgilovchi ("Men" ustidagi kuch, javobgarlik va boshqalar). Insonparvarlik deyilganda nafaqat bola shaxsi, balki pedagog shaxsining gumanistik xususiyatlarini rivojlantirish ham tushuniladi.

Uchinchidan, bo'lajak o'qituvchining ijtimoiy malakasini rivojlantirish. Pedagogik jarayonlarni tashkil etishda ta'lim oluvchilar bilan ijtimoiy munosabat o'rnatishga oid bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirish lozim. Bu borada psixologik ta'minlanganlik ham nazariy, ham amaliy ham hayotiy bo'lishi lozim.

Bo'lajak o'qituvchi o'zligidan voz kecha olishi, qo'rquvlarni yengishi, manmanlikka berilmasligi, boshqalar fikrini tinglay olishi kerak. Ular bilim olishga intilishlari, o'z bilimlarini kengaytirishlari lozim. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, yuksak kasbiy mahoratga ega bo'lgan o'qituvchi qat'iy barqaror nuqtai nazarga ega bo'lib, o'quvchilarning ma'naviy rivojlanishlarida alohida o'rin tutishlari lozim. Bunday intilish asosida uning ichki xulq-atvori namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan manbalar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 октябрдаги ПФ-6097-сон Фармонида 1-ИЛЮВА. Илм-фанни 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси. <https://lex.uz/docs/5073447>

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сон Фармонида 1-ИЛЮВА. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси. <https://lex.uz/docs/4545884>.

3. Турғунов С.Т. ва б. Ўқитувчиларнинг касбий маҳорат ва компетентлигини ривожлантириш FF T.: "Sano-Standart", 2012. - 172 б. 19-б.

4. Редько Л.Л. Проектирование интегративного образовательного пространства педагогического вуза: монография / "Ставропольский гос. пед. ин-т". - Ставрополь : Ставропольский гос. пед. ин-т, 2010. - 281 с.



BIOLOGIYANI O'QITISHDA O'QUVCHILARNING IJODIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

S.R.ABDURIZAYEVA,
O'zPFITI tayanch doktoranti

Ta'lim tarbiya jarayonida ijodiy muhitni yaratish o'qitish tizimining dolzarb muammosi sanaladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida vujudga keltirilgan ijodiy muhit o'quvchilarning ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojiga zamin tayyorlaydi. Maqolada biologiyadan tashkil etiladigan laboratoriya va amaliy mashg'ulotda ijodiy muhitni innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali shakllantirish metodikasi yoritilgan.

Tayanch so'zlar: *Ijodiy muhit, ijodiy fikrlash ko'nikmalari, innovatsion texnologiyalar, laboratoriya va amaliy mashg'ulot, inson kapitali.*

Создания творческой среды является актуальной проблемы в системе обучения биологии. Творческая среда образовательно-воспитательного процесса способствует развития умений творческого мышления учащихся. В статье рассматривается методика создания творческой среды с применением инновационной технологии в процессе проведения лабораторных и практических занятий.

Ключевые слова: *Творческая среда, навыки творческого мышления, инновационные технологии, лабораторно-практические занятия, человеческий капитал.*

Creation of a creative environment is an actual problem in the system of teaching biology. The creative environment of the educational process contributes to the development of students' creative thinking skills. The article discusses the methodology for creating a creative environment using innovative technology in the process of conducting laboratory and practical classes.

Key words: *Creative environment, creative thinking skills, innovative technologies, laboratory and practical classes, human capital.*

Ta'lim tizimida joriy etilayotgan 3-Renesans o'qitish jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali ijodiy muhitni yaratish, o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish, tabaqalashtirish va individuallashtirish asnosida inson kapitalini shakllantirishga e'tibor qaratish lozimligini ko'rsatmoqda. (1)

Biologiyani o'qitishda o'quvchilarda bilim, ko'nikma, malakalar, tayanch va fanga oid xususiy kompetensiyalar vositasida ularning kelgusi mustaqil hayot va kasbiy faoliyatda vujudga keladigan muammoli vaziyatlarni ijodiy hal etish ijodiy muhit yaratishni taqozo etadi.

Biologiyani o'qitishda ijodiy muhit yaratish o'quvchilarning ijodiy fikr yuritish ko'nikmalarini tarkib toptirishga zamin tayyorlaydi.

Biologiyadan laboratoriya mashg'uloti o'quvchilarning darslar davomida o'zlashtirgan nazariy bilimlarini amaliyotga qo'llash asosida o'quv dasturi va



DTS bilan belgilangan ko'nikmalarni egallash maqsadida tashkil etiladi.

Laboratoriya ishi davomida o'quvchilar:

- Darsda o'rganilgan biologik obyektlarda sodir bo'ladigan jarayon, hodisalarni ilmiy bilish metodlari vositasida amaliy jihatdan kichik guruhlarda o'rganadi va tadqiq etadi.

- Laboratoriya ishi bosqichlari va ularda kuzatilgan holatlarni izohlaydi va olingan natijalar asosida xulosani rasmiylashtiradi. Xulosani nazariya bilan qiyoslaydi va umumiy xulosani shakllantiradi.

Ayrim hollarda laboratoriya ishi natijalari yuzasidan taqdimot tayyorlash va himoya qilish ham talab etiladi.

Biologiya o'quv dasturida o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini mustahkamlash, ularni amaliyotga qo'llash orqali biologik, amaliy va o'quv mehnati ko'nikmalarini tarkib toptirish maqsadida laboratoriya mashg'ulotlari kiritilgan.

O'qituvchi laboratoriya mashg'ulotlarini talab darajasida o'tkazish uchun:

- Laboratoriya mashg'ulotlarining didaktik maqsadini aniqlashi;
- Laboratoriya mashg'uloti uchun zarur bo'ladigan jihozlarni tayyorlashi;
- Laboratoriya mashg'ulotida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish yo'llarini belgilashi va shu asosda mashg'ulotning borishini loyihalashi;

- Laboratoriya mashg'ulotida foydalaniladigan innovasion va axborot texnologiyalaridan foydalanish yollarini belgilashi; (4)

- O'quvchilarning tajriba va kuzatish o'tkazish jarayonida zarur bo'ladigan topshiriqlar uchun ko'rsatmalar tayyorlashi;

- Laboratoriya mashg'uloti topshiriqlari bo'yicha o'quvchilar tomonidan tayyorlanadigan axborotni rasmiylashtirish yo'llarini aniqlashi lozim.

- Laboratoriya mashg'ulotining borishi va olingan natijalarni tahlil qilishi, zarur hollarda tegishli o'zgartirishlar kiritishi lozim.

Amaliy mashg'ulotda o'quvchilar o'qituvchi tomonidan belgilangan ishni mustaqil bajarish rejasini shakllantirish, qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish, o'rganilgan materialni sharhlash, muayyan darajada suhbat o'tkazish, o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash, avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarni yangi vaziyatda ijodiy qo'llashga imkon yaratiladi. Bu jarayonda o'quvchilar tayanch va biologiyaga oid xususiy kompetensiyalarni egallashiga imkon yaratiladi.

- Amaliy mashg'ulotning asosiy didaktik maqsadi o'quvchilarda o'quv materialini umumlashtirish, ilmiy g'oya va qonunlarni sharhlash, o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni amalda qo'llash ko'nikmalarini tarkib toptirish sanaladi. Shuningdek, amaliy ishning natijasi kelgusida o'rganiladigan mavzularga zamin tayyorlashini yoddan chiqarmaslik kerak.

- O'qituvchi amaliy mashg'ulotlarni loyihalash jarayonida o'quvchilar tomonidan bajariladigan ishning ketma-ketligi, ularning o'zlashtirgan bilim,



ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholashni muntazam va haqqoniy baholash metodlarini aniq belgilashi lozim.

Biologiya o'quv dasturidan o'quvchilarning o'quv va amaliy mehnat ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida amaliy mashg'ulotlar ham o'rin olgan. O'qituvchi mazkur amaliy mashg'ulotlarning samaradorligini oshirish maqsadida quyidagilarga e'tiborini qaratishi lozim:

O'quv dasturidan o'rin olgan amaliy mashg'ulotlarni istiqbol va taqvim mavzuli rejadagi va ta'lim-tarbiya jarayonida tutgan o'rnini aniqlashi;

– Amaliy mashg'ulotlarining didaktik maqsadini aniqlashi;

– Amaliy mashg'ulotini o'tkazish uchun zarur bo'ladigan jihozlarni tayyorlashi;

– Amaliy mashg'ulotda o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish yo'llarini belgilashi va shu asosda mashg'ulotning borishini loyihalashi;

– Amaliy mashg'ulotda foydalaniladigan innovasion va axborot texnologiyalaridan foydalanish yollarini belgilashi;

– O'quvchilarning tajriba va kuzatish o'tkazish jarayonida zarur bo'ladigan topshiriqlar uchun ko'rsatmalar tayyorlashi;

– Amaliy mashg'ulotning borishi va olingan natijalarni tahlil qilishi, zarur hollarda tegishli o'zgartirishlar kiritishi lozim.

Ko'pchilik adabiyotlarda laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar bir xil tarzda bayon etiladi. Garchi har ikkala mashg'ulot bir-biriga o'xshasa-da ularning qiyosiy tahlilidan farqi ko'zga tashlanadi.

Laboratoriya mashg'uloti va amaliy ishning qiyosiy tahlili

LABORATORIYA MASHG'ULOTI	AMALIY MASHG'ULOT
--------------------------	-------------------

FARQI

O'quvchilarning muayyan mavzuda o'zlashtirgan nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash va nazorat qilish	O'quvchilarning muayyan mavzuda o'zlashtirgan nazariy bilimlarini amaliyotga qo'llash
O'quvchilarning tabiiy (fizika, kimyo, geografiya) va aniq (matematika, informatika) fanlardan o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malakalar asosida fanga oid xususiy kompetensiyalarni tarkib toptirish	O'quvchilarning muayyan mavzuda o'zlashtirgan nazariy bilimlari asosida ko'nikmalarni tarkib toptirish
Fanga oid kompetensiyalar asosida o'quvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlik shakllantirish imkonini beradi.	O'quvchilardagi biologik ko'nikmalarni malakaga aylantirish
O'quvchilarda ijodiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlanadi	Ish yuzasidan xisobot yozish va xulosalash imkoniyatini beradi.



O'XSHASHLIGI

O'qituvchi ko'rsatmasiga muvofiq, tavsiya etilgan vosita va adabiyotlardan foydalanilgan holda ishini bajarish tartibi asosida tashkil etiladi.
O'quvchilarda amaliy bilim, ko'nikma, malaka va fanga doir xususiy kompetensiyalarni tarkib toptirish va mustahkamlash.
O'quvchilarning o'zlashtirgan nazariy va amaliy bilim, ko'nikma, malaka va fanga doir xususiy kompetensiyalari asosida ijodiy faoliyatni tarkib toptirish va rivojlantirish.
O'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash, kasb va ijodiy faoliyatga yo'naltirish
O'quvchilarning ijodiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish orqali vitagen (hayotiy) tajribalarni egallashiga sharoit yaratish.

Xulosa qilib aytganda, biologiya o'qituvchisi o'quv yili boshida o'quv fanini o'qitishni rejali va tizimli amalga oshirish maqsadida istiqbol reja tuzishi, unda fanlararo bog'lanishlar, ekskursiya va sinfdan tashqari ishlarni belgilashi, mavzuli-taqvim rejada dars, darsdan tashqari ishlar, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni aniqlashi, dars va mashg'ulotlarni talab darajasida tashkil etilishi va o'tkazishi, o'quv va test topshiriqlari vositasida o'quvchilarning ijodiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirishga erishishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кушнир А.М., Вифлеемский А.Б. Концептуальный очерк образовательной стратегии на основе теории человеческого капитала и проблема правовой регламентации производственного (трудового) воспитания // Народное образование. - 2018. - №5. - С. 10.
2. Кармазина Ю.А. Образование как инвестиции в человеческий капитал // Молодой ученый. - 2014. - №7. - С. 349-351.
3. Tolipova J. O., A.T. G'ofurov. Biologiya o'qitish metodikasi.: Moliya-iqtisod TDPU.- 2012. - 240 b.
4. Tolipova J.O. Biologiya ta'limi texnologiyalari. T. "O'qituvchi" -2002. - 160 b.



BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING ILMIY DUNYOQARASHINI YUKSALTIRISH

N.MISIROVA,

GulDU katta o'qituvchisi

X.YULDOSHEVA,

GulDU talabasi

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarida ilmiy dunyoqarashini kengaytirishni ta'lim-tarbiya jarayonining turli jabhalarida amalga oshirish uchun har bir fan shakllanishidagi ilmiy asarlarni qayd qilib o'tish va talabani ilmiy izlanish jarayoniga e'tiborini qaratish yetarli.

Kalit so'zlar: inson ilmiy dunyoqarashi, inson ma'naviy kamolati va intellektual salohiyati, jismoniy va ma'rifiy darajalar, chaqaloq; go'dak; o'quvchi; o'quvchi-shaxs; talaba; talaba-shaxs; mutaxassis; yuqori malakali mutaxassis.

In order to expand the scientific outlook of future primary school students in various aspects of the educational process, it is enough to note the scientific works in the formation of each subject and to draw the student's attention to the process of scientific research.

Key words: human scientific outlook, human spiritual maturity and intellectual potential, physical and enlightenment levels, baby; baby; student; student-person; student; student-person; specialist; highly qualified specialist.

Zamon taraqqiyotiga mos rivojlanish, ya'ni hozirgi davrning shiddatkor va shahdam odimlari muntazam ravishda yuksalishda bo'lib, oldimzigga mas'uliyatli vazifalarni qo'yimoqda. Ayniqsa, ilm-fan va texnika-texnologiyalarning rivojlanib borishi, barkamol avlod shaxsi dunyoqarashini yuksaltirishga chorlamoqda.

"Dunyoqarash – shaxsning shaxsligini, ma'naviyatini, ijtimoiylashuvi doirasini ko'rsatuvchi kuchli motivlardandir". "Dunyoqarash – tartibga solingan, yaxlit ongli tizimga aylantirilgan bilim, tasavvurlar va g'oyalar majmui bo'lib, u shaxsni ma'lum qolipdan o'z shaxsiy qiyofasiga ega tarzda tabiatda munosib o'rin egallashga chorlaydi".

Yuqorida keltirilgan ya'ni dunyoqarashga berilgan qomusiy va falsafiy lug'atdagi ta'riflar hamda pedagogik va psixologik ta'riflardan ko'rinib turibdiki, dunyoqarash tushunchasi odamning o'zining onadan tug'ilishi bilan dunyoni ko'rishidan boshlanib, yuksak intellektual salohiyatni egallagunga qadar rivojlanib boradi. Demak, shaxs tarbiyasi jarayoni ijtimoiy muammo bo'lib, uni yechimi esa har bir inson o'sha jamiyatning to'laqonli faol a'zosi bo'lishligi bilan belgilanadi.

Ma'lumki, jismoniy kamolot har doim ham inson ma'naviy kamolati va



intellektual salohiyatini, ya'ni inson dunyoqarashini darajasini to'g'ri belgilab olish imkonini beravermaydi. Quyidagi ketma-ketlik esa inson kamolatini jismoniy va ma'rifiy darajalar asosidagi bosqichlarini belgilaydi: chaqaloq; go'dak; o'quvchi; o'quvchi-shaxs; talaba; talaba-shaxs; mutaxassis; yuqori malakali mutaxassis. Bularni talabalarga mustaqil topshiriq berish orqali birinchi kursdanoq boshlab yuborgan ma'qul va ushbu jarayonning uzluksiz ketma-ketligini quyidagicha amalga oshirgan ma'qul:

– talabalarga o'rganiladigan tushuncha yuzasidan ma'lumotlarni to'plashni va ularni axborot ko'rinishiga aylantirishni o'rgatish. Bunda kutubxonadagi kartoteka va ular asosidagi adabiyotlar ro'yxatini tuzish;

– o'rganilishi kerak bo'lgan adabiyotlarning annotatsiyasi yoki referati haqida ma'lumot berish. Buni fan o'qituvchilari o'z fanining dastlabki bosqichida ya'ni fanning maqsadi va vazifalari hamda predmetlarni bayon qilish paytida amalga oshirsa bo'ladi yoki bu jarayon ilmiy ijodiyot to'garaklarning bevosita vazifasi hamdir;

– talabalarga aniq mavzu bo'yicha referat yozishni topshirish orqali ham amalga oshiriladi va shu tariqa oliy o'quv yurtlaridagi o'qitishni tugatgunga qadar joriy topshiriqlar berib borilaveradi. Bu boradagi ushbu ilmiy izlanishimizning samaralarini "Ilmiy ijodiyotga kirish" mavzusidagi fanni o'rganishda yaqqol seziladi. Ushbu fan talabalarni tayyorlash o'quv rejasining "tanlov fanlar" blokida kiritilgan bo'lib, unda o'zlashtirilgan bilimlar o'quv rejasidagi boshqa (keyingi) fanlar bloklaridagi fanlarni yuqori saviyada o'zlashtirishga ham mustahkam asos bo'ldi va ayniqsa, to'rt yil davomida beriladigan ijodiy topshiriqlar (mustaqil ta'limga oid ma'lumotlarni izlashda, annotatsiya va referat yozishda, tezis va ma'ruza tayyorlashda, kurs va malakaviy bitiruv ishlari ustida ishlashda)ni bajarishda ham mustahkam intellektual asos bo'ldi. Bu yerda ma'lumotning axborotga aylanishi masalasi o'rganilayotgan manba bo'yicha to'plangan ma'lumotlarni foydalanishga qulay holga keltirish yo'li bilan amalga oshiriladi, ya'ni foydalaniladigan ma'lumotlarga axborot deyiladi.

Umuman ta'lim-tarbiya sohasidagi dolzarb muammolardan biri (u har qanday kishilik taraqqiyoti davrida dolzarb bo'lib kelgan) ijtimoiy, siyosiy, tabiiy va texnik fanlar sintezi muvaffaqiyatini amaliyotda qo'lash – yangicha (ijodiy darajadagi) fikrlovchi teran va aniq ravshan hamda mustaqil fikrlarini amalda tadbiq qila oladigan inson tafakkurini samarali shakllantirishdan iboratdir. Bularning barchasi



orqali inson omilining yanada oshishiga keng imkoniyatlar yaratilmoqda, ya'ni inson ilmiy dunyoqarashi kengayishiga mustahkam omildir. Buning zahirida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar uchun yuksak ilmiy dunyoqarashni shakllantirish zarurligi yotadi.

Mustaqil ilmiy dunyoqarash→ijodiy tafakkur→shaxs ma'naviy kamoloti→ intellektual mulki shaxs belgisidir. Shu sababli ham inson tafakkurining rivojlanish imkoniyatlari cheksiz bo'lib, u shaxs ilmiy dunyoqarashini yuksalishi bilan hamohang rivojlanib boradi. Shu ma'noda mustahkam ilmiy dunyoqarash muayyan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy asosda yuzaga keladi va ma'naviyatning rivoji qanchalik uyg'un bo'lsa, ijtimoiy taraqqiyot uchun mustahkam asos bo'ladigan fan, ilg'or g'oyalar va qarashlar hamda ta'limotlar ko'proq yuzaga chiqadi va ular o'zlariga mos-xos taraqqiyot yo'nalishiga ijobiy ta'sir qiladi.

Talabalar uchun ijodiy tafakkur va unga mos ilmiy dunyoqarashning yuksakligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy dunyoqarash shaxs faolligi, aql quvvatini ishga sola bilish, borliqqa o'zgartirish kirita bilish, ya'ni mustaqil harakatdir. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni tayyorlashda ushbu mustaqil harakatni boshqarish ham ijobiy faoliyatni talab etib, uni uzluksiz mantiqiy ketma-ketlikda (I-IV kurslarda) olib borishni taqozo etadi. Ma'lumki, ilmiy dunyoqarash albatta yangi ijodiy natijaga erishishni nazarda tutadi, Yangi dunyoqarashga bo'lgan talab, ilmiy dunyoqarashni bir butun struktura orqali ifodalashni talab etadi.

Ko'rinib turibdiki, ma'ruza, seminar, laboratoriya talabalar ilmiy dunyoqarashini kengaytirishda ular nafaqat auditoriyadan mashg'ulotlarida, individual suhbatlarda ham, mustaqil fikrlashlari ham muhimdir. Ayniqsa, bu borada tafakkur o'yinlarining roli va o'rni beqiyosdir.

Quyida biz talabalar kasbiy faoliyatini egallashda ko'proq uchraydigan ilmiy dunyoqarashni yuksaltiruvchi omillar haqida qisqacha ma'lumot beramiz:

ilmiy to'garaklarga qatnashish va ularni mavzular bilan qatnashish orqali ham amalga oshiriladi;

talabalarga kurs ishlari (loyihalari) tayyorlash orqali;

fanga oid ilm-fan va texnika-texnologiyalarga bog'liq ilmiy qadriyatlarni yig'ish va bir tizimga keltirish orqali;

ilmiy tushunchalar va fikrlar (g'oyalar) bilan ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy anjumanlarga qatnashish uchun ma'ruzalar tayyorlash orqali;



ilmiy seminarlarga faol qatnashish orqali;
ilmiy qadriyatlarning ijtimoiy moddiy qadriyatlarga aylanishi monitoringini olib borish orqali;

malakaviy bitiruv ishlarini tayyorlash orqali va hokazo.

Talabalarning ilmiy dunyoqarashi va aqliy tarbiyaga oid bilim, ko'nikma, malakalarini kompyuterlarda mustaqil shakllantirishlariga erishishlarini kafolatlaydi va bu o'z navbatida ular bilan qo'shimcha qiziqarli mashg'ulotlar olib borishga imkoniyat yaratadi.

Bu orqali ta'limda yangi kadrlar tayyorlashning jahon andozalari talablariga javob beradigan variant kafolatlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. - Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. - 2. j. - 682 b.
2. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. - Toshkent: Istiqlol, 1999. - 166 b.
3. Milliy pedagogikamiz tarixiy ildizlari va barkamol avlod tarbiyasi J. Hasanboev, X. A. To'raqulov va B. J. Hasanboev tahriri ostida- Samarqand, 2007. - 215 b.



*Jurnalning ushbu sonini
tayyorlashda qatnashganlar:
L.Qaraxanova, S.Pirmatov.*

*O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligidan
03.01.2007 yilda № 0101 tartib raqami bilan
ro‘yxatdan o‘tgan.*

*«Uzluksiz ta’lim» jurnali O‘zbekiston Respublikasi OAK
rayosatining 2013 yil 30 dekabrda 201/3-sonli qarori bilan
pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha ilmiy jurnallar
ro‘yxatiga kiritilgan.*

*Jurnal talablariga to‘liq rioya qilingan holda 1,5 intervaldagi
6-7 bet hajmdagi ilmiy maqolalar elektron versiyasi
bilan birga qabul qilinadi.*

Bosishga ruxsat etildi: 06.06.2022 y. Qog‘oz bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$
Ofset bosma usulida bosildi. 8-bosma taboq.
Adadi 120 nusxa. Buyurtma

**«ADAD PLYUS» MCHJ matbaa korxonasi.
Toshkent sh., Chilonzor t. Bunyodkor ko‘chasi, 28-uy.**